

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

OBLAKULOV D.O.

MUSTANOV I.A.

XALQARO JINOYAT HUQUQI

**Toshkent
“Adolat”
2013**

UO'K: 341.4(072)
KBK: 67.412.2
O-14

O-14 Oblakulov D., Mustanov I. Xalqaro jinoyat huquqi./
Monografiya./TDYuI. – Toshkent, “Adolat”, 2013-yil. – 188 b.

Toshkent davlat yuridik instituti O'quv-uslubiy kengashning 2013-yil 24-yanvardagi yig'ilishida (Bayonnoma № 6) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-394-65-0

UO'K: 341.4(072)
KBK: 67.412.2

Mas'ul muharrirlar:

B.I. Ismoilov – yuridik fanlari doktori, professor;
G.Yu. Yuldasheva – yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

B.X. Po'latov – O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining
Oliy o'quv kurslari kafedra boshlig'i,
yuridik fanlari doktori, professor;
S.S. Niyozova – yuridik fanlari nomzodi, dotsent;
D.Sh. Umarxanova – yuridik fanlari nomzodi.

Ushbu monografiyada xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, xalqaro huquqbuzarliklar tushunchasi va turlari, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashishda BMT va boshqa tashkilotlarning o'rni kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, xalqaro jinoyat huquqining predmetiga oid olimlar orasidagi bahsli fikrlar va unga nisbatan mualliflarning o'z qarashlari yoritilgan.

Monografiya yuridik oliy o'quv yurtlarining talabalari, magistrleri, amaliyot xodimlari hamda ushbu mavzuga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

ISBN: 978-9943-394-65-0

© Oblakulov D.O., Mustanov I.A., 2013.
© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2013.

MUNDARIJA:

Kirish	4
I bob. Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, tamoyillari va manbalari	9
1.1. Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi va uning shakllanishi	9
1.2. Xalqaro jinoyat huquqining tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari	21
1.3. Xalqaro jinoyat huquqining asosiy manbalari	30
II bob. Xalqaro huqubuzarlik tushunchasi, turlari va tasnifining ilmiy nazariy tahlili	41
2.1. Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari	41
2.2. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari va ularga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	57
III bob. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tashkilotlarning o'rni	119
3.1. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMT va boshqa tashkilotlarning o'rni.....	119
3.2. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda Shanxay hamkorlik tashkilotining o'rni.....	137
3.3. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda INTERPOL faoliyatining o'ziga xos jihatlari.....	143
3.4. Xalqaro Tribunallar va Xalqaro Jinoyat Sudi	152
Xulosa	161
Sxemalar	164
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	174

KIRISH

“Mustaqillik va suverenitet jahon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatishimizga imkon yaratdi”¹.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, demokratik huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotda ijtimoiy bozor munosabatlariga o‘tilishi yo‘lini tanlab, mustaqil taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, ozod va suveren mamlakatga, xalqaro munosabatlarda teng huquqli a‘zo davlatga aylandi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, keyingi yillarda xalqaro miqyosida xalqaro va transmilliy jinoyatchilikning kengayib borishi boshqa davlatlar qatori bizning mamlakatimiz oldiga ham xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash borasida hamkorlikni kuchaytirish vazifasini qo‘ymoqda.

Jinoyatchilik, shu jumladan, xalqaro jinoyatchilik murakkab hodisa ekanligi, jinoyatchilik dunyosi chegara bilmasligi bilan ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov takidlaganlaridek, ***“Yengil yo‘l bilan juda katta boylik orttirish sharpasi turli mamlakatlardagi jinoyatchi unsurlarning birlashishiga, xalqaro jinoiy hamjamiyatlar paydo bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatuvchi misollar butun dunyo amaliyotida yetarli. Ularning faoliyat sohasi barchaga ma‘lum: u nopok pul topish imkoni bo‘lgan hamma joyda qo‘llaniladi”².***

Darhaqiqat, hozirgi kunda xalqaro jinoiy uyushmalar tomonidan narkobiznes, qurol-yarog‘ savdosi, odam savdosi va odam-

¹ Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 5-bet.

² Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 95-bet.

larni ekspluatatsiya qilish ko'rinishidagi transmilliy jinoyatlar birgina davlat hududi bilan chegaralanib qolmay, butun insoniyatga xavf soladigan jinoyatlarga aylanib bormoqda.

Mustaqilikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab to hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, jinoiy faoliyatlardan olinadigan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida 120 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar imzolangan.

Shulardan:

22 tasi uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro konvensiyalar va ularga qo'shimcha protokollar;

10 tasi uyushgan jinoyatchilik va giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar;

3 tasi O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida uyushgan jinoyatchilik hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'risidagi xalqaro shartnomalari;

11 tasi Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro shartnomalar;

14 tasi giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohasidagi ikki tomonlama xalqaro shartnomalar;

26 tasi jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi ikki tomonlama shartnomalar;

16 tasi iqtisodiy va moliyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, kelgusida jazoni o'tash uchun sudlangan shaxslarning ushlab berish (ekstraditsiya) sohasidagi ikki tomonlama shartnomalar.

20 ga yaqin xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro shartnomalar loyihalari qayta ishlanmoqda.

Aynan, shu nuqtai nazardan xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i bo'lgan xalqaro jinoyat huquqiga bag'ishlangan maz-

kur monografiya alohida dolzarb ahamiyatga ega xalqaro va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar hamda ularga qarshi kurash sohasi-dagi xalqaro hamkorlik masalalarini yoritishga qaratilgan.

Xalqaro huquqning ushbu sohasi bilan bog'liq muammolarning ayrim qirralari o'zbek olimlaridan: A.X. Saidov¹, X.T. Odilqoriyev², B.E. Ochilov, A.Mamatqulov³, G. Yuldasheva⁴-larning asarlarida umumiy tarzda bayon etilgan.

Ushbu soha bo'yicha xorijiy davlatlar olimlaridan Alexander Zahar va Goran Sluiter⁵, Yonah va Swetnam⁶, Bassiouni⁷, Cherif M.⁸, John R. Bolton⁹, Chadwick¹⁰, Dugard¹¹, Hoogh¹²,

-
- 1 Saidov A.X. Xalqaro huquq./Darslik. – T.: Adolat, 2001. – 360 b., Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari (o'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 392 b., Saidov A.X. Xalqaro huquq chizmalar va ta'riflarda. O'quv qo'llanma. – T.: Adolat, 2001. – 352 b.
 - 2 Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (omnaviy huquq). Darslik. – T.: 2002. – 559 b.
 - 3 Mamatqulov A. Xalqaro huquq./Darslik. – T.: Adolat, 1997. – 319 b.
 - 4 Юлдашева Г. Международное право (на карак. яз). Учебник. – T.: ТДЮИ, 2005. – 432 с.
 - 5 Alexander Zahar and Goran Sluiter, *International Criminal Law: A Critical Introduction*. Oxford: Oxford University Press, 2007, XLVIII +530 pp.
 - 6 Alexander, Yonah and Swetnam, Michael S. *Cyber terrorism and information warfare*. Dobbs Ferry, N.Y.: Oceana Publications, 1999.
 - 7 Bassiouni, M. Cherif. *International extradition: United States law and practice*. New York: Oceana Publications, 1996.; Bassiouni, M. Cherif and Eduardo Vetere, eds. and compilers, with the cooperation of Dimitri Vlassis. *Organized crime: a compilation of U.N. documents 1975–1998*. Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998.; Bassiouni, M. Cherif. *International criminal law*, 2nd ed. Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998.
 - 8 Cherif M. Bassiouni, *International Criminal Law (2nd ed.)* (Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998), – pp. 4–5.
 - 9 John R Bolton, 6 May 2002. *International Criminal Court: Letter to UN Secretary General Kofi Annan*. US Department of State. Accessed 2006-11-23.
 - 10 Chadwick E. *Self-determination, terrorism and the international humanitarian law of armed conflict*. The Hague; Boston, Mass.: M. Nijhoff, 1996.
 - 11 Dugard, John and Christine van den Wyngaert, eds. *International criminal law and procedure*. Aldershot; Brookfield, VT, 1996.
 - 12 Hoogh, André de. *Obligations erga omnes and international crimes: a theoretical inquiry into the implementation and enforcement of the international responsibility of states*. Hague; Boston: Kluwer International Law; Cambridge, MA: 1996.

Gilbert, Geoff¹, Van den Wyngaert², Kriangsak Kittichaisaree³, Ilias Bantekas⁴, Helmut Kreicker⁵ o'zlarining kitoblarida va ilmiy izlanishlarida ko'pgina detallarni keng doirada yoritib bergan.

V.P. Panov⁶, I.I. Lukashuk⁷, E.N. Trikoz⁸, shuningdek, o'zbek olimlaridan: B. Ismoilov⁹, E.X. Norbo'tayev¹⁰, A. Pardayev, F. Safoyev, G. Matkarimova¹¹, D. Sattorov¹², M.T. Turg'unov, A.A. Matchanov, A.T. Niyozov¹³, D.Sh. Umarxanova¹⁴ asarlarida "Xalqaro jinoyat huquqi"ga oid masalalarning turli jihatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilingan.

¹ Gilbert, Geoff. Transnational fugitive offenders in international law: extradition and other mechanisms. The Hague; Boston: M. Nijhoff Publishers; Cambridge, MA, 1998.

² Van den Wyngaert, Christine, ed. International criminal law: a collection of international and European instruments. The Hague; Boston: Kluwer Law International, 1996.

³ Kriangsak Kittichaisaree. International Criminal Law. Oxford etc.: Oxford University Press, 2002, xxxi + 482 pp.

⁴ Ilias Bantekas, Susan Nash, Mark Mackarel. International Criminal Law. London etc.: Cavendish, 2001, lvi + 323 pp.

⁵ Helmut Kreicker: Immunität und IStGH: Zur Bedeutung völkerrechtlicher Exemtionen für den Internationalen Strafgerichtshof. In: Zeitschrift für internationale Strafrechtsdogmatik (ZIS), vol 7/2009, available at Zis-online.com; Helmut Kreicker: Völkerrechtliche Exemtionen: Grundlagen und Grenzen völkerrechtlicher Immunitäten und ihre Wirkungen im Strafrecht. 2 vol., Berlin 2007.

⁶ Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА-М, 1997. – 320 с.

⁷ Лукашук И.И., Наумов А.В. Выдача обвиняемых и осужденных в международном уголовном праве: учебно-практическое пособие. – М.: 1998.

⁸ Трикоз Е.Н. Международное уголовное право: Практикум/науч.ред. А.Х. Абашидзе – М.: Норма, 2007. – С. 400.

⁹ Ismoilov B. Zamonaviy xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlari (Maxsus kurs bo'yicha ma'ruzalar matni). – T.: 2012.

¹⁰ Norbo'tayev E.X., Pardayev A., Safoyev F. Xalqaro jinoyat huquqi kursi/O'quv qo'llanma. – T.: 2004. – 28 b. Norbo'tayev E.X., Safoyev F. Kurs mehdunarodnogo ugolovnogo prava/Uchebnoe posobie. – T.: Akademiya MVD RUz, 2005. – 64 b.

¹¹ Matkarimova G.A. Xalqaro jinoyat huquqi/O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI, 2006. – 63 b., Matkarimova G., Sattorov D. Xalqaro jinoyat huquqi/O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI, 2009. – 59 b.

¹² Sattorov D. Xalqaro sud. Xalqaro jinoyat sudi. – T.: 2004. – 46 b.

¹³ Turg'unov M.T., Matchanov A.A., Niyozov A.T. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik: ma'ruzalar kursi. Mas'ul muharrir y.f.d. professor A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 133 b.

¹⁴ Umarxanova D.Sh. Ekstraditsiya bo'yicha xalqaro huquqiy hamkorlik. Mono-grafiya. – T.: 2010. –142 b.

Monografiyada xalqaro jinoyat huquqi muammolarini hal etish maqsadida quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan:

- xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi va uning shakllanishini o'rganish;

- xalqaro jinoyat huquqining, tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, xalqaro jinoyat huquqining predmetiga oid, olimlar o'rtasida bahsli fikrlarni ochib berish va unga nisbatan mualliflarning qarashlarini ham yoritish;

- xalqaro jinoyat huquqining asosiy manbalari yuzasidan ilmiy-nazariy fikrlarni o'rganish;

- xalqaro huquqbuzarlik tushunchasi, turlari va tasnifini tahlil etish, xalqaro va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar, ularning farqlovchi belgilarini aniqlash;

- xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning o'rniga e'tibor qaratish;

- Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti (INTERPOL)ning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi roli;

- xalqaro jinoyatchilik bilan kurashishda Shanxay hamkorlik tashkilotining o'rni;

- Xalqaro Tribunallar va Xalqaro Jinoyat Sudi faoliyatini o'rganish.

Ushbu kitobni yozishda o'zbekistonlik va xorijiy davlatlarning taniqli olimlari tomonidan yozilgan asarlardan, shuningdek, xalqaro huquq tomonidan e'tirof etilgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlardan keng foydalanildi.

Monografiyada bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar yuridik institut va yuridik fakultetlar, yuridik kollejlarda xalqaro huquq va kriminologiya fanlaridan dars o'tish jarayonlarida, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda zarur qo'llanma bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

**yuridik fanlari doktori, professor
B.I. Ismoilov**

I bob.

XALQARO JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI, TAMOYILLARI VA MANBALARI

1.1. Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi va uning shakllanishi

Xalqaro jinoyat huquqiga oid jinoyatlar qadimdan ma'lum. Xalqaro jinoyat huquqi¹ iborasi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro va xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurashda zarurdir.

Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar hamkorligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar va tamoyillar tizimi sifatida xalqaro huquqning ushbu sohasi O'zbekiston Respublikasi sharoitida shakllanish va rivojlanish bosqichidadir.

Xalqaro jinoyat huquqi xalqaro huquqning bir tarmog'i sifatida asosan XIX asr oxirida shakllangan bo'lishiga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizga ega. Ba'zi tartib-qoidalar davlat va huquq vujudga kelishining ibtidosiga borib taqaladi. Birinchi navbatda bu jinoyatchilarni topshirish – ekstraditsiya²ga taalluqli bo'lib,

¹ **Izoh:** Turli darslik va ilmiy yuridik adabiyotlarda ushbu soha uch xil nomlangan “Xalqaro jinoyat huquqi”, “Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlik” va “Xalqaro jinoyatchilik bilan kurashda xalqaro huquqning roli”. Bugungi kunda “Xalqaro jinoyat huquqi” iborasi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Xususan, 1997-yil Moskvada chop etilgan V.P. Panovning “Международное уголовное право” nomli o'quv qo'llanmasida hamda I. Lukashuk, A. Saidovning 2007-yilda chop etilgan “Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi” nomli o'quv qo'llanmasida, X.T. Odilqoriyev, B.E. Ochilovning “Hozirgi zamon xalqaro huquqi” (Xalqaro ommaviy huquq) darsligida ushbu soha “Xalqaro jinoyat huquqi” deb nomlangan. Shuningdek, xorijiy davlatlarda ushbu sohada chop etilgan aksariyat adabiyotlarda ham “Xalqaro jinoyat huquqi” iborasi ko'proq qo'llanilmoqda. Masalan: Kriangsak Kittichaisaree, International Criminal Law. Oxford etc.: Oxford University Press, 2002, XXXI + 482 pp.,

² **Izoh:** Ekstraditsiya (“extradition” – lot. “ex” – tashqarida va “traditio” – topshirish; odatdan tashqari iltimos) – xalqaro shartnomalar, milliy qonunchilik hujjatlari yoki o'zaro hamkorlik tamoyili asosida jinoyat sodir etgan hamda qoida tariqasida, u istiqomat qilayotgan mamlakat fuqarosi bo'lmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki jozoni ijro etish uchun vakolatli jinoyat sud ish yurituviga davlatlararo huquqiy institut//Ford M. The Law of Extradition in UK. – London, 1995.

u nafaqat shu sohaning eng qadimgi tartib-qoidasi hisoblanadi, balki xalqaro jinoyat huquqi aynan shundan boshlanganligini bildiradi. Topshirish tartibidan, umuman, xalqaro huquqning ma’lum davrlanishi bilan mos keluvchi xalqaro jinoyat huquqining davrlanishi ham boshlanadi.

“Jinoyatchilarni topshirish to’g’risidagi ta’limotda, – deb yozgandi F.F. Martens o’zining “Taraqqiy etgan xalqlarning zamonaviy xalqaro huquqlari” darsligida, – hozirgi vaqtdagi xalqaro jinoyat huquqining butun manfaati mujassamdir”¹. Quldorlik davrida ekstraditsiyaning mavjud bo’lganligidan davlatlar orasidagi ikki tomonlama bitimlar ham guvohlik beradi. Tarix darsliklaridan mill.avv. 1292-yilda Xettlar shohi Xattusi III va Misr fir’avni Ramzes II o’rtasida tuzilgan bitim haqida bilamiz. Unda shunday deyilgan: “Agar biror kimsa Misrdan qochib ketsa, Xettlar shohi uni tutib turmaydi, balki Ramzes mamlakatiga qaytaradi”².

Feodalizm davrida elchilar (diplomat)ga elchilik imtiyozlari va immunitet (shaxsiy daxlsizlik) berish xalqaro odatlari shakllandi.

Burjua-demokratik inqiloblar milliy jinoiy huquqining faol shakllanishi bilan yuz beradi. Bunda jinoiy huquqning umumiy qismlari tartibi va jinoyatlarning turlari har xil mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Shu sababli davlatlar uchun jinoiy ishlar bo’yicha huquqiy yordam masalasida kelishib olish qiyinchilik tug’dirmasdi.

Qaroqchilik, qul savdosi, qalbaki pul yasash, giyohvand moddalari noqonuniy savdosi va bir necha davlatlar manfaatlariga zarar keltiruvchi boshqa jinoyatlarning paydo bo’lishi bilan ular orasida hamkorlik zaruriyati ham yuzaga keldi. Isbotdallillar to’plashda, jinoyatchilarni topshirishda va shu kabilarda o’zaro huquqiy yordam ko’rsatish hamda xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini ta’minlash uchun jinoyatlarni tavsiflovchi jinoiy-huquqiy me’yorlarni bir xillashtirish zarurati paydo bo’ldi.

¹ Мартенс Ф.Ф. Современное международное право цивилизованных народов. – Т.2. – СПб, 1905. – С. 391.

² O’sha joyda.

1889-yilda yevropalik taniqli kriminalist va krimonologlar F. List (Berlin), A. Prins (Bryussel), G. Van Gammel (Amsterdam)lar tashabbusiga ko'ra Jinoiy huquq Xalqaro ittifoqi ta'sis etilib, ushbu ittifoq xalqaro jinoyat huquqini takomillashtirish, xalqaro jinoyatlarni o'rganish hamda davlatlar tomonidan kelishilgan holda xalqaro politsiya chora-tadbirlari o'tkazish yo'li bilan ularni bostirish ishlarida barcha davlatlarni hamkorlikka chorladi. Mazkur ittifoq nafaqat xalqaro jinoyatlarni ta'qib qilish metodikasini takomillashtirishni, balki xalqaro jinoyatchilik sabablarini ham huquqiy, ham antropologik va sotsiologik nuqtai nazarlardan o'rganishni o'z vazifasi deb biladi.

XIX asrda davlatlar xalqaro xususiyatga ega alohida jinoyatlar bilan kurashishda faol hamkorlik qila boshladi. Birinchi navbatda bu hamkorlik qulchilik va qul savdosiga tegishli edi. Masalan, 1815-yilda Vena kongressi bu masala bo'yicha maxsus deklaratsiya qabul qildi. 1818-yilda Axen kongressi qora tanlilar savdosini jinoyat deb e'tirof etdi. Angliya, Fransiya, Rossiya, Avstriya va Prussiya o'rtasida tuzilgan 1841-yilgi London bitimi qul savdosini qaroqchilikka tenglashtirdi va shu mamlakatlar harbiy kemalariga qul savdosida gumondor kemalarni to'xtatish, tintuv qilish, qullarni ozod qilish hamda aybdorlarni huquq organlariga topshirish huquqini berdi. 1862-yilda Angliya va AQSh shubhali kemalarni birgalikda tintuv qilish shartnomasini tuzdi.

1885-yilda 16 ta davlat ishtirokidagi Berlin konferensiyasida Kongo to'g'risidagi bosh hujjat imzolandi va qul savdosining jinoyat ekanligi hamda bu jinoyat bilan shug'ullanganlarning jazolanishi tasdiqlandi. Kongo daryosi havzasidan qul bozori yoki ularni tashish yo'llari sifatida foydalanish taqiqlandi. 1890-yilda Brussel konferensiyasida 7 bob 100 moddadan iborat Bosh hujjat imzolandi. Davlatlar qullarni kuch ishlatib qo'lga olish, ularni tashish uchun javobgarlikni belgilovchi jinoiy qonunlar qabul qilish va bu jinoyatlarga o'z hududlarida barham berishning amaliy choralarini belgilash majburiyatlarini oldi. Qulchilik XX asrning o'rtalaridagina xalqaro huquq tomonidan

to'la ma'noda taqiqlanganiga qaramasdan, yuqorida aytib o'tilgan hujjatlar xalqaro jinoyat huquqi qonun-qoidalari shakllanishida tarixiy rol o'ynadi.

Shunga bog'liq holda 1899-yilda Londonda bo'lib o'tgan fohishabozlik maqsadlarida xotin-qizlar savdosiga qarshi kurash Xalqaro Kongressini; 1884-yilda suvosti telegraf kabellarini qo'riqlash bo'yicha Parijda qabul qilingan xalqaro konvensiyani; Angliya, Fransiya, Ispaniya va Gollandiya o'rtasida 1802-yilda tuzilgan jinoyatchilarni topshirish to'g'risidagi Amen bitimi kabilarni ham aytib o'tish mumkin¹.

Xalqaro jinoyat huquq konsepsiyasining shakllanishi uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan qalbaki pul yasash, qaroqchilik, xalqaro terrorizm va xalqaro huquq-tartibotga zarar yetkazuvchi boshqa kirdikorlarning jinoyat ekanligi va jazolanishi to'g'risida qabul qilingan boshqa xalqaro shartnomalar katta ahamiyatga ega edi.

1927-yilda Varshavada Xalqaro jinoyat huquqini muvofiqlashtirish bo'yicha I Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda xalqaro huquq-tartibotga zarar keltiruvchi jinoyatlar qatoriga qaroqchilik, metal pullar va qimmatli davlat qog'ozlarini qalbakilashtirish, qullar, ayollar va bolalar savdosi, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi, pornografiya hamda xalqaro konvensiyalarda ko'zda tutilgan boshqa jinoyatlar kiritildi. Keyinchalik yana uchta konferensiya o'tkazilgan bo'lib, ularda xalqaro terrorizmga qarshi kurash, jinoyatchilarni topshirish haqidagi qonunchilikni muvofiqlashtirishga harakat qilindi. Konferensiyalarda, shuningdek, xavfli xalqaro huquqbuzarliklarni rasman xalqaro jinoyatlar va xalqaro xususiyatga ega o'g'ir jinoyatlarga ajratish taklif etildi.

Xalqaro huquqning o'rganilayotgan sohasini kodekslashtirishning avvali 1945-yil Xalqaro Harbiy Tribunal Nizomining qabul qilinishi va 1946-yilda Nyurnberg harbiy tribunal Hukmining

¹ Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА-М. 1997. – С. 320.

chiqarilishi bo'ldi. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlarga huquqiy kuch berish uchun BMT bosh Assambleyasi 1946-yilning dekabridagi maxsus rezolyutsiyasida Nyurnberg tribunali statuti deb tan olingan va tribunal hukmida o'z ifodasini topgan Xalqaro huquq tamoyillarini tasdiqladi.

Xalqaro Harbiy Tribunalning aytib o'tilgan Nizomi barcha xalqaro jinoyatlarni uch guruhga ajratdi (tinchlikka qarshi, harbiy va insoniyatga qarshi) hamda keyinchalik ancha jiddiy to'ldirilgan ro'yxatini berdi. 1968-yilda harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga yaroqlilik muddatining qo'llanilmasligi to'g'risidagi xalqaro jinoyatlarning aniqlashtirilgan va kengaytirilgan tasnifiga ega Konvensiya qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda xalqaro jinoyat huquqi Konsepsiyasi umum tan olingan BMT qarorlarida mustahkamlangan. Misol uchun, BMT Bosh Assambleyasining "Rivojlanish kontekstida jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat huquqi sohasidagi xalqaro hamkorlik" (1990-yil) rezolyutsiyasida davlatlarga "Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashni xalqaro munosabatlarda huquq-tartibot va qonunchilikni mustahkamlash hamda unga rioya qilish yo'li bilan kuchaytirish va shu maqsadda xalqaro jinoyat huquqini to'ldirish va rivojlantira borish, shu sohadagi xalqaro bitimlardan kelib chiquvchi majburiyatlarni to'liq bajarish, o'z milliy qonunchiligini uning xalqaro jinoyat huquqi talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqish"¹ tavsiya etildi. Shuningdek, jinoyat huquqini takomillashtirish, xalqaro jinoyat huquqi bo'yicha maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va uni kodifikatsiyalashni yakunlash sohasida xalqaro hamkorlik zarurligi ta'kidlab o'tildi. Shunga qaramasdan, yuridik adabiyotlarda xalqaro huquqning ushbu sohasini tartibga solish predmetining yagona tushunchasi hozirgacha yo'q. Bu mavzudagi bahslar o'tgan asrdan buyon davom etadi. Masalan, taniqli rus huquqshunosi N.M. Korkunov "Xalqaro jinoyat huquqini tuzish tajribasi"

¹ Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудия. Нью-Йорк, ООН. 1992. – С. 49.

asarida uning mohiyatini davlatlarning xalqaro jinoyatchilar va sudlanish masalalarini ishlab chiqishdagi hamkorlik huquqi deb hisoblaydi¹. F.F. Martens uni quyidagicha ta'riflaydi: "Xalqaro jinoyat huquqi davlatlarni xalqaro muloqot sohasida o'z jazo hukmini amalga oshirishlarida bir-birlariga xalqaro sud yordami berish shartlarini belgilovchi huquqiy me'yorlar yig'indisini o'z ichiga oladi"². Shu sababli aytib o'tilgan darslikning "Xalqaro jinoyat huquqi" bobi to'laligicha xalqaro sud idorasiga tegishli huquqiy yordam va jinoyatchilarni topshirishga bag'ishlangani tasodif emas.

Asta-sekin xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi boshqarilayotgan munosabatlar doirasining kengayishi va uning asosiy elementlarini ko'rsatib o'tish hisobiga to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. V. Grabar XX asr boshigacha rossiyalik xalqaro huquqshunos olimlar ishlarini tahlil qilib, xalqaro jinoyat huquqi barcha davlatlar yoki ularning ma'lum qismi mol-mulkiga zarar keltiruvchi jinoyatlar bilan kurashga yo'naltirilgan jinoiy huquq ibtidosi va me'yorlarini o'z ichiga olishi³ haqida xulosa chiqaradi.

Aksariyat davlatlarda umumjinoiy jinoyatchilikning avval ko'rilmagan darajadagi o'sishi xalqaro jinoyatchilik dinamikasi va strukturasi jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Genotsid, ekotsid, aparteid, inson huquqlarining ommaviy buzilishi va boshqa yangi xalqaro jinoyatlar paydo bo'ldi. Xalqaro xususiyatga ega og'ir jinoyatlar soni ham doimiy ravishda ko'payib bormoqda. Ularning subyektlari strukturasi o'zgarib, bu o'z navbatida, yangi moddiy me'yorlarni amalga tatbiq qilish tadbirlari masalalariga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

Galenskaya L.N. haqli ravishda ta'kidlaganidek, xalqaro huquqqa oid adabiyotda xalqaro jinoiy huquqning bir vaqtda 5–6 ta

¹ Bu bog'ga qarang: Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 20.

² Мартенс Ф.Ф. Современное международное право цивилизованных народов. Е-2. – СПб. –1905. – С. 388.

³ Грабарь В.Э. Материальных историй международного права в России (1647–1917). – М.: –1958. – С. 456.

turli konsepsiyalari mavjud bo'lgan¹. Ayrim olimlar uni xalqaro umumiy (ommaviy) huquq tarmog'i, boshqa bir olimlar esa, huquqning mustaqil tarmog'i, sohasi deb hisoblashgan. Bu fikrlarga qarshi chiqqanlar ham bo'lib, ular xalqaro jinoyat huquqi yo'q va xalqaro ommaviy huquqning kriminallashtirishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb isbotlamoqchi bo'lishdi.

Huquq sohasining ilmiy asoslangan ta'rifini shu sohaning huquqiy boshqarish predmetini tahlil qilish asosida shakllantirish mumkin. Xalqaro jinoyat huquqi predmetiga qanday komponentlar kiradi?

Birinchidan, bu xalqaro bitimlarda ko'zda tutilgan jinoyatlarning oldini olish, tergov qilish va alohida tartibda jazolash bo'yicha davlatlarning hamkorligidir.

Ikkinchidan, bu hamkorlikning davlatlar tomonidan xalqaro huquq-tartibot uchun xavfli alohida kirdikorlarning jinoyat ekanligi va jazolanishini belgilash, yurisdiksiya va sud ishini yuritishni belgilash, jinoiy ishlar bo'yicha bir-birlariga huquqiy yordam ko'rsatish, jinoyatchilarni topshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar faoliyati kabi xususiy masalalardir.

Bundan tashqari, huquqiy boshqaruv predmetiga jinoiy sud ishining minimal standartlari va qoidalarini belgilashni huquqbuzarlar bilan muomalani va jinoiy huquqni muvofiqlashtirishni kiritish lozim. Shunga ko'ra, I.P. Blishenko va I.V. Fisenkolar ta'rifi ilmiy asosli ko'rinadi. Ta'rifga ko'ra, "Xalqaro jinoyat huquqini xalqaro jinoyat va xalqaro xarakterga ega jinoyatlarning oldini olish hamda shunday jinoyatlarni sodir etganligi uchun jazolash bo'yicha davlatlarning hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi huquqning me'yor va tamoyillari yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin"². Ba'zi detallar predmeti tahlilini hisobga olib, xalqaro jinoyat huquqi bu – xalqaro bitimlarda ko'zda

¹ Галенская Л.Н. О понятии международного права.//Советский ежегодник международных прав. – М.: 1970. – С. 247–248.

² Блищенко И.П., Фисенко И.В. Международный уголовный суд. – М.: 1994. – С. 7.

tutilgan jinoyatlarga qarshi kurashda davlatlarning hamkorligini tartibga soluvchi me'yor va tamoyillar tizimidir, deb ta'kidlash mumkin.

Xalqaro jinoyat huquqi faniga kelsak, uni ta'rif-tasniflashda ham yagona nuqtai nazar mavjud emas.

Ulardan biri fanni mustaqil, kompleks huquqiy fan sifatida ifodalab, u xalqaro jinoyatlar uchun mas'uliyatni hamda muvofiq davlatlarning jinoiy sohaga oid qonunlar bilan kurashda shu davlatlarning bir-biriga huquqiy yordam ko'rsatish shartlarini belgilovchi va tartibga soluvchi me'yorlarni o'rganadi.

V.P. Panovning ta'kidlashicha, xalqaro jinoyat huquqi faniga xalqaro huquqdan alohida, mustaqil fan sifatida qarash mumkin emas. Xalqaro jinoyat huquqi xalqaro ommaviy huquqning mustaqil tarmog'i sifatida tan olingan. Shu sababli xalqaro jinoyat huquqi fani ham uning doirasidan chiqib keta olmaydi. Ma'lumki, xalqaro huquq davlatlar orasida ularning hamkorligi jarayonida yuzaga keluvchi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa munosabatlarning, ya'ni davlatlararo munosabatlarning xalqaro boshqaruvi bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning xalqaro jinoyatchilikka qarshi hamkorlikdagi kurashi jarayonida shakllanuvchi davlatlararo munosabatlarning xalqaro boshqaruvi bilan bog'liq masalalarini o'rganadi¹.

R.A. Kalamakryan va R.A. Myullersonlarning fikriga ko'ra, xalqaro jinoyat huquqi shunday tarmoqki, u xalqaro huquq subyektlarining xalqaro huquqiy tartibotga jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida tuzilgan va davlatlarning xalqaro va xalqaro xarakterdagi jinoyatlari uchun javobgarlik, shuningdek, aybdor jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yo'lidagi prinsip va me'yorlarni o'z ichiga oladi².

¹ Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие) – М.: ИНФРА–М, 1997. – С. 320.

² Qa'ang: Международное право в документах / Сост. Н.Т. Блатова. – М.: Юрид.лит., 1982. – С. 826.

I.I. Lukashuk va A.V. Naumovning fikriga ko'ra, xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi prinsip va me'yorlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro ommaviy huquqning tarmog'i hisoblanadi¹.

A.X. Saidovning ushbu masala yuzasidan ilgari surgan nuqtai nazaricha, xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning xalqaro hamjamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash uchun asosiy ahamiyat kasb etadigan majburiyatlarini buzishini xalqaro huquqiy qilmish sifatida baholashdir².

Jinoyatchilikka doir tadqiqotlar 1901-yilda Italiya, Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Germaniya, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyada o'tkazilgan, 1911-yilda esa, xalqaro qiyosiy tadqiqotlar uchun yagona ko'rsatkichlar tizimi taklif qilindi. Bu tizim keyinchalik tahlil qilinuvchi ma'lumotlarning qiyinligini oshirish nuqtai nazaridan takomillashtirildi. Qiyosiy usullar ishlab chiqilganidan so'ng bir qancha qiyosiy tahlillar o'tkazildi. Shuningdek, Xalqaro Statistika instituti va Xalqaro jinoyat huquqi va Penitensiyar komissiya o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. O'tgan asrning 30-yillarida ular tomonidan turli mamlakatlardagi jinoyat statistikasini qiyosiy o'rganish uchun aralash komissiya tashkil qilindi. 1930-yili bu komissiya turli mamlakatlarning hukumatlariga Xalqaro jinoyat statistika tadqiqotlari dasturini yubordi. Ikkinchi jahon urushi davrida bu faoliyat vaqtincha to'xtatildi. Urush tamom bo'lgandan so'ng mazkur vazifa bilan BMT shug'ullandi³.

Xalqaro jinoyat tushunchasi to'g'risidagi qarashlar BMT bosh Assambleyasining 1949-yil 11-dekabrda 96 (I) rezolyutsiyasida Genotsid xalqaro huquq me'yorlarini buzuvchi jinoyat sifatida tasniflanadi. 1948-yilgi Genotsid jinoyatining oldini olish va bu jinoyat uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyaning 1-mod-

¹ Qarang: Лукашук И.И., Наумов А.В. Выдача обвиняемых и осужденных в международном уголовном праве. – М.: Новый юрист, 1998. – С. 30.

² Qarang: Saidov A.X. Xalqaro huquq./Darslik. – T.: Adolat, 2001. – 223-bet.

³ Abdurasulova Q.R. Kriminologiya (darslik). – T.: TDYuI, 2008. – 117–120-betlar.

dasida va preambulasida hamda shu sohadagi boshqa xalqaro bitimlar me'yorlarida ham xuddi shu ta'rif keltirilgan edi. Xalqaro huquqqa qarshi jinoyat atamasi yuzaga kelib, u ham xalqaro jinoyatlarni, ham xalqaro xususiyatga ega jinoiy kirdikorlarni qamrab oladi va bu jinoiy xurujlar obyekti bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida xalqaro huquqning ahamiyatini namoyon etishi lozim.

Ushbu atama 1987-yildagi xalqaro jinoiy huquq bo'yicha Praga xalqaro simpoziumida ham tilga olingan edi. Simpoziumda "Xalqaro jinoyat huquqini kodekslashtirishning o'ziga xos xususiyatlari", "Tinchlikni saqlash va xalqaro xavfsizlik ishida jinoyat huquqining rolini oshirish" haqida ma'ruzalar tinglanib, muhokama qilindi. Qabul qilingan qarorlarda xalqaro huquqning jinoyatchilikning va xalqaro huquq-tartibotga, xalqaro huquqning aniq me'yorlariga zarar yetkazuvchi kirdikorlarning jazolanishini tartibga solishdagi alohida roli ta'kidlangan.

Xalqaro jinoyat huquqining shakllanishi va rivojlanishi xalqaro jinoyatchilikning tinimsiz o'sishi oqibatida amalga oshirilgan majburiy va zaruriy chora bo'lib, shu sohadagi davlatlar hamkorligi doimiy ravishda huquqiy asosda takomillasha boradi. Jinoyatchilikni va xalqaro huquq-tartibotga zarar keltiruvchi jinoyatlarni jazolashni xalqaro huquqiy tartibga solish ham bir joyda to'xtab qolgani yo'q.

Bunday jinoyatlar soni o'sib bormoqda. Ularda jinoiy xurujning asosiy obyekti – jinoyatchilik bilan kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchisi xalqaro huquq hisoblanadi. Shu sababli biz xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlar haqida gapirganda xalqaro jinoyatlarni ham, xalqaro xarakterga ega og'ir jinoyatlarni ham nazarda tutib gapirishimiz mumkin.

Ma'lumki, bugungi kunda xalqaro jinoyatlar sifatida e'tirof etilayotgan qulchilik, yollanma jinoyatchilik, terrorizm, garovga olish va boshqa jinoyatlar oqibatida millionlab begunoh insonlar iztirob chekayotganligini ortiqcha izohlashga hojat yo'q. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, dunyo bo'yicha odam savdosidan tushadigan yillik daromad 7 mlrd. AQSh dollaridan oshmoqda.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 2 mln. 700 mingta shaxs odam savdosining qurboniga aylanoqda¹. Shuningdek, terrorizm hamda terroristik harakatlar oqibatida millionlab insonlar qurbon bo'lishiga olib keldi. Shu sababli xalqaro jinoyatlarning oldini olishda ularga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhimdir. 2002-yil 22-noyabrdagi Yevro–Atlantika hamkorligi Kengashining Sammitida Prezidentimiz I.A. Karimov so'zga chiqib, ***“Xalqaro terrorizm muammosiga duch kelmayotgan davlatning o'zi qolmadi. Bu esa, terrorizmga qarshi kurash butun dunyo miqyosida hamkorlikni taqazo etayotir”***², – deb ta'kidlagan edi.

Shunga ko'ra, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash davlatlar xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini yaratish va huquqiy hamkorlik shakllarini rivojlantirishni taqazo etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlarning xalqaro hamkorligi jarayonida davlatlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Bir qancha yoki barcha davlatlarga xavf tug'diruvchi jinoyatlarni xalqaro xarakterdagi jinoyatlar sifatida turkumlashni maslahatlashib olish.

2. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashda o'zaro hamkorlik qilish.

3. Jinoyat va jinoyatchilar ustidan huquqiy sudlarni o'rnatish.

4. Jazoning muqarrarligini ta'minlash.

5. Jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish zarur bo'lgan taqdirda, jinoyatchilarni topshirish³.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar xalqaro hamkorligining ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Jinoyatlarning tobora baynalmillashuvi va globalashuvi;

2. Xalqaro jinoyatlarning ko'payishi va bir qancha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga zidligi;

¹ Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosidagi muammo. //Huquq va burch, 10-son, 2008-yil, 3–6-betlar.

² Karimov I.A. Yevro–Atlantika hamkorlik kengashi Sammitidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2002-yil 23-noyabr.

³ Mamatqulov A. Xalqaro huquq. /Darslik. – T.: Adolat, 1997. – 256-bet.

3. Davlatlarning xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishining zarurligi.

4. Jinoyatchilikka qarshi kurashda milliy va xalqaro huquqiy vositalarni qo'shib olib borishning zarurligi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy asosi xalqaro jinoyat huquqining bir qismini tashkil etadi, deb hisoblaydigan bo'lsak, unda xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi xalqaro hamkorlik masalalarini quyidagi tartibga soluvchi prinsiplar va me'yorlar tizimiga ajratsa bo'ladi:

a) alohida jinoiy harakatlarning barcha xalqaro hamjamiyat uchun jiddiy xavfliligining davlatlar tomonidan tan olinishi va uning oldini olish uchun hamkorlikda chora-tadbirlar zarurligi;

b) xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ko'riladigan choralarni muvofiqlashtirish;

d) xalqaro xarakterdagi jinoyatlar ustidan davlatlar yurisdiksiyasini joriy qilish va qilgan jinoyati uchun jazoni belgilash;

e) alohida tergov ishlarini amalga oshirish, jinoyatchilarning qidiruvi va jinoiy ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish;

f) xalqaro jinoyatchilik muammolarini o'rganish va unga qarshi choralar qo'llash;

g) jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi bo'yicha ma'lumotlarni ayirboshlash¹.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar hamkorligi ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlar asosida, shuningdek, universal va mintaqaviy tashkilotlar doirasida amalga oshiriladi.

Xalqaro jinoyat huquqi zamonaviy xalqaro huquqning kompleks mustaqil sohasidir. Xalqaro jinoyat huquqi normalari ikki subyektga, ya'ni davlatlarning o'zaro vakolat va majburiyatlari bo'yicha hamkorligi va xalqaro jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligiga qaratilgan bo'ladi.

¹ M.T. Turg'unov, A.A. Matchanov, A.T. Niyozov. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik: ma'ruzalar kursi./Mas'ul muharrir y.f.d. professor A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 133-bet.

Yuqoridagilarga ko'ra, xalqaro jinoyat huquqi – davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi prinsiplar va normalar majmui. Uning o'ziga xos jihati shundaki, aniq kishilar, jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar huquqiy tartibga solish obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqining tartibga solish sohasida xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va odatdagi jinoiy ishlarga qarshi kurashda hamkorlik kabilar kiradi.

1.2. Xalqaro jinoyat huquqining tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i va uning barcha belgilariga ega soha sifatida xalqaro jinoyat huquqi xalqaro huquqning boshqa sohalari hamda milliy qonunchilik bilan bog'liqligi, huquqiy tartibga solish predmeti, jinoiy jazolanuvchi xatti-harakatlar xususiyatlaridan kelib chiquvchi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunday xususiyatlarga xalqaro jinoyat huquqining majmuaviy xarakterini, unda jinoyatlarning alohida tamoyillari, manbalari, subyektlari va boshqa belgilarining mavjudligi va hozkazolarni keltirish mumkin. Bunda jinoyat huquqining jinoyatga sheriklik, zaruriy himoya, keskin zarurat, jinoiy buyruq va boshqa umum tan olingan tartib-qoidalari g'aroyib tarzda o'zgaradi. Xalqaro jinoyat huquqining o'ziga xos xususiyatlarini quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Xalqaro jinoyat huquqining majmuaviy xususiyati xorijiy unsurli deb hisoblanuvchi jinoyatlar haqidagi ishlarni tergov qilish va sudga ko'rib chiqish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi jinoyat, jinoyat-ijroiya huquqining moddiy me'yorlarini va jinoiy sud ishi yuritish me'yorlarini yagona sohaga birlashtirishda namoyon bo'ladi. Bunda avvaldan ustuvorlik protsessual me'yorlarga berilgan. Masalan, V.E. Grabarning fikricha, "Xalqaro jinoyat huquqi XX asrgacha asosan protsessual xususiyatga ega bo'lgan. Ushbu soha masalalari asosan ikki qismdan iborat: jinoyat qonunining (chegaraviy) ta'siri (davlat hoki-

miyatining jinoyat huquqiy ta'siri chegarasi) va davlatlarning o'z jazo funksiyasini, ayniqsa, jinoyatchilarni topshirish yo'li bilan amalga oshirishdagi o'zaro hamkorliklari"¹.

Ayrim adabiyotlarda xalqaro-jinoyat huquqini moddiy va jinoyat protsessual huquqlarga ajratishni ham uchratish mumkin², biroq bunday ajratish, bizningcha, sun'iy bo'lib, bu haqda quyida so'z yuritiladi.

Qo'lga olish, jinoyat jazoni belgilash va o'tash tartibini boshqaruvchi xalqaro huquq me'yorlari BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, 1966-yil 19-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda, 1955-yil 30-avgustdagi Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalarida, voyaga yetmaganlarga nisbatan sud qilishga oid BMT Minimal standartli qoidalari (Pekin qoidalari)da, har qanday shaklda qo'lga olinuvchi va qamaluvchi barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari To'plami va boshqa hujjatlarda keltiriladi³.

Yuqorida keltirilgan xalqaro-huquqiy qonun-qoidalar davlatlarga quyidagilarga taalluqli xalqaro standartlar majmuini tavsifiya etadi:

- a) qamoqda saqlashning zaruriy shart-sharoiti;
- b) qiynoqlar, yomon muomala, g'oyib bo'lishlar va o'zbo-shimcha qatlarga yo'l qo'ymaslik⁴;

¹ Грабарь В.Э. Материалы к истории международного права в России (1847–1917). – М.: 1956. – С. 456. // Qarang: Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 20.

² Qarang: Решетов Ю.А. Борьба с международными преступлениями против мира и безопасности. – М.: 1983. – С. 207.; Мэрори Д., Ларин А.М. Международное уголовно-процессуальное право. – М.: 1995.

³ Qarang. Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar: to'plam. / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 212-bet.

⁴ **Izoh:** O'lim jazosini hozirda 58 ta mamlakat bekor qilgan. O'zbekistonda o'lim jazosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi PF-3641-son "O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi Farmoniga ko'ra, 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab jazo tizimidan butkul chiqarib tashlandi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy qilindi. O'lim jazosi hozirda 77 ta mamlakatda, shu jumladan, Xitoy, Eron, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va AQShning 38 ta shtatida qo'llanilmoqda.

- d) sudlar, advokatlar va tibbiy xodimlarning roli;
- e) dastlabki qamashning muqobil ko‘rinishini joriy etish;
- f) voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish.

Bundan tashqari xalqaro standartlar mahbuslarning irqiy, milliy jinsiy va boshqa asoslarga ko‘ra kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik; ular hibsga olinganida qarindoshlarini xabardor qilish; ozodlikdan mahrum qilishni boshqa jazo chorasiga almashtirish, tashqi dunyo bilan aloqa va hibsga olinganning advokatga ega bo‘lishi, u bilan muloqot qilishi, adolatli sud ishi hamda chiqarilgan hukmga e‘tiroz bildirish kabi huquqlarini amalga oshirishning protsessual qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, qamoqda saqlash sharoiti ham tartibga solinadi: ovqatlanish, saqlash xonasi, tibbiy xizmat ko‘rsatish, intizom va hokazolar.

Xalqaro jinoyat huquqi o‘z tadqiqot doirasida quyidagi fanlar bilan aloqada bo‘ladi.

Xalqaro jinoyat huquqi ***kriminologiya fani*** bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Uning me‘yorlari davlatlarning ham, umumiy rejada aholining ham alohida toiflari orasida jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning alohida turlariga oid qonunchilikni takomillashtirish va boshqalar bo‘yicha chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha majburiyatlari majmuini o‘z ichiga oladi. Kriminalologiya fani jinoyatchilarning shaxsi, jinoyatchilikning sabablari va sharoitlari hamda ularning oldini olish choralari tizimi haqidagi fandir.

Jinoyatchilikning oldini olish xalqaro jinoyat huquqining asosiy, yetakchi vazifasi hisoblanadi.

BMTning asosiy standartlari, me‘yor va qoidalari “Jinoyatchilikning oldini olish” so‘zlari bilan boshlanishi, xalqaro jinoyat huquqining takomillashuvi esa, birinchi navbatda, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ogohlantiruvchi, oldini oluvchi faoliyati bilan bog‘lanishi bejiz emas.

Nihoyat, ularni alohida turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi me‘yorlarini o‘z ichiga olgan xalqaro huquqning boshqa sohalari bilan aloqasini ta’kidlab o‘tish lozim.

Xalqaro jinoyat huquqi, avvalo, *inson huquqlari fani* bilan ham bog'liqdir. Inson huquqlari masalasi nafaqat milliy huquq, balki xalqaro huquqning ham katta muammosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi"¹, – deb belgilanadi.

*"Har qanday qonun, harakat sohasidan qat'i, nazar ishlab chiqarilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu prinsipga og'ishmay rioya etgan holdagina biz chin ma'nodagi huquqiy adolatparvar davlat qurishga erisha olamiz"*², – deydi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Shuning uchun ham inson huquqlari va *xalqaro jinoyat huquqi* – bu inson huquqlarini muntazam va ommaviy ravishda buzilishiga qarshi kurashishda bir-biriga bog'liqdir.

Diplomatik va konsullik huquqlarida – xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan, diplomatik xodimlarga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashishda;

qurolli to'qnashuvlar vaqtidagi harbiy jinoyatlar va boshqalar uchun javobgarlikda, xalqaro dengiz huquqida – qaroqchilik, kabellar va quvurlarga zarar yetkazish, dengizda yordam ko'rsatmaslik va boshqa jinoyatlarda, xalqaro havo huquqida – havo transportdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda;

xalqaro iqtisodiy huquqda – xorijiy valyuta yoki qimmatbaho qog'ozlarga nisbatan qalbakilashtirish hamda jinoiy pullarni "yuvish" jinoyatlariga qarshi kurashishda xalqaro jinoyat huquqi hamkorlik qiladi.

Shuningdek, *protsessual huquq, jinoyat ijroiya huquqi, gumanitar huquq fanlari* bilan bog'liq hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012. – 5-bet.

² Karimov I.A. Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezonini bo'lsin. – T.: O'zbekiston, 2008. – 8-bet.

Ushbu sohalar uchun umumiy javobgarlik tartiblari, xalqaro bitimlar va boshqalar xalqaro jinoyat huquqida o'ziga xos talqin etiladi.

Xalqaro jinoyat huquqining o'ziga xos tamoyillari

Yuridik adabiyotlarda “tamoyil” (lot. “principium”) muhim rahbariy g'oya, faoliyat, xulq-atvorning asosiy qoidalari sifatida mustahkamlangan¹.

Xalqaro jinoyat huquqining o'ziga xos tamoyillari ilk bor Nyurnberg tribunali Nizomi va hukmida tavsiflangan. Xalqaro huquqning ushbu sohasiga xos alohida tamoyillar imperativ xususiyatga ega. Darhaqiqat, D. Sattorov qayd etganidek, “hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy tamoyillari, shubhasiz, imperativ normalar hisoblanadi, aks holda, ular o'zlarining poydevorlik xususiyatini yo'qotgan bo'lardi”².

1946-yilning dekabrda BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasida Nyurnberg tribunali statuti tan olingan. Tribunal hukmida umum tan olinganlar sifatida ifodasini topgan xalqaro huquq tamoyillari tasdiqlandi. 1947-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi xalqaro huquq Komissiyasiga yuqorida aytilganlarni asos qilib olib, xalqaro jinoyat huquqi tamoyillarini shakllantirish haqida topshiriq berdi. 1950-yilda Xalqaro Huquq Komissiyasi Nyurnberg tribunali statuti tan olgan va shu tribunal qarorlarida o'z ifodasini topgan xalqaro jinoyat huquqi tamoyillarini qabul qilib, BMT Bosh Assambleyasiga taqdim etdi, ular orasidan quyidagilarni alohida ajratish mumkin:

- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik hamda tajovuzkorlikning taqiqlanishidan kelib chiquvchi tajovuzkorona urushni man etish;

- javobgarlikning muqarrarligi (“aut dedere autjuducare”);

¹ Филимонов В.Д. Принципы уголовно права. – М.: АО “Центр ЮРИрфоР”, 2002. – С. 12.

² Sattorov D. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari BMT Xalqaro sudi faoliyatining asosi sifatida. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: 2008. 12-bet.

- xalqaro huquqqa ko'ra, jinoiy hisoblangan har qanday xatti-harakatni sodir etganlik uchun jinoiy jazoning muqarrarligi;

- agar davlat xalqaro huquq tomonidan tinchlik va insoniyatga qarshi jinoyat kategoriyasiga mansub hisoblangan xatti-harakat uchun jazo belgilasa, unda bu aybdor kishini xalqaro jinoiy javobgarlikdan ozod qiluvchi holat bo'la olmaydi;

- xalqaro jinoyat sodir etgan shaxsning amaldorligi uni shaxsiy javobgarlikdan ozod qila olmaydi. Bunda davlat boshlig'i yoki mas'ul amaldor holati xalqaro jinoyat huquqi tomonidan taqiqlangan xatti-harakat sodir etgan vaziyatda og'irroq jinoiy javobgarlikka olib keladi;

- shaxs tomonidan o'z hukumati yoki boshlig'ining buyrug'ini ijro etishi bu shaxsni, agar ongli tanlov imkoni bor bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilmaydi;

- xalqaro jinoyat yoki xalqaro ahamiyatdagi jinoyatda ayblangan har bir shaxs sudda o'z ishining adolatli ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 7–11-moddalarida¹ e'lon qilingan va 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning² 10, 14, 15-moddalarida qayd etilgan jinoiy ishlar bo'yicha sudni amalga oshirish, xalqaro tamoyillariga aybsizlik prezumpsiyasi, urush, qullik, qiynoqlar hamda insonlarga nisbatan jazoning shafqatsiz, noinsoniy yoki xo'rllovchi munosabatda bo'lmaslik tamoyillarini kiritish mumkin.

¹ Qarang: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. (7, 8, 9, 10, 11-moddalari)//Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar/Mas'ul muharrir A.X. Saidov – T.: 2004. – 26-bet.

² Qarang: Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt. 1966-yil 19-dekabr (10, 14, 15-moddalar). Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127–1-son qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud ishining oshkoraligi, shaxslarning qonun va sud oldida tengligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash, tarjimon xizmatidan foydalanish, sud hukmiga e'tiroz bildirish huquqlari¹, ozodlikdan mahrum qilinganlarga nisbatan insonparvarlik qoidalariga rioya etish qayd etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 15-moddasida: "Hech kim sodir etilgan paytida davlatning amalda bo'lgan ichki qonunchiligi yoki xalqaro qoidaga ko'ra jinoyat hisoblanmagan biror-bir harakati yoki kamchilikka yo'l qo'ygani uchun jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanilishi lozim bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas. Agar jinoyat sodir etilganidan keyin qonun bilan nisbatan yengil jazo belgilansa, ushbu qonun mazkur jinoyatchiga nisbatan qo'llaniladi", – deb belgilangan.

Mazkur moddaga ko'ra, hech narsa har qanday shaxsni sodir etilgan vaqtda xalqaro hamjamiyatning umumiy prinsiplariga ko'ra jinoyat deb hisoblangan har qanday xatti-harakat yoki kamchiligi uchun sudga berishga va jazolanishga to'sqinlik qilmaydi.

Ushbu tamoyillar 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli Jeneva Konvensiyasida hamda 1977-yil 8-iyundagi qo'shimcha Protokol me'yorlarida rivojlantirildi². Ular qurolli to'qnashuvlar davrida harbiy harakatlar hududida sodir etilgan jinoyatlar bilan bog'liq.

Shuningdek, xalqaro Jinoyat sudi maqomida ham xalqaro jinoyat huquqining umumiy prinsiplari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

¹ **Izoh:** Yuqoridagi prinsiplar mamlakatimiz Jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o'z aksini topgan. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2013. 6–14-betlar.

² Qarang: Xalqaro Gumanitar huquq: Jeneva Konvensiyalari to'plami. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2002. – 307–397-betlar.

- agar tegishli qilmishlar sodir etilish vaqtida sud yurudik-siyasiga kiruvchi jinoyatlarni sodir etmasa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi;

- jinoyat ta'rifi aniq talqin qilingan bo'lishi kerak. Talqindan ikki xil ma'no kelib chiqqan taqdirda, ta'rif sud tergovi ostidagi yoki aybdor deb topilgan shaxs foydasiga talqin qilinadi;

- sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs faqat Xalqaro Jinoyat sudining maqomi qoidalariga muvofiq jazolanishi mumkin;

- muayyan ishga nisbatan yakuniy qaror chiqarilguniga qadar qo'llanilgan qonunga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, sud tergovi olib borilayotgan tegov ostidagi yoki aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan maqbulroq bo'lgan qonun qo'llaniladi;

- bir jinoyat uchun ikki marta sudlash mumkin emas ("non bis in idem")¹.

Ushbu huquqning umumiy prinsipi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda quyidagicha ifodalangan: "Hech kim bir marta sodir etgan jinoyati uchun, agarda u har bir davlatning tegishli qonuni va jinoyat protsessual huquqi bilan jazoni o'tagan bo'lsa yoki oqlanib chiqqan taqdirda, javobgarlikka yoki sudlovga tortilishi mumkin emas" (14-moddaning 3-qismi)².

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi prinsiplari JKning 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10-moddalarida belgilangan³.

¹ **Izoh:** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 8-moddasida ham ushbu prinsip ifodalangan bo'lib, unga ko'ra, "...Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas".//Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 6-bet.

² Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga fakultativ Protokol. 1966-yil 19-dekabr (14-modda). Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 128–1-son qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

³ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 4–6-betlar.

Jinoyat kodeksining prinsiplari tizimi kodeksning 3-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarining qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi.

Xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Nizomining 2-moddasida qisqa bayon etilgan va BMT Nizomiga muvofiq davlatlar o'rtasida munosabatlar va hamkorlikka taalluqli 1970-yilgi Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi (YeXHK)ning Yakunlovchi hujjatida yoritib berilgan. BMT Nizomining 2-moddasida quydagi tamoyillar ko'rsatiladi:

- a) kuch ishlatmaslik;
- b) kuch bilan tahdid qilmaslik;
- c) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- d) davlatlarning xalqaro hamkorligi;
- e) suveren tenglik;
- f) millatlar va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi;
- g) xalqaro kemalar qatnovi erkinligi¹.

Shuningdek, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi-ning Xelsinki Yakunlovchi hujjatida qabul qilingan quyidagi uchta tamoyili keltiriladi:

- 1) chegaralar daxlsizligi;
- 2) davlatlarning hududiy daxlsizligi;
- 3) inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish tamoyillari.

1973-yilda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan harbiy jinoyatlarda va insoniyatga qarshi jinoyatlarda aybdor shaxslarni aniqlash, hibsga olish, topshirish va jazolashda xalqaro hamkorlik tamoyillari qabul qilindi.

Shu tarzda sanab o'tilgan xalqaro huquqiy hujjatlar ilk bor Nyurnbergda oz sonli davlatlar tomonidan shakllantirilgan xalq-

¹ Qarang: Birlashgan Millatlar tashkiloti Ustavi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar./ Mas'ul muharrir: A.X. Saidov. – T.: 2004. – 26-bet.

aro jinoyat huquqining asosiy tamoyillari bugungi kunga kelib ancha kengaytirildi, konkretlashtirildi, huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

1.3. Xalqaro jinoyat huquqining asosiy manbalari

Huquqning umumiy nazariyasiga muvofiq, “huquq manbasi” – deganda huquqiy normalarning mustahkamlanish (tashqi ifoda) shakli, keng ma’noda esa, “huquq manbai” ifodasi o’zida yuridik majburiy xulq-atvor qoidasini namoyon etadigan va bu qoidaga huquqiy norma xususiyatini beradigan (masalan, Konstitutsiya, qonun, farmon, davlat vakolatli organlarining qarori yoki farmoyishi va boshqalar) shaklidir.

Xalqaro huquq manbalari o’zida xalqaro munosabatlar subyektlarining xulq-atvor qoidalarini namoyon etadigan va ushbu qoidalarga xalqaro-huquqiy normalar xususiyatini joriy qiladigan shaklidir.

Xalqaro huquq manbalari doirasini belgilashda BMT Xalqaro Sudi Statutining 38-moddasiga muvofiq nizolarni xalqaro huquq asosida hal etar ekan, xalqaro sud Konvensiyalarini, xalqaro huquqiy odatlarni, madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy prinsiplarini qo’llaydi. Huquqiy normalarni belgilash uchun qo’shimcha vosita sifatida sud qarorlari va eng malakali mutaxassislarining nazariyalari (doktrinolari) qo’llanilishi mumkin¹.

Professor A.X. Saidov fikriga ko’ra, keyingi paytlarda Xalqaro Sud Statutining 38-moddasi asosli tanqidlarga uchramoqda va buning hayratlanarli joyi yo’q. Chunki, ushbu modda birinchi jahon urushidan so’ng xalqaro odil sudlov doimiy palatasi uchun yaratilgan edi. Xalqaro tashkilotlarning soni juda kam bo’lgan, ayni chog’da alohida olimlarning asarlari katta obro’ qozongandi².

¹ Qarang: Birlashgan Millatlar tashkiloti Ustavi//Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar./ Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: 2004. – 26-bet.

² Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari (o’quv qo’llanma). – T.: O’zbekiston Faylasullari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 50-bet.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi manbalari tizimi quyidagi uchta guruhga jamlangan.

Birinchi guruh – xalqaro huquqning universal manbalari:

a) **xalqaro shartnomalar** – xalqaro huquq subyektlari o'rtasida ularning o'zaro huquq va majburiyatlari o'rnatilishi, o'zgarishi yoki to'xtashi haqidagi kelishuv¹;

b) **xalqaro odat** – qaror topgan xalqaro amaliyotda huquq subyektlari yuridik majburiy xususiyatini tan oladigan xulq-atvor qoidalari².

Ikkinchi guruh – xalqaro huquqning maxsus manbalari, ya'ni xalqaro tashkilotlarning qarorlari.

Uchinchi guruh – xalqaro huquqning qo'shimcha manbalari:

a) huquqning umumiy prinsiplari;

b) xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari;

c) xalqaro sud va arbitrajning qarorlari.

D. Umarxanova jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish bilan bog'liq hujjatlarni quyidagi guruhlariga bo'ladi:

birinchi guruh – jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilishga oid qoidalarni ko'zda tutuvchi xalqaro-huquqiy hujjatlar (konvensiya, deklaratsiya);

ikkinchi guruh – xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy, tavsiyaviy tusdagi hujjatlar (masalan, 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Ushlab berish to'g'risidagi Namunaviy shartnoma);

¹ Qarang: 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi. O'zbekiston Respublikasi ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi 291-I-sonli qaroriga asosan qo'shilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 4-son, 36-modda; 1986-yilgi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi; 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 12-son, 262-modda.

² Saidov A.X. Xalqaro huquq chizmalar va ta'riflarda (o'quv qo'llanma). Mas'ul muharrir: yuridik fanlari doktori, professor U. Tojixonov. – T.: Adolat, 2001. – 36-bet. Batafsil qarang: Davlat va huquq nazariyasi./Darslik. prof. H.B. Boboyev va X.T. Odilqoriyevlarning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyoti, 2000. – 277-bet.

uchinchi guruh – davlatlar o'rtasida imzolangan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar¹.

Xalqaro jinoyat huquqining asosiy manbalaridan biri xalqaro bitimlar hisoblanadi. Ular 400 dan ortiq bo'lib, ko'pchiligi jinoyatlar va xalqaro xususiyatga ega jinoiy xatti-harakatlarning jinoiyligi va ular uchun jazolanish to'g'risida bir-biriga jinoiy ishlar, jinoyatchilarni topshirish bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida ikki yoqlama, mintaqaviy yoki universal bitimlardan tashkil topgan.

Masalan, 1929-yil 20-aprelda qabul qilingan Jeneva Konvensiyasi pul belgilarini qalbakilashtirishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalasiga bag'ishlangan. Uning qoidasiga muvofiq, davlatlar jinoyat qonunlariga asoslanib jinoyatchilarni jazolash majburiyatini o'z zimmlariga oldilar. Quyidagi hollarda huquqbuzarlar jinoiy javobgarlikka tortilishi kerakligi belgilandi:

1) pul belgilarini qalbaki yasash yoki har qanday vositalar bilan o'xshatib yasash;

2) qalbaki yasalgan yoki o'xshatib yasalgan pullarni aldash yo'li bilan tarqatish;

3) qalbaki yasalgan va o'xshatib yasalgan pullarni tarqatish uchun qabul qilish, olish, olib o'tish;

4) yuqorida ko'rsatilgan jinoiy harakatlarning birortasini amalga oshirish yoki ataylab shunday harakatni amalga oshirishda ishtirok etish;

5) aldov yo'li bilan pul belgilarini qalbakilashtirish yoki o'xshatib tayyorlash uchun mo'ljallangan turli xil asbob-uskunalarini tayyorlash, qabul qilib olish.

Konvensiya a'zo-davlatlar zimmasiga tayyorlangan qalbaki pul qaysi davlatniki bo'lishidan qat'i nazar, qalbaki pul tayyorlovchilarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklagan.

¹ Bu borada batafsil qarang: D.Sh. Umarxonova. Ekstraditsiya bo'yicha xalqaro huquqiy hamkorlik. Monografiya. – T.: 2010. – 32–35-betlar.

Shartnomalashgan davlatlar tomonidan jinoyatchilarni ushlab berish to'g'risida ilgari tuzilgan ikki tomonlama bitim qalbaki pul yasovchilarga to'g'ridan-to'g'ri joriy qilinadi, deb kelishilgan. Agar biron-bir davlat hududida qalbaki pul yasalayotgan davlat bilan jinoyatchilarni tutib berish to'g'risida shartnoma tuzmagan bo'lsa, jinoyatchini qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan qat'i nazar, o'z ichki qonuni bo'yicha jazolashi kerak.

Konvensiya qalbaki pul yasovchilarga qarshi kurashga yordam berish maqsadida o'zaro ma'lumotlar ayirboshlashni nazarda tutadi.

2011-yil 28-dekabrda Moskvada qabul qilingan Yevropa Ittifoqining "Inson salomatligiga zarar yetkazuvchi qalbaki dori mahsulotlari va davolash vositalarini ishlab chiqishga qarshi" Konvensiyasida ishtirokchi-davlatlar qalbaki dori mahsulotlarini tayyorlash va shundan kelib chiquvchi boshqa har qanday huquqbuzarliklarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazolash lozim, deyiladi.

Ba'zilar jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bilvosita bog'liq xolos. Masalan: BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi Konvensiyasi davlatlarning Jahon okeanini o'zlashtirish bo'yicha hamkorligini tartibga soladi. Ammo me'yorlarining bir qismi qaroqchilik, qullarni tashish, giyohvand moddalar savdosi, ochiq dengizdan noqonuniy radio va teleuzatishlar, kemalar to'qnashuvi, dengizda yordam bermaslik va hokazolarga qarshi xalqaro kurashni tartibga soladi¹.

Xalqaro Jinoyat huquqi manbalari orasida asosiy o'rin BMT doirasida qabul qilingan universal hujjatlarga beriladi. BMT doirasida qabul qilingan hujjatlarga quyidagilar misol bo'la oladi. Masalan:

1) Inson huquqlari va erkinliklari Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)²;

¹ Qarang: Международное морское право. Под ред. Г.С. Горшкова. – М.: 1985. – С. 120.

² Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1991-yil 30-sentabrdagi 366-XI-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1991-yil, 11-son, 275-modda.

2) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt¹ (1966-yil 19-dekabr);

3) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt² (1966-yil 19 dekabr);

4) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga Fakultativ Protokol³ (1966-yil 19-dekabr);

5) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya⁴ (1989-yil 20-noyabr);

6) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli fakultativ protokol⁵ (2000-yil 25-may);

7) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokol⁶ (2000-yil 25-may);

¹ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son.

² Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

³ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 128-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

⁴ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 44/25-Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli Qarori bilan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyundan kuchga kirgan. // Qarang: Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va uning protokollari (O'zbekcha nashr). Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: 2009. – 72-bet.

⁵ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir Bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli fakultativ Protokol 2000-yil 25-mayda BMT Bosh Assambleyasining A/RES/54/263-Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. 2002-yil 12-fevralda kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi mazkur Protokolga O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-dekabrda O'RBQ-190-sonli Qonini bilan qo'shilgan.

⁶ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokol 2000-yil 25-mayda BMT Bosh Assambleyasining A/RES/54/263-Rezolyutsiya bilan qabul qilingan. 2002-yil 18-yanvardan kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi mazkur Protokolga O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-dekabrda O'RBQ-188-sonli Qonini bilan qo'shilgan.

8) Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya¹ (1984-yil 10-dekabr);

9) Genotsit jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiya² (1948-yil 9-dekabr);

10) Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfuruslikdan foydalanishga qarshi kurashish to'g'risida Konvensiya va Yakunlovchi Bayonnoma³ (1949-yil);

11) BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi Konvensiyasi;

12) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi⁴ (2000-yil 5-noyabr);

13) BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini (Nyu-York, 2008-yil 15-noyabr) to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokol⁵ (2000-yil 15-noyabr);

14) BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi⁶ va hokazolar.

Yuqoridagi Konvensiyalar umumiy ko'p tomonlama shartnomalardir.

¹ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 130-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.//Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 205-modda.

² Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustdagi 835-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan, O'zbekiston Respublikasi uchun 1999-yil 8-dekabrda kuchga kirgan.

³ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda 576-II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.

⁴ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536-II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9-10-son, 150-modda.

⁵ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi O'RB-160-sonli Qonuniga asosan qo'shilgan. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son, 351-modda.

⁶ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi O'RB-158-sonli Qonuniga asosan qo'shilgan. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son, 349-modda.

BMTning roli ayrim Konvensiyalarda alohida ta'kidlanadi. Chunonchi, Giyohvand vositalar to'g'risidagi yagona Konvensiya preambulasida BMTning giyohvandlik ustidan nazorat sohasidagi huquqiy doirasi e'tirof etiladi. Mazkur Konvensiya giyohvandlar ustidan nazorat bo'yicha xalqaro qo'mitaning BMT yordamchi organlaridan biri sifatida huquqiy maqomini belgilab beradi¹.

Bugungi kunga qadar, boshqa sohalardan farqli o'laroq, xalqaro jinoyat huquqida kodekslashtirish haligacha amalga oshirilgani yo'q. Shu sababli uning me'yorlarini xalqaro huquqning turli tarmoqlaridan topish mumkin. Xalqaro jinoyatchilikning oshishi mintaqaviy darajadagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning butun bir majmuasini qabul qilishni taqozo etadi. Birinchi navbatda bu Yevropaga taalluqlidir. Yevropa Kengashi doirasida quyidagi asosiy shartnomalar amaldadir:

- 1959-yilgi Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro yordam Yevropa Konvensiyasi;

- 1964-yilgi Shartli hukm qilingan va shartli ravishda ozod etilgan jinoyatchilar ustidan nazorat haqidagi Yevropa Konvensiyasi;

- 1964-yilgi Yo'l transportiga oid jinoyatlar uchun jazolash haqidagi Yevropa Konvensiyasi;

- 1965-yilgi Milliy hududlardan tashqarida joylashgan stansiyalardan amalga oshiriluvchi uzatishlarning oldini olish haqidagi Yevropa shartnomasi;

- 1970-yilgi Jinoiy huquqlarning xalqaro amaliyoti to'g'risida Yevropa Konvensiyasi;

- 1973-yilgi Murdalarni topshirish to'g'risidagi Kelishuv;

- 1974-yilgi Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga nisbatan yaroqlilik muddati qo'llanilmasligi to'g'risida Yevropa Konvensiyasi;

- 1974-yilgi Terrorizm bilan kurash haqidagi Yevropa Konvensiyasi;

¹ Abdulla Mamatqulov. Xalqaro huquq./Darslik. – T.: Adolat, 1997. – 267-bet.

- Topshirish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasiga 1978-yildagi 2-qo'shimcha Protokol;

- 1978-yilgi Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro yordam haqidagi Yevropa Konvensiyasiga qo'shimcha Protokol;

- 1983-yilgi Mahbuslarni topshirish to'g'risidagi Konvensiya;

- 1983-yilgi Inson huquqlarini himoya qilish va o'lim jazosini bekor qilishga nisbatan asosiy erkinliklar to'g'risidagi Konvensiyaga 6-Protokol;

- 1987-yilgi Qiynoqlar va noinsoniy yoki kishilarni xo'rllovchi muomala hamda jazolashning oldini olish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi, 1993-yilgi 1- va 2-qo'shimcha Protokollari bilan;

- 1990-yil Jinoiy faoliyatdan tushgan daromadlarni "yuvish"ni aniqlash tartibga solish va musodara qilish to'g'risidagi Konvensiya va boshqalar;

- 2011-yil 28-oktabrda Moskvada qabul qilingan Tibbiy mahsulotlarni qalbakilashtirish va aholi salomatligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar bilan kurashish haqidagi Xalqaro Konvensiya.

Yevropa Kengashiga a'zolikning shartlaridan biri mamlakatlarning sanab o'tilgan mintaqaviy Shartnomalarga qo'shilishidir;

Xalqaro huquq qarashlarida xalqaro jinoyat huquqi manbalariga xalqaro odatlarning mansubligi masalasi bahsli hisoblanadi. Xalqaro huquqning odatiy me'yorlari shartnomalarga qaraganda ahamiyatliroqligi haqidagi nuqtai nazarga qo'shilish qiyin. Shunga ko'ra, xalqaro odatlar, xalqaro shartnomalarga ko'proq qo'shilyapti, deb ta'kidlash mumkin. Yevropa Konvensiyasi me'yorlari asosida, xususan, urush qonunlari va odatlarining buzilishida, ko'p hollarda, ma'lum xalqaro bitimlarda kodekslashtirilgan xalqaro odatlar yotadi¹.

Aytib o'tilganlar xalqaro jinoyat huquqida odatiy (oddiy) me'yorlar yo'q degani emas. Ular bor. Misol sifatida jinoyatchilarni topshirishning ba'zi qoidalarini keltirish mumkin. Ma'lum-

¹ Qarang: И.Н. Арцибасов, С.А. Егоров. Вооруженный конфликт: право, политика, дипломатия. – М.: 1989. – С. 56.

ki, davlatlar orasida xalqaro kelishuv mavjud bo'lsagina, jinoyatchi, albatta, topshiriladi. Bunday kelishuv yo'q bo'lsa, odatiy me'yor amalga kiradi.

Xalqaro jinoyat huquqining odatiy me'yorlari yuzaga kelishiga turli mamlakatlar milliy qonunchiligining bir masala bo'yicha qabul qilingan me'yorlari alohida o'rin egallaydi. Masalan, xalqaro terrorizm va yollamachilik bilan kurash bo'yicha jinoiy qonunlar xalqaro huquqning alohida xalqaro sud organlari oldida aybdorlarning javobgarligi to'g'risidagi odatiy me'yor paydo bo'lishiga yordam berishi mumkin. Xuddi shu qonunlardan g'iyohvand moddalarning noqonuniy savdosi, umuman, noqonuniy savdoga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro bitimlarni ishlab chiqish va qabul qilishda faol foydalanilmoqda. Ammo milliy qonunchilikni xalqaro jinoyat huquqining manbai hisoblash asossiz. Xalqaro huquq manbalarining ro'yxati tugal va umuman tan olingandir.

BMT Xalqaro Sudi Statuti (Nizomi)ning 38-moddasida xalqaro huquqning yordamchi manbalariga kiritilgan sud qarorlari, pretsedentlari "u yoki bu xalqaro huquqiy me'yorning yo'qligini tasdiqlab yoki qayd etib, xalqaro huquq rivojlanishiga ta'sir qiladi"¹. Nyurnberg harbiy tribunali hukmi misolida yuqorida sud qarorining xalqaro jinoyat huquqi tamoyillarining va konkret me'yorlarining shakllanishiga ta'siri ko'rsatilgandi. BMT Bosh Assambleyasi qarori tufayli jahon hamjamiyati ushbu tamoyillarni umum tan olingan, xalqaro huquqning oldinroq shakllangan me'yorlariga asoslangan sifatida olib qaraydi. Nyurnberg tamoyillari Genotsid, aparteid, ekotsid va boshqa xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarni qabul qilish uchun huquqiy asos bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqining yordamchi manbasi sifatida Nyurnberg tribunali Hukmi 1949-yilgi urush qurbonlari himoyasi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyalarida yodga olinadi. Ular, xususan, 1907-yildagi Gaaga Konvensiyalarida qayd etilmagan, ammo

¹ Блищенко И.П. Прецеденты в международно праве. – М.: 1977. – С. 11–12.

Nyurnberg tribunali Nizomi va Hukmi bilan bevosita sud qilgan harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutadi. Dalillar hamda shu hukm qarorlarining o'zidan ham hozirgi kunda xalqaro va jinoiy sudlar tomonidan muqobil milliy ishlar bo'yicha pretsedent sifatida foydalanilgan va foydalanilmoqda.

BMT Xalqaro Sudining qarorlari xalqaro huquqni qo'llash akti hisoblanadi, lekin shu bilan birga ularning kuchli sud ko'rib chiqqan aniq ish (nizo) bilan chegaralanib qolmaydi. Uning choralari xalqaro-huquqiy normalarni sharhlash shakli (konsultativ xulosa) singari ma'lum rol o'ynaydi. Shu masalani alohida ta'kidlab o'tish joizki, BMT Xalqaro Sudining qarorlari so'nggi yillarda ko'pchilik xalqaro huquqshunoslar tomonidan xalqaro ommaviy huquqning manbai sifatida tan olinmoqda, ya'ni BMT Xalqaro Sudining qarorlari manbalarni aniqlashda yordamchi vositadan manbaga aylanganligi haqida so'z yuritish mumkin.¹

“Xalqaro jinoyat huquqi” monografiyasining mualliflari ta'kidlaganidek, xalqaro jinoiyat huquqining bilvosita manbasi rolini davlat ichki sudlarining ko'rib chiqilayotgan toifasidagi ishlar bo'yicha sud qarorlari va hukmlari o'ynaydi. Aniq misollarda ushbu tezis isbotlangan². Masalan, 1976-yil Luandadagi yollanma jangchilar ustidan sud jarayonida jinoyatchilarni tergov qilish uchun 35 mamlakat vakillaridan Xalqaro komissiya tuzilgandi. Angola sudi 13 nafar xorijlik yollanma jangchilarni jinoiy jazoning qat'iy choralariga hukm qildi. Hukm ularning ishlarini xalqaro jinoyat huquqi bo'yicha jinoiy deb tan oldi. Davlatlarning qurolli to'qnashuvlarida yollanma jangchilarni yollash va ulardan foydalanishlari amaliyoti ham qoralangandi. Aytib o'tilgan komissiya o'z tergov natijalarini shu sud hukmini yollanmachilik bilan kurash xalqaro amaliyotini ushbu masala bo'yicha BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari va mintaqaviy konvensiyalarni tahlil qilib, yollanmachilikning oldini olish hamda taqiqlash to'g'risidagi konvensiya loyihasini ishlab chiqdi.

¹ X.T. Odilqoriyev, B.E. Ochilov. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (ommaviy huquq). /Darslik. –T.: 2002. – 47-bet.

² Международное уголовное право. – М.: Наука, 1995. – С. 25 – 27.

Ushbu misollar xalqaro va milliy sudlarning sud qarorlari, xalqaro jinoyat huquqining shakllanishi hamda rivojlanishida ma'lum rol o'ynashi va xalqaro huquq ushbu sohasining yordamchi, bilvosita manbalariga mansubligi haqidagi xulosani tasdiqlaydi.

Xalqaro jinoyat huquqining manbalari orasida davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlari muhimdir.

II bob.

XALQARO HUQUBUZARLIK TUSHUNCHASI, TURLARI VA TASNIFINING ILMIIY NAZARIY TAHLILI

2.1. Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari

Xalqaro huquqda barcha xalqaro huquqbuzarliklarni ularning xavflilik darajasi, miqyosi va oqibatidan kelib chiqqan holda, uchta katta guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan: xalqaro jinoyatlar;

Ikkinchidan: xalqaro xarakterdagi jinoyatlar;

Uchinchidan: boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar).

Xalqaro jinoyat deb, insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi.

Xalqaro jinoyatlar BMTning Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan xalqaro hamjamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash uchun asosiy ahamiyat kasb etadigan majburiyatlarini buzish xalqaro-huquqiy qilmish sifatida baholandi. Bunday huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun davlat bilan bir qatorda individlar ham javobgarlikka tortiladi¹.

Birinci marta xalqaro jinoyatlarning ro'yxati 1945-yilgi Xalqaro harbiy Tribunal (Nyurnberg tribunali)ning Nizomida va 1946-yilgi Uzoq Sharq bo'yicha tribunal (Tokio tribunali)ning Nizomida keltirilgan edi. Nyurnberg tribunali Nizomining 6-moddasida xalqaro jinoyatlar uch guruhga bo'linadi:

Xalqaro jinoyatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

I. Tinchlikka qarshi jinoyatlar – bu agressiv urushni rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko'rish, bunday urushga yo'l ochish yoki uni amalga oshirish hamda xalqaro shartnomalar

¹ A.X. Saidov. Xalqaro huquq. Darslik. / Mas'ul muharrir: U. Tojixonov. – T.: O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashri, 2001. – 320-bet.

yoxud ahdlashuvlarni buzgan holda urush olib borish, hattoki harakatlarning biror turini amalga oshirishga yo'naltirilgan reja yoki fitnada ishtirok etish.

Agressiya – (lotincha “agressio”, inglizcha “aggression” so‘zlaridan olingan) umum e’tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalariga binoan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyat hisoblanadi.

1974-yil 14-dekabrda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida qabul qilingan qarorda agressiya atamasi “davlat tomonidan qurolli kuchlarni boshqa davlatning suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustaviga xilof tarzda qo‘llash” deb ta’riflanadi¹.

BMT Bosh Assambleyasi 1974-yil 14-dekabrda qabul qilingan “Agressiya tushunchasi” to‘g‘risidagi Rezolyutsiyaning 3-moddasida sanab ko‘rsatish (ro‘yxat usuli) bilan ta’riflanadigan agressiya tushunchasi mavjud. Zikr etilgan harakatlar, urush e‘lon qilingan-qilinmaganidan qat’i nazar, 2-moddani inobatga olib, uning qoidalariga mutanosib ravishda agressiya harakati deb baholanadi.

1. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki qancha muddatga cho‘zilganligidan qat’i nazar, har qanday bosib olish, mazkur bosqinchilik oqibati sifatida yoki boshqa davlatga uning biror-bir hududiga qarshi kuch ishlatish bilan sodir etilgan har qanday harakat.

2. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududini bomba bilan portlatishi yoki davlatning har qanday qurolni boshqa davlatlarga qarshi ishlatilishi.

3. Davlat portlari yoki qirg‘oqlarining boshqa davlat qurolli kuchlari tomonidan to‘sisib qo‘yilishi.

4. Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlatga tegishli quruqlikdagi, suvdagi, havodagi kuchlariga yoki havo flotiga bostirib kirishi.

¹ Mazkur rezolyutsiya rasmiy ravishda nashr qilinmagan. Bu borada qarang: M.H. Rustamboyev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. III tom. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Darslik. – T.: ILM-ZIYO, 2011. – 234–237-betlar.

5. Boshqa davlat hududidagi bir davlatning qurolli kuchlarini mazkur davlat bilan tuzilgan bitim shartlarini buzib qo'llash yoki har qanday shakldagi mazkur qurolli kuchlarning bitimi harakati to'xtatilishidan so'ng ham ushbu davlat hududida saqlashining davom etishi.

6. Davlatning boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qo'yilgan hududida mazkur davlat tomonidan boshqa uchinchi davlatga agressiya sodir etishga yo'l qo'ygan harakatlari.

7. Davlat yoki uning nomidan qurolli kuchlarni, guruhlarni va nomuntazam kuchlar yoki yollanganlarni yuborish (mazkur kuchlar boshqa davlatga qarshi qurol ishlatgan holatlarda, basharti bu holat jiddiy tus olib, yuqorida qayd etilgan harakatlar teng kelsa yoki unda anchagina ishtiroki bo'lsa)¹.

Biroq, obyektiv jihatdan urushni rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish yoxud Agressiya to'g'risidagi qarorning 3-moddasida sanab o'tilgan biror harakatni sodir etish uchun fitnada qatnashishning o'zi tamomlangan jinoyat tarkibini vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 151-moddasida agressiya jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, **agressiya**, ya'ni bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashish – o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

II. Harbiy jinoyatlar. Nyurnberg tribunali Nizomining 6-moddasida ko'rsatilgan xalqaro jinoyatlarning ikkinchi guruhi – harbiy jinoyatlardir.

Harbiy jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

a) istilo etilgan hududlar aholisini o'ldirish, qiynoqqa solish yoki majburiy mehnat uchun haydab ketish;

b) harbiy asirlarni o'ldirish yoki qiynoqqa solish;

d) garovdagilarni o'ldirish;

¹ Bu borada qarang: M.H. Rustamboyev. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2003. – 177–179-betlar.

- e) jamoat mulki va xususiy mulkni talon-taroj etish;
- f) harbiy zarurat talab etmagan hollarda shaharlar va qishloqlarni maqsadsiz ravishda yakson qilish, xonavayron etish va boshqa shu kabi xatti-harakatlarni sodir etish.

Sobiq Yugoslaviya uchun tribunal Nizomida ushbu ro'yxat quyidagilar hisobiga yanada to'ldirildi va aniqlashtirildi:

- a) biologik sinovlar;
- b) harbiy yoki fuqaro shaxsni dushman tomonning qurolli kuchlarida xizmat qilishga majburlash;
- d) fuqarolarni garovga olish;
- e) harbiy asir yoki fuqaroni odil sudlov huquqidan mahrum etish.

Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarning ro'yxati 1949-yilgi Urush qurbonlari himoyasi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi va 1977-yilgi ularga qo'shimcha Protokollarda¹, shuningdek, xalqaro qonunchilik, jumladan 1907-yildagi Quruqlikdagi jang odat va qonunlari to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasi², 1949-yildagi Aholi, fuqarolarni urush vaqtida himoya qilish to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi³, 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Harbiy asirlar bilan muomala qilish to'g'risidagi⁴, Harakatdagi qurolli kuchlardagi yaradorlar va bemorlarning qismini yaxshilash to'g'risidagi⁵, Dengiz qurolli kuchlari tarkibiga

¹ Ushbu hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946–XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 346-modda.

² Quruqlikda jang odat va qonunlari to'g'risidagi Konvensiya (Gaaga, 1907-yil 18-oktabr, shuningdek, Quruqlikdagi jangning qonun va odatlari to'g'risidagi Nizom (Quruqlikdagi jangning odat va qonunlari to'g'risidagi Konvensiyaga ilova.)

³ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946–XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 8-apreldan kuchga kirgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946–XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 346-modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946–XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 346-modda.

mansub yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning qismatini yaxshilash to'g'risidagi Jeneva Konvensiyalari¹ bilan sezilarli to'ldirildi va ular "jiddiy huquqbuzarlik" deb tasniflandi.

III. Insoniyatga qarshi jinoyatlar. Ular sirasiga: o'ldirish, qirg'in qilish, asoratga solish va aholiga nisbatan qo'llaniladigan shu kabi boshqa shafqatsizliklar, ya'ni siyosiy, irqiy yoxud diniy sabablar bo'yicha ta'qib etish hollari kiradi. Bu ro'yxat Ruanda va sobiq Yugoslaviya uchun tribunallarning Nizomlariga asosan qiynoq, nomusga tegish, shuningdek terrorizmning kiritilishi hisobiga yanada kengaydi.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga uzoqlik muddatini qo'llamaslik to'g'risida 1986-yilgi Konvensiyada insoniyatga qarshi jinoyatlar birinchi marta xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. Aparteid jinoyatlarining oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyada aparteidga o'xshash irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholanadi.

1976-yili BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi Moddalar loyihasini ma'qulladi, unga ko'ra, enotsid², qulchilik va kolonial hukmronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi.

Yuqoridagilarga asosan, aytish mumkinki, xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlarning soni ham o'sib boradi. Bunga 1991-yili Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan qabul qilingan Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasi misol bo'ladi. Bu Kodeks loyihasida xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar bir-biridan

¹ O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 346-modda.

² **Izoh:** Uy, turar joyni yo'q qilish jinoyati// Qarang: O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi./Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2010. – 704-bet.

farqlanmaydi. Shuning uchun unda umum e'tirof etilgan qoidalarga asosan, xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish, kolonial hukmronlik va chet el hukmronligining boshqa shakllari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar, atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish¹.

Davlat ichki jinoyat huquqidan farqli o'laroq xalqaro jinoyat huquqida **jinoyatlar subyektlari** sifatida nafaqat jismoniy shaxslar, balki davlatlar ham, ba'zi holatlarda yuridik shaxslar ham javobgar bo'lishi mumkin. Bunda davlat uchun faqat xalqaro jinoyat sodir etilgandagina javobgarlik yuklatilishi mumkin².

Hozirgi paytda davlatlar mas'uliyati to'g'risida universal Konvensiya tayyorlanmoqda. 1994-yil xalqaro huquq Komissiyasining 46-sessiyasida qabul qilingan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasining 5-moddasida: "Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat uchun biror-bir shaxsning sud tomonidan ta'qib qilinishi, xalqaro huquq bo'yicha davlatni shu davlatga qo'yilayotgan chora ko'rganlik yoki chora ko'rmaganlik javobgarlikdan ozod etmaydi", – deb ta'kidlangan.

Shunga e'tibor berish kerakki, ushbu moddada davlatning xalqaro jinoiy javobgarligi xususida emas, balki davlatlarning xalqaro huquq bo'yicha mas'uliyati haqida so'z yuritilmoqda. Shu sababli davlatni xalqaro jinoyat subyekti deb atash huquqiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ehtimoldan yiroq. Aslida davlat xalqaro jinoyatlar uchun mas'ullik subyekti hisoblanadi. Bu yana shuning uchun ham to'g'riki, xalqaro jinoyatlar uchun davlatlar siyosiy va moddiy javobgarlikka tortiladi, jinoiy qonun sanksiyalari ularga qo'llanilmaydi.

¹ Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq)/Darslik. – T.: 2002. – 328–329-betlar.

² Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 320.

Xalqaro jinoyat huquqida, xuddi milliy huquqda bo'lgani kabi, jinoyatlarning **asosiy subyektlari** jinoyat sodir etgan aqli raso, belgilangan yoshga yetgan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Shu o'rinda o'z ixtiyori bilan mustaqil ravishda jinoyat sodir etgan, misol uchun harbiy harakatlar hududida aholi ustidan zoravonlikka yo'l qo'ygan yoki urush olib borishning taqiqlangan vositasini qo'llagan subyektini davlat jinoyatlari bilan bog'liq subyektlardan farqlash lozim.

Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasining 11–13-moddalarida uch o'ta muhim holat qayd etiladi.

1. Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etganlikda ayblanayotgan biror shaxs o'z hukumati yoki boshlig'ining buyrug'ini bajarib, ish tugaganligi holatida, agar o'sha davr sharoitida shu buyruqni bajarmaslik mumkin bo'lsa, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

2. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatni xodim sodir etilganligi uning boshlig'ini jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Agar ular voqeadan xabardor bo'lishi yoki ularga o'sha holatda shu xodim shunday jinoyatni sodir etgani yoki etish niyatida ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beruvchi ma'lumotga ega bo'lishsa va shu jinoyatning oldini olish yoki to'xtatish maqsadlarida qo'llashlari mumkin bo'lgan barcha chora-tadbirlarni qo'llamagan bo'lishsa, javobgardirlar.

3. Shunday jinoyatni sodir etgan shaxsning rasmiy mavqei uni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bu qoidalar avval ham milliy va xalqaro sudlar tomonidan qo'llanilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 40-moddasiga ko'ra, "Shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonunan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Jinoiyliги oldindan ayon bo'lgan buyruq yoki boshqa farmoyishlarni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs, umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi.

G'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsa-gina, u javobgarlikka tortiladi"¹, – deyiladi.

Xalqaro jinoyatlar hamda xalqaro harakterga ega bo'lgan jinoyatlar subyektlarining bir-biridan farqi shundaki, **xalqaro jinoyatlarda jinoyat subyekt**i – davlat mexanizmidan jinoiy maqsadda foydalanuvchi davlatlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek oddiy ijrochilar hisoblanisa, **xalqaro harakterga ega bo'lgan jinoyatlarda jinoyat subyekt**i – jismoniy shaxslar hisoblanadi².

Xalqaro jinoyatlarning obyekti – xalqaro tinchlik va insoniyat xavfsizligi, butun insoniyat manfaatlarini hisoblanadi. **Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning obyekt**i – ikki yoki bir necha davlatlarning manfaatlaridir.

Obyektiv tomonidan xalqaro jinoyat huquqida ko'zga tutulgan jinoyatlar xalqaro tinchlik, insoniyat xavfsizligi yoki xalqaro huquq-tartibot uchun alohida xavfliligi bilan farqlanuvchi va keng ko'lamlari bilan ajralib turuvchi xatti-harakatlar yoki harakatsizlikni bildiradi.

Xalqaro jinoyat sodir etish joyi hamma vaqt ham zararli oqibat yuz bergan joy bilan mos kelavermaydi. Masalan, AQSh dollarlari Italiyada qalbakilashtirilib, chiqarilgan va GFR, Fransiya, Litva, RFRga tarqalgan, iqtisodiy zarar esa, AQShga yetkazilgandi.

Xalqaro jinoyatlarning aksariyati zararli oqibatlar kelib chiqishidan qat'i nazar, tugallangan xatti-harakat hisoblanadi. Misol uchun tinchlikka qarshi fitna, qalbaki pul yasash va qullik. Boshqa tomondan qator xalqaro jinoyatlar oqibatlari o'zining

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 408-bet.

² Saidov A.X. Xalqaro huquq chizmalar va ta'riflarda (o'quv qo'llanma). T.2. Mas'ul muharrir: yuridik fanlar doktori, professor U. Tojixonov. – T.: Adolat, 2004. – 229-bet.

rang-barangligi, katta ko'lamlari va insonlarga o'lchab bo'lmaydigan moddiy hamda ma'naviy zararlari bilan ajralib turadi.

Subyektiv tomonidan xalqaro jinoyatlar to'g'ri qasddan sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Xalqaro jinoyat sodir etilgan hollarda javobgarlikning universal huquqiy munosabatlari yuzaga keladi va unga ko'ra, huquqbuzar nafaqat jabrlanuvchi oldida, balki xalqaro hamjamiyat oldida ham yalpi javobgar bo'ladi. Bu o'rinda universal majburiyatlar ("erga omnes") buzilganda xalqaro huquqning har bir subyektini huquqbuzardan o'z jinoiy harakatlarini to'xtatishni va ularning oqibatlarini bartaraf etishni talab qilish huquqiga egadir¹.

Xalqaro jinoyatlarda jazoning muqarrarligini ta'minlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalari qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni berish – ekstraditsiya qoidalarini tartibga solib turadi. 1946-yildanoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolyutsiyasida davlatlarga "Harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida javobgarlikka tortish uchun barcha choralarni ko'rish kerakligi haqida" tavsiyalar bergan edi. Keyinchalik BMTning Inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab, jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlik prinsiplari loyihasini ko'rib chiqdi va ma'qulladi. Bosh Assambleya o'z rezolyutsiyasida ana shunday 9 ta prinsipni e'lon qildi².

Xalqaro huquqda jazo masalasi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, xalqaro huquq bo'yicha jinoyat sodir etgan shaxs nafaqat javobgarlikka, balki jazoga ham tortiladi. Nyurnberg tribunali o'zining qarorida shuni tan oldiki, "individlar ham xalqaro huquq-

¹ Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari (o'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 392-bet., Saidov A.X. Xalqaro huquq chizmalar va ta'riflarda. O'quv qo'llanma. Darslik, – T.: Adolat, 2001. – 352-bet.

² BMT Bosh Assambleyasining 3074-Rezolyutsiyasi.

buzarliklar uchun jazoga tortiladilar”. Aytib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, xalqaro jinoyat huquqi ham, milliy jinoyat huquqi singari uchta funksiyani bajaradi, ya’ni u shaxslar uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini, bunday qoidalarni buzganlik uchun shaxsiy javobgarlikni va bu qoidalarni buzganlik uchun aybdorlar jazosini belgilaydi¹.

Xalqaro jinoyat huquqida jazo jinoyatning og‘irligi va xususiyatiga teng bo‘lmog‘i lozim degan prinsip tasdiqlangan. Ammo unda jazoning turlari va chegaralari aniq belgilanmagan. Bu hol xalqaro jinoyatlarning ko‘pligi bilan emas, balki bu munosabatda davlatlar huquqiy tizimlarining turli xilligi bilan izohlanadi, chunki bu huquqiy tizimlar orqali ularning sudlari xalqaro jinoyatlar uchun jazo belgilaydilar².

Xalqaro va milliy huquqning o‘zaro ta’siri, ikki huquqiy tizimning – xalqaro va davlatlarning ichki huquqlari o‘zaro harakati-ning to‘liq (umumiy) jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

Xalqaro jinoyat huquqi va davlatlarning ichki (milliy) jinoyat huquqi birgalikda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlik huquqining yagona huquqiy asosini tashkil qiladi.

Quyida xalqaro jinoyatlardan genotsid, aparteid, ekotsid va biotsid kabi jinoyatlarga qanday javobgarlik belgilanishini ko‘rib chiqamiz.

I. Genotsid

Genotsid (yunoncha “genos” – urug‘, qabila hamda lotinchacha “caedeve” so‘zlaridan) – o‘ldirmoq, urug‘, qabilani yo‘q qilmoq degan ma’noni anglatadi³.

¹ M.T. Turg‘unov, A.A. Matchanov, A.T. Niyozov. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik: ma’ruzalar kursi. Mas’ul muharrir: y.f.d. professor A.X. Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 17-bet.

² O‘sha joyda.

³ O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi/Nashr uchun mas’ul R.A. Muhitdinov va boshq.; mas’ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2010. – 92-bet.

BMT tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 1-moddasida: “Ahdlashuvchi Tomonlar Genotsid u tinchlik yoki urush davrida sodir etilishidan qat’i nazar, xalqaro huquq me’yorlarini buzuvchi jinoyat ekanligini tasdiqlaydilar va uning oldini olish choralarini ko‘rish va uni sodir etganlik uchun jazolash majburiyatini oladilar”¹, – deb ta’kidlangan.

Genotsid Xalqaro jinoyat sudi Rim statutining 6-moddasida qaysidir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to‘liq yoki qisman qirib tashlashni mo‘ljallab sodir etiladigan harakatlar sifatida ta’riflangan.

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida: “Genotsid” so‘zi ostida qaysidir milliy², etnik³, irqiy⁴ yoki diniy guruhni⁵ shundayligicha to‘la yoki qisman yo‘qotishni mo‘ljallab sodir etiladigan quyidagi harakatlar tushuniladi:

a) shunday guruh a’zolarini o‘ldirish;

1 Huquqni muhofaza qilish oranlariga oid xalqaro hujjatlar. To‘plam. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 76–80-betlar.

2 **Izoh:** millat (arabcha – xalq; din; mazhab) – kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlid hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. Milliy (arabcha – xalqona, millatga tegishli; diniy) biror millatning, xalqning o‘ziga xos bo‘lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha. //O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 593-bet.

3 **Izoh:** etnik (yunoncha “ethnikos” – qabilaga, xalqqa aloqador) kelib chiqishi jihatidan biror xalqqa oid, mansub, xos bo‘lgan. //O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 61-bet.

4 **Izoh:** irq (arabcha – qon tomirlari; ildiz; zot; nasl) kishilarning ko‘z, soch va teri rangi, yuz-bosh tuzilishi va b. nasliy belgilari bir xil bo‘lgan, tarixan shakillangan har bir guruh. Irqiy (arabcha – irqqa oid, tegishli) – irqqa xos; irqqa oid irqiy belgilar. //O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 227–228-betlar.

5 **Izoh:** din (arabcha – e’tiqod, ishonch) – ilohiy kuchga, xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvurlar – odat va marosimlar majmui. Diniy – dinga oid, dinga aloqador bo‘lgan, dinga, ruhoniyatga tegishli. //O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 1-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 621–623-betlar.

b) shunday guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki aqliy shikast yetkazish;

c) qaysidir guruhni ataylab to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan hayotiy shart-sharoitlar yaratish;

d) shunday guruh muhitida bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlar;

e) bolalarni insonlarning bir guruhidan boshqasiga zo'rlab o'tkazish¹.

Genotsidning bevosita obyekti – insonlarning millati, etnik, irqiy xususiyatlari yoki dinidan qat'i nazar, xavfsizligi va tinch-totuvligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Genotsidning obyektiv jihati biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni yo'q qilishga qaratilgan harakat sifatida belgilanadi².

Genotsid subyektiv tomondan to'g'ri qasddan sodir etiladi. Maqsad biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni jismoniy to'la yoki qisman yo'q qilish. Genotsidning motivi turlicha bo'lishi mumkin. Odatda bu yuqorida ko'rsatilgan guruhlardan biriga nisbatan qasos yoki nafrat hissiyotidir.

Jinoyat subyekti – jismoniy shaxslar mas'ul vazifalarda ishlaydigan mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Konvensiyaning 3-moddasida: quyidagi xatti-harakatlar jazolanishga loyiq:

a) genotsid;

b) genotsid sodir qilish maqsadida til birlashtirish;

d) genotsid sodir etuvchiga to'g'ridan-to'g'ri va oshkora ig'vogarlik qilish;

e) genotsid sodir etishga suiqasd qilish;

1 Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustdagi 835-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1999-yil 8-dekabrda kuchga kirgan. //Qarang: Huquqni muhofaza qilish oranlariga oid xalqaro hujjatlar. To'plam. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 76–80-betlar.

2 Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. III tom. "Shaxsga qarshi jinoyatlar". "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar". Darslik. – T.: "ILM-ZIYO", 2011. – 254–261-betlar.

f) genotsidda birga qatnashish¹.

Konvensiyada genotsidda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan universal yuridiksiya o'rnatilgan. Xususan Konvensiyaning 6-moddasida: "Genotsid yoki 3-moddada sanab o'tilgan boshqa xatti-harakatlarni sodir etishda ayblanadigan shaxslar ana shu xatti-harakat sodir etilgan hududdagi davlatning vakolatli sudi yoki shunday sud huquqini tan olgan "Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida"gi Konvensiya tomonlariga nisbatan yurisdiksiyaga ega bo'la oladigan xalqaro jinoyat sudi tomonidan sud qilinishlari lozim", – deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 153-moddasida genotsid jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, **genotsid**, ya'ni milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, bir guruh shaxslarning jismonan to'la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush sharoitini qasddan yaratish, bunday shaxslarni jismonan to'la yoki qisman qirib yuborish, bola tug'ilishini zo'rlik bilan kamaytirish yoxud bolalarni ana shu odamlar guruhidan olib, boshqasiga topshirish, shuningdek, bunday harakatlar sodir etish to'g'risida buyruq berish – o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

II. Aparteid

Afrika burlari tilidan "apartheid" – alohida yashash degan ma'noni anglatadi.

Aparteid irqiy kamsitishning keskin shakllaridan biri bo'lib, irqiga ko'ra davlat aholisi guruhining huquqlari boshqa aholi guruhlariga nisbatan kamsitiladi, ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadi. Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronlik o'rnatish va ushlab turish hamda ular-

¹ Ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustdagi 835-I-son Qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi 1999-yil 8-dekabrda kuchga kirgan. // Qarang: Huquqni muhofaza qilish oranlariga oid xalqaro hujjatlar. To'plam. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 76–80-betlar.

ga doimiy ravishda zulm o'tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylar (rezidentsiyalar)da saqlanadi.

Bunday jinoyatning subyektlari – davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot a'zolari va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ijrochilardan tashqari, aparteid aktlarini amalga oshirishda hamkorlik qilgan yoki qo'llab-quvvatlagan va bevosita yordam bergan shaxslar hamda tashkilotchilar ham jazoga tortiladi.

1973-yilgi BMT Bosh Assambleyasining Aparteid jinoyatini oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi xalqaro Konvensiyasiga binoan, bunday jinoyatlarga nisbatan ham universal yurisdiksiya o'rnatilgan. Aybdorlar Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan biror-bir davlatning sudiga jalb etilishi mumkin. Zarur holda jinoyatchini biror-bir davlatga berishi mumkin, chunki aparteid siyosiy jinoyat hisoblanmaydi. Shuning uchun jinoyatchilarni biror-bir davlatga ushlab berish (ekstraditsiya) o'sha davlatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida alohida amalga oshiriladi. Konvensiyada davlatlar rozilik bergan taqdirda xalqaro jinoyat tribunalini tashkil etish imkoniyati nazarda tutilgan.

III. Ekotsid

Ekotsid (yunoncha “oicos” – uy hamda lotincha “caedo” – o'ldiraman so'zlaridan kelib chiqqan) – genotsidning bir turi. Ekotsid – o'simlik yoki hayvonot dunyosi obyektlarini ommaviy qirg'in qilish, atmosfera havosi yoki suvni zaharlash, shuningdek ekologik falokatga sabab bo'luvchi boshqa jinoiy harakatlarni¹. Ekotsid insoniyat yashash makoni sifatidagi atrof-tabiiy muhitga, muayyan o'simlik yoxud hayvonot dunyosi yoki boshqa tabiiy obyektlarning mavjud bo'lishiga tahdid soladi. Uning tarkibiy qismi sifatida harbiy ekotsid, ya'ni urushda dushmandan harbiy ustunlikka erishish va g'alabani ta'minlash uchun tabiiy muhit, shart-sharoitlaridan majburiy foydalanish hisoblanadi.

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi/Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va boshq. Mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T. Adolat, 2010. – 544-bet.

Insoniyat xavfsizligi va tinchlikka qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasida ekotsid – qasddan, oldindan o‘ylab va atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazuvchi jinoyat, deb ta’riflanadi. Atrof-muhitni himoya qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, Kodeksda ekotsidni sodir etganlik uchun xalqaro jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan.

IV. Biotsid

Biotsid – hayotdan mahrum etish, insoniyatga qarshi qaratilgan xalqaro jinoyat. Biotsid ekotsiddan farqli ravishda, insoniyatga va boshqa tirik jonzotlarga qarshi qaratilgan harbiy nizoda dushman ustidan g‘alaba qozonish maqsadida qasddan ommaviy qirg‘in qurollarini ishlatishda namoyon bo‘ladi. Biotsidning manbai agressiv urushlardir. Biotsidni amalga oshirish vosita va qurollari quyidagilar:

- xalqaro huquq bilan hozircha taqiqlanmagan harbiy texnika va qurol, moddiy boyliklarni saqlab, faqat insonni yo‘q qilishga qaratilgan neytron qurol;

- 1972-yilgi Konvensiyaga¹ asosan taqiqlangan va o‘rnatilgan tartibda yo‘q qilingan bakteriologik (biologik) va toksinli qurollar;

- 1925-yilgi Protokol bilan taqiqlangan, kishilarni yo‘q qilishga mo‘ljallangan, bo‘g‘uvchi, zaharli va shu kabi boshqa gazlar;

- kimyoviy gazlar, ya’ni qurolli mojaroda dushmanning tirik kuchini yo‘q qilishga qaratilgan o‘q-dori va kimyoviy qurilmalar.

Yuqoridagilar Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, to‘plash hamda qo‘llashni taqiqlash va uni yo‘q qilish to‘g‘risi-

¹ Bakteriologik va toksik qurol – yarog‘larni ishlab chiqish, tayyorlash va to‘plashni man etish hamda ularni tugatish to‘g‘risidagi Konvensiya (London, Vashington, Moskva, 1972-yil 10-aprel), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 22-dekabrda 185–I-sonli qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan, O‘zbekiston Respublikasi uchun 1996-yil 26-yanvarda kuchga kirgan, 1-modda.

dagi Konvensiya¹ bilan taqiqlangan. 1993-yili bu Konvensiyani Parijda 154 ta davlat imzoladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarga jazoning muqarrarligini ta'minlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalari qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni ushlab berish (ekstraditsiya) qoidalari bilan tartibga solib turadi. 1946-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolyutsiyasida davlatlarga "Harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida javobgarlikka tortish uchun barcha choralarni ko'rish kerakligi haqida" Tavsiyalar bergan edi. Keyinchalik BMTning inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab, jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlikning prinsiplari loyihasini ko'rib chiqdi va ma'qulladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish va uni oldini olish, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ikkinchi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" bo'limining VIII bobi "Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar"² deb nomlanib, unda jamiyat uchun yuqori xavfga ega bo'lgan, o'zida tinchlik va insoniyat xavfsizligiga tajovuz tug'diradigan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan.

1 Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, to'plash va qo'llashni ta'qiqlovchi va uni yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya (Parij, 1993-yil 13-yanvar. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi 236-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1997-yil 29-apreldan kuchga kirgan), 2-modda.

2 Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 84–89-betlar.

2.2. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari va ularga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro xarakterdagi¹ jinoyatlar milliy huquqiy tartibotga tajovuz qilishi bilan birga xalqaro hamjamiyatning muhim manfaatlariga ham zarar yetkazadi. Ba'zan bu turdagi jinoyatlar konvensiyaviy jinoyatlar deb ham ataladi, chunki davlatlarning xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning muayyan turiga qarshi kurashi ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar – xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan, davlatlararo tinchlik munosabatlarining turli sohalariga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, xalqaro jinoyatlardan asosiy farqi bu kabi jinoyatlarning subyektlari davlatlar emas, balki jismoniy shaxslar hisoblanadi. Javobgarlik xalqaro shartnomalar asosida vujudga kelib, tegishli davlat huquqlari orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda eng keng tarqalgan xalqaro huquqbuzarliklar ushbu turkumga kiruvchi jinoyatdir. Shu sababli xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning alohida turlari va ularga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlikning ayrim jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Qulchilik va uning oldini olish

Qul savdosini taqiqlash to'g'risidagi masala birinchi marotaba Vena kongressiga qo'yilgan edi. Bu kongress 1815-yil 4-fevralda negr qullar savdosini bekor qilish to'g'risida maxsus Deklaratsiya qabul qildi. 1815-yilgi deklaratsiyaning amaliyotga qo'llanilishiga Amerikaga negr qullarni olib o'tishni taqiqlash to'g'risida besh davlat tomonidan qabul qilingan 1841-yil 20-dekabr-

1 **Izoh:** Xalqaro huquq va kriminologiyaga oid adabiyotlarda ushbu mavzu besh xil nomlanadi: "Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar", "Transmilliy jinoyatchilik", "Xalqaro tusdagi jinoyatlar", "Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan jinoyatlar", "Xalqaro xususiyatga ega bo'lgan jinoyatlar".

dagi shartnoma asos bo'ldi (shuningdek, 1885-yil Kongo daryosi to'g'risida Berlin konferentsiyasining Yakunlovchi Aktining 9-moddasi va 1890-yil 2-iyuldagi qul savdosiga qarshi kurash bo'yicha Bryussel Konferentsiyasining Bosh akti). Millatlar Ligasi doirasida ishlab chiqilgan, 1926-yil 25-sentabrda imzolangan Qulchilik bo'yicha Konvensiya, 1930-yil qabul qilingan "Zo'raki yoki majburiy mehnat to'g'risida"gi Konvensiya¹ qabul qilingan.

BMT Bosh Assambleyasi barcha davlatlarga 1926-yilgi Konvensiyaga qo'shilishni va qulchilikka qarshi kurash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqishni tavsiya qildi.

1956-yil 7-senabrda BMT tomonidan chaqirilgan qulchilikka qarshi kurash bo'yicha Jeneva Konferentsiyasida qul savdosi, qulchilikni bekor qilish bo'yicha Qo'shimcha Konvensiya qabul qilindi.

1926-yilda qabul qilingan 1956-yilda o'zgartirishlar kiritilgan Qullik to'g'risidagi Konvensiyaning 1-moddasida qayd etilganidek, qullik bu – insonning shunday holati yoki ahvoliki, uning ustidan egalik huquqining belgilari yoki ulardan ba'zilar amalga oshiriladi. Tutqinlar savdosi insonni qullikka sotish maqsadida uni bosib olish, egalik qilish, in'om etish aktini; tutqinni sotish yoki almashtirish maqsadida, uni egallash har qanday aktini; umuman, tutqinlarni sotish yoki tashish har qanday akti singari, sotish yoki almashish yo'li bilan egallagan tutqinni sotish yoki almashtirish yo'li bilan in'om qilish har qanday aktini o'z ichiga oladi.

1956-yilning 7-sentabrda "Qulchilikni, qul savdosi va qulchilikka o'xshash institut va odatlarni tugatish to'g'risida"gi Qo'shimcha Konvensiyasi (1957-yil 30-aprelda kuchga kirgan) biror kishini qulga aylantirmoqchi bo'lgan shaxslar, qullarni tashish bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jazoga tortishni nazarda tutadi².

1 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. – T.: Adolat, 2004. – 235-bet.

2 O'sha joyda. – 216-bet.

Konvensiyada, ishtirokchi davlatlar majburiyati bayon qilinib, xuddi shunday jinoyatni sodir qilgan aybdor shaxslarni jazolash to'g'risida kelishilgan. Bunga quyidagilar kiradi:

- qanday transport vositasidan foydalanishidan qat'i nazar, qullarni bir mamlakatdan ikkinchisiga olib o'tish;

- biron-bir shaxsni o'ziga bo'yin egdirish yoki birontasini o'ziga qul qilish;

- biron-bir shaxsni o'ziga mutlaqo tobe qilib, erksiz qilib qo'yish (qarz berib qaram qilish, huquqsiz dehqon qilish, ayollar va bolalarni oldi-sotdi qilish va hokazo);

- qulni va erksiz shaxsni jazo tariqasida mayib qilish, kuydirib tamg'a bosish;

- bunday jinoiy harakatlarga ishtirokchi bo'lish yoki xufya til biriktirib bunday jinoyatni sodir qilish¹.

“Qullik to'risida”gi Konvensiyada davlatlarning odamlardan foydalanish uchun ularni yollash jinoyatining oldini olish va bar-taraf etish masalasi qayd etilib, unda quyidagilar o'z ifodasini topgan;

- biror-bir shaxsni qo'lga kiritish yoki qullikka solish maq-sadida uni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan egallab olish;

- sotish yoki ayirboshlash maqsadida qulni qo'lga kiritish bilan bog'liq barcha harakatlarni amalga oshirish;

- shu maqsadda qo'lga kiritilgan shaxsni sotish yoki ayir-boshlash bo'yicha barcha harakatlar, qullar savdosi yoki qullarni tashish bo'yicha har qanday harakatlarni amalga oshirish².

Ushbu konvensiyaga muvofiq, uni imzolagan tomonlar qul savdosini tugatish va oldini olish, shu bilan bir qatorda, tezlik bilan qullikning barcha shakillarini to'liq tugatish majburiyatla-rini o'z zimmalariga olganlar.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida “Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga

1 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – To'plam: – T.: Adolat, 2004. – 216-bet.

2 O'sha joyda.

egadir”¹ (3-modda), “Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko‘rinishlari taqiqlanadi”² (4-modda), – degan qoidalar mustahkamlangan.

Ozodligi cheklangan va xo‘jayinining og‘ir mehnatiga jalb etilgan shaxs quldir. Quldorlik eng taraqqiy etgan mamlakatlarga qadimgi Rim va Yunonistonni misol sifatida keltirish mumkin.

Hozirgi kunda qulchilikning har qanday ko‘rinishlari barcha davlatlarda qonun bilan qat’iy taqiqlangan, oxirgi marta qullardan foydalanishni taqiqlash 1981-yilda Mavritaniyada joriy qilindi.

Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik

Insoniyatning global muammolari qatoridan o‘rin olayotgan odam savdosi jinoyati yigirmanchi asr oxirlarida paydo bo‘lib, xalqaro terrorizm, giyohvandlik kabi transmilliy jinoyatlar singari tarqalishi tez, oqibati og‘ir, bartaraf etish murakkab bo‘lgan qilmishga aylandi³.

So‘nggi yillarda yuridik adabiyotlarda “odam savdosi”, “odam traffigi” atamaları ilmiy kategoriya sifatida tez-tez qo‘llanilmoqda. Traffik atamasi odam savdosi yoki zamonaviy qullikning shakli deb talqin qilinmoqda⁴.

Xalqaro jinoyat huquqida jinoiy faoliyatning bu turiga nisbatan “traffik” atamasi ishlatiladi. Aslida, “traffik” lotin tilidagi “traffiso” so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab uni italiyaliklar muomalaga kiritgan. “Ttaffiko” italyancha “tijorat”, “savdo” ma’nosida ishlatilgan⁵. Dastlab bu atama “tabak traffik” shaklida qo‘llanilib,

1 Qarang: Huquqni muhofaza qilish oranlariga oid xalqaro hujjatlar. – To‘plam. Mas’ul muharrir: A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 13-bet.

2 O‘sha joyda.

3 Qarang. Q. Eraliyev. Xatarli savdo//Huquq va burch jurnali, 2008-yil, 28-son, – 33–34-betlar.//Abduhalimov Sh. Odam savdosi global xavf//Huquq va burch jurnali, 2008-yil, 8–9-son. – 21–22-betlar.

4 Юрий Пудочкин. Ответственность за торговля людьми по российскому праву. Сравнительное конституционное обозрение. № 3 (60) 2007. – С. 99–100.

5 Rajabova M.A. Traffik jinoyati (odam savdosi): qonunchilik va javobgarlik. Jinoiy jazolarni liberallashtirish: ilmiy-amaliy tahlil. – T.: Adolat, 2005. – 89-bet.

tamaki savdosi, tamaki bilan tijorat qilish ma'nosida ishlatilgan. Keyinchalik italyanlar uni qisqacha "traffik" deb atashgan. Ushbu so'z o'zagi asosida "traffikant", ya'ni savdo qiladigan do'kon egasi, do'kondor so'zidan kelib chiqqan¹.

Odam savdosi qullikning zamonaviy usuli, qul savdosining yangi turidir. Jinoyatchilar, birinchi navbatda, ayollar va bolalarni majburiy mehnat va jinsiy qullik qopqoniga tushurmoqdalar. Bugungi kunda odam savdosi jinoyatchilar uchun serdardomad manba bo'lib qolmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, dunyo bo'yicha odam savdosidan tushadigan yillik daromad 7 mlrd. AQSh dollaridan oshmoqda. BMTning ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 2 mln. 700 mingta shaxs odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Har yili 600 mingdan 800 minggacha ayollar va bolalar aldov yo'llari bilan chet ellarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda².

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar xalqaro huquqda anchadan beri mavjud bo'lib, xalqaro huquqiy hujjatlarda bunday jinoyatlarga qarshi kurash va uning oldini olish choralari belgilab berilgan. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollashga qarshi xalqaro miqyosda kurashish bo'yicha dastlabki qadamlar XX asr boshlarida tashlangan bo'lib, u xususan, quyidagi hujjatlarda o'z aksini topdi: Shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun amalga oshiriladigan ayollar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha 1899-yil 14-apreldagi London konferensiyasining ko'p tomonlama bitimlarni tuzish va tegishli milliy qo'mitalarni tashkil etish to'g'risida davlatlarga qilgan murojaatnomasi, Oq tanli qul ayollar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi 1904-yil 18-maydagi Xalqaro shartnoma (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 3-dekabrda qabul qilingan Protokol bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan), Oq tanli qul ayollar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi 1910-yil 4-maydagi Xalqaro Konvensiya

1 Nemis tilining izohli lug'ati. Tarjimon Yo'ldosh Parda. – T.: 2002. – 48-bet.

2 R. Qodirov. Odam savdosi – umumjahon miqyosidagi muammo//Huquq va burch jurnali, 2008-yil, 10-son. – 3-6-betlar.

(unga kiritilgan o'zgartirishlar bilan), Ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi 1921-yil 30-sentabrdagi Xalqaro Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1947-yil 20-oktabrda qabul qilingan Protokolga asosan kiritilgan o'zgartirishlar bilan), 1933-yil 11-oktabrdagi Balog'atga yetgan ayollar savdosiga qarshi kurashish to'g'risida Xalqaro Konvensiya (unga kiritilgan o'zgartirishlar bilan), Qullik to'g'risida 1926-yil 25-sentabrdagi Konvensiyalar. BMT tomonidan yuqoridada ko'rsatilgan hujjatlarning harakat doirasini kengaytiruvchi konvensiya loyihasi tuzilganligini e'tiborga olib, 1949-yil 2-dekabrda Odamlar savdosi va fohishabozlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida Konvensiya¹, 2000-yil 25-mayda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taaluqli Fakultativ protokol, 2000-yil 15-noyabrdagi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi², 2000-yil 15-noyabrdagi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokoli, 2000-yil 15-noyabrdagi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi Muhojirlarning quruqlik, dengiz va havo yo'llari orqali noqonuniy olib kirilishiga qarshi protokoli qabul qilindi.

Odamlardan foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar ichida BMTning Odam savdosiga qarshi kurashish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Inson huquqlari va odamlar savdosi to'g'risida"gi

1 Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishiga qarshi kurash to'g'risidagi BMT Konvensiyasi (Nyu-York, 1949-yil 2-dekabr). BMT (IV) Rezolyutsiya bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrdagi 576-II-sonli Qaroriga binoan qo'shilgan.

2 Qarang: BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi. Nyu-York 2000-yil 5-noyabr (BMT Bosh Assambleyasining 55/25-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan).

tavsiyaviy rahbariy qoidalar va prinsiplarni alohida ta’kidlash loim. Bu prinsiplarning maqsadi odamlar savdosi va uning bir qismi bo’lgan odam yollashga qarshi xalqaro huquqiy kurash olib borish strategiyasini va umumiy asoslarini aniqlash hisoblanadi¹.

Bundan tashqari odam savdosiga qarshi YeXHTning xalqaro hujjatlari qabul qilingan².

Odam savdosiga qarshi Yevropa Kengashi, Yevropa Kengashining Vazirlar Qo’mitasi va Yevropa Kengashining Parlament Assambleyasining xalqaro hujjatlari va Tavsiyalari qabul qilingan bo’lib, ulardan 2005-yil 16-mayda Varshavada qabul qilingan Yevropa Kengashining Odam savdosiga qarshi kurash to’g’risidagi maxsus Konvensiyasi³ alohida ahamiyat kasb etadi.

1949-yilda qabul qilingan BMTning Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishiga qarshi kurash to’g’risidagi Konvensiyasi 1-moddasida tomonlar ushbu Konvensiyada:

1) boshqa shaxsni foxishalik maqsadida, hattoki, uning roziligi bilan qo’shib qo’ygan, yo’ldan urgan yoki nomusiga tajovuz qilgan;

2) boshqa shaxsning foxishaligini, hattoki, shu shaxsning roziligi bilan ishlatgan har bir kishini jazolashga majburiyat oldilar, – deyiladi⁴.

Odam savdosiga qarshi kurashishda BMTning 2000-yil 5-noyabrdagi “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Kon-

1 **Izoh:** Tavsiyaviy prinsipda ko’rsatilganidek: “Odalar savdosining predmeti bo’lgan inson huquqlari to’g’risidagi masala odamlar savdosining oldini olish va unga qarshi kurash olib borishga, qurbonlarga yordam, himoya va to’lovlar berishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlarning markazida bo’lmog’i darkor”. Internet materiallari bo’yicha: <http://hrlibrary.ngo.ru>.

2 Batafsil qarang: Odam savdosiga qarshi kurashish bo’yicha xalqaro shartnomalar va O’zbekiston milliy qonunchiligi: hujjatlar to’plami/Mas’ul muharrir va so’z boshi muallifi A.X. Saidov. – T.: O’zbekiston, 2012. – 252–300-betlar.

3 O’sha joyda. – 301-bet.

4 Qarang: Huquqni muhofaza qilish oranlariga oid xalqaro hujjatlar. – To’plam. Mas’ul muharrir: A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 81-bet.

vensiyasini” to’ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo’yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokol¹ odam savdosini xalqaro huquqiy jihatdan taqiqlash, uni tushunish va oldini olish masalalarida bir xillikni ta’minlash uchun mustahkam asosni joriy etdi.

Mazkur Protokolning maqsadlari quyidagilardan iborat:

1) odam savdosining oldini olish hamda ayollar va bolalarga alohida e’tibor bergan holda unga qarshi kurashish;

2) bunday savdo qurbonlarini, ularning inson huquqlarini to’la hurmat qilgan holda, himoya qilish va yordam berish;

3) bu maqsadlarga erishishda Ishtirokchi-davlatlar o’rtasidagi hamkorlikni rag’batlantirish.

Bundan tashqari, Protokolda odam savdosining oldini olish va tugatishning bosh masalalari ham tartibga solingan. Hozirda bu Protokol odamlarni yollashga qarshi kurash tizimiga asos solgan asosiy, yagona me’yor sifatida tan olinadi.

Odam savdosi tushunchasi Protokolning 3-moddasida berilgan bo’lib, unga ko’ra, “odam savdosi” – foydalanish maqsadlarida kuch ishlatish xavfi yoki uni qo’llash yoxud majburlovning boshqa shakllarini qo’llash, o’g’irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni yoki qaramlik holatini suiiste’mol qilish yoxud to’lovlar yoki foyda ko’rinishida sotib olish yo’li bilan yoxud shaxsni nazorat qiluvchi boshqa shaxsning roziligini olish uchun to’lovlar yoki foyda ko’rinishida sotib olish yo’li bilan insonlarni yollash, tashish, berish, yashirish va odamlarni qo’lga kiritishni anglatadi. Foydalanish kamida boshqa shaxslar fohishabozligidan foydalanish yoki shahvoniy maqsadlarda foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullikni yoki qul-

1 Izoh: 2004-yil iyul holatiga ko’ra, 79 ta davlat BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini ratifikasiya qilgan yoki unga qo’shilganlar; 61 ta davlat Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to’ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo’yish va uning uchun jazolash to’g’risidagi Protokolni ratifikasiya qilgan yoki unga qo’shilgan./Internet materiallari bo’yicha: <http://hrlibrary.ngo.ru>.

likka o'xshash urf-odatlarni, shaxsni tutqunlik holatini yoki odam tanasi a'zolarini ajratib olishni anglatadi¹.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida ham odam savdosi tushunchasi berilgan bo'lib, **odam savdosi** – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishdan iborat. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fojihaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi².

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs³ deganda mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog'liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek o'z harakatlari bilan odam savdosiga ko'maklashadigan, xuddi shuningdek, garchi o'z mansab vakolatlariga ko'ra to'sqinlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo'lsa

1 O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi "BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokolni (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi 160-sonli Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son, 351-modda.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, 4-son, 190-bet.

3 **Izoh:** Ushbu tushuncha ilk bor O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2008-yil 17-aprel Qonunida aks etgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, 4-son, 190-modda.

ham, odam savdosiga to‘sqinlik qilmaydigan yoki qarshi kurashmaydigan mansabdor shaxs tushuniladi.

Odam savdosi jinoyatining obyekti – jabrlangan shaxslarning ozodligi, qard-qimmat, erkinligi hisoblanadi. Odam savdosining bevosita obyekti shaxsning shaxsiy erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Qo‘shimcha obyekt alohida kvalifikatsiya qilingan tarkiblarda shaxsning hayoti va sog‘lig‘i daxlsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagi harakatlardan birini sodir etishda ifodalanadi: odamlarni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish.

Odam savdosining asosiy va eng xavfli shakllari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Jinsiy ekspluatatsiya obyekti sifatida ayollar savdosi;
2. Jinsiy ekspluatatsiya obyekti sifatida bolalar savdosi;
3. Majburiy mehnatning obyekti sifatida odam savdosi;
4. Odamning tabiiy organlarini ajratib olish (transplantat) maqsadlarida odam savdosi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Jinoyatning subyekti subyekt yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Odam savdosi hudud va chegara tanlamayotgan hamda barcha davlatlarning xavfsizligiga birdek tahdid solayotgan transmilliy xarakterga ega bo‘lgan jinoyat bo‘lganligi sababli ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligi davlatlararo va xalqaro tashkilotlar doirasida olib boriladigan o‘zaro hamkorlikka bog‘liq. Respublikamiz odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratdi. Xususan, mustaqillik yillarida davlatimiz xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik (shu jumladan, odam savdosi)ning xavfli ko‘rinishlariga qarshi kurash haqida 29 ta shartnoma va kelishuvlarni imzoladi¹.

¹ Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosidagi muammo // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi, 2008-yil 5-son. – 2–3-betlar.

Xususan, 1995-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga ko‘ra, mamlakatimiz “Xotin qizlarni kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga¹ qo‘shildi, 2003-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga ko‘ra, BMTning 1949-yilgi “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi² Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi, 2003-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi “Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiya va Yakunlovchi Bayonnomaga³ qo‘shildi, 2008-yil 8-aprelda O‘zbekiston Respublikasi “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi Konvensiyani⁴ ratifikatsiya qildi.

2008-yilda esa, BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasini to‘ldiruvchi “Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish bartaraf qilish va uning uchun javobgarlik to‘g‘risida”gi

1 O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 87–I-sonli Qaroriga asosan qo‘shilgan.//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 6-son, 135-modda.

2 BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 5525-sonli rezolyutsiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda ma‘qullangan). Mazkur Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536–II-sonli Qaroriga asosan ratifikatsiya qilgan.// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 150-modda.

3 BMT Bosh Assambleyasining 1949 yil 2 dekabdagi 317 (VI) sonli Rezolyutsiyasi bilan ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabdagi 576–II-sonli Qaroriga asosan qo‘shilgan.// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2004-yil, 1–2-son, 26-modda.

4 “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi 1999-yil 17-iyun Konvensiyasi. Mazkur Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-apreldagi O‘RQ–144-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilgan.// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, 4-son, 180-modda.

Protokolni¹ ratifikatsiya qilib, davlat o'z zimmasiga aholini ogoh qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish va qurbonlarni himoya qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash va o'tkazish orqali odam savdosining oldini olish hamda unga barham berish majburiyatini oladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 2008-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni² qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining "odamlardan foydalanish uchun ularni yollash" deb nomlangan 135-moddasi yangi tahrirda bayon etilib, "odam savdosi" uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-maddasi 1-qismida odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish jinoyat hisoblanib, unga nisbaatan jinoiy javobgarlik belgilangan.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham insonning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, ayniqsa, odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish jinoyatlariga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2008-yilning 17-apreldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyuldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, shu asosda Odam savdosiga qarshi

1 O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi "BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bartaraf qilish va uning uchun javobgarlik to'g'risidagi Protokolni (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi 160-sonli Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son, 351-modda.

2 Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 17-apreldagi "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RBQ-154-sonli Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, 4-son, 190-bet.

kurashish bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyasi tuzilib, uning Nizomi va tarkibi tasdiqlandi hamda "2008–2010-yillarga mo'ljallangan odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Milliy Dastur", "2011–2012-yillarga mo'ljallangan odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi", hozirgi kunda esa, "2013–2014-yillarga mo'ljallangan odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi" ishlab chiqilib, barcha vazirlik va tashkilotlarga aniq vazifalar yuklatildi, ushbu reja ijrosi komissiya raisi va ishchi guruh tomonidan nazorat qilib borilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 5-noyabrdagi "Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazini tashkil qilish to'g'risida"gi 240-sonli Qarori qabul qilinib¹, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaa qilish vazirligi qoshida reabilitatsiya markazi tashkil qilindi va 2009-yil 18-noyabr kuni foydalanishga topshirildi. Mazkur Markazda odam savdosidan jabrlanganlarga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Mamlakatimizda odam savdosi jinoyatlarining oldini olish, unga qarshi kurashish, odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar xalqaro tashkilotlar vakillari, bu sohadagi xorijiy ekspertlarning munosib e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Xususan, AQSh Davlat departamentining 2009-yil yakunlari bo'yicha hisobotlarida O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar ijobiy baholanib, Toshket shahrida tashkil etilgan Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya Markazi, bu yo'nalishdagi faoliyat o'z samarasini berayotganligi to'g'risida alohida to'xtalib o'tilgan².

1 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 44–45-son, 445-modda.

2 Доклады Правительства США: Доклад о торговле людьми за 2009 год // Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnomalar va O'zbekiston milliy qonunchiligi: hujjatlar to'plami/Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2012. – 20-bet.

Yuqoridagilarga ko'ra, xalqaro odam savdosiga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri bu ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, qo'shma loyihalar va dasturlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik

“Terrorizm” atamasi lotincha “terror” so‘zidan olingan bo‘lib, qo‘rqinch tug‘dirish, vahima, dahshat ma‘nosini anglatadi¹. Xalqaro terrorizm xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli qilmishlar yig‘indisi bo‘lib, davlatlarning xalqaro va milliy xavfsizligiga tajovuz qilib, odamlarning asossiz ravishda o‘lishiga, davlatlar va uning vakillarining normal dimlomatik munosabatlarni amalga oshirish faoliyatiga hamda davlatlar o‘rtasidagi transport aloqalariga jiddiy putur yetkazadi.

Quyidagi hollarda terrorizm xalqaro jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadi:

a) agar terrorchilar ham, jabrlanuvchilar ham bitta davlatning fuqarolari bo‘lib, terrorchilik harakati shu davlat hududidan tashqarida sodir etilgan bo‘lsa;

b) agar terrorchilik akti fuqarolari xalqaro himoyadan foydalanadigan davlatlarga qarshi qaratilgan bo‘lsa;

c) terrorchilik harakatiga bir davlat hududida tayyorgarlik ko‘rilib, boshqa davlat hududida amalga oshirilsa;

d) terroristik akt bir davlat hududida sodir etilib, terroristlar boshqa davlat hududida yashirinsa va ularni javobgarlikka tortish uchun topshirish zarurati kelib chiqsa².

1 Huquqshunoslikka oid o‘zlashma terminlar. Tuzuvchilar: H. Bektemirov, H. Xolmedov, S. Sodiqov. – T.: Adolat, 1999. – 59-bet.

2 Xalqaro terrorizm jinoyati bo‘yicha jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi (ilmiy-amaliy qo‘llanma). Nashr uchun mas‘ul: yuridik fanlari doktori, professor Q.Z. Alimov. – T.: 2007. – 9-bet.

Terrorchilik deganda, terrorizmni amalga oshirish uchun ketgan vaqt, muayyan hududda amalga oshirilishi va juda ko'p insonlarga qarshi qaratilganligi kabi jihatlarga ega jinoiy harakatlar tushuniladi¹.

Terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha halqaro miqyosda quyidagi hujjatlar qabul qilingan.

- 1937-yilgi 24 davlat vakillari tomonidan imzolangan "Terrorizmning oldini olish va uni tugatish to'g'risida"gi Konvensiya, "Terrorchilar va boshqa jinoyatchilarni sud qilish uchun xalqaro jinoyat palatasi to'g'risida"gi Konvensiya.

- "Havo kemalari bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqa ayrim aktlar to'g'risida"gi 1963-yilgi Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 32-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan);

- "Havo kemalarini qonunga xilof tarzda bosib olinishiga qarshi kurash to'g'risida"gi 1970-yil 16-dekabrdaqi Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 29-dekabrdaqi 1016-XII-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan);

- "Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan g'ayri-qonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida"gi 1971-yilgi Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 29-dekabrdaqi 1016-XII-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan);

- 1973-yilda qabul qilingan "Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga qarshi, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida"gi Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrdaqi 553-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan);

¹ Qarang: Антонян Ю.М. Терроризм: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: 1998. – С. 11.

- 1979-yilda qabul qilingan “Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 554–I-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 1980-yili qabul qilingan “Yadroviy materiallarni jisman himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 556–I-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 1988-yilda qabul qilingan “Dengiz kemalarining xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘ayriqonuniy aktlarga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 31-avgustda 132–II-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 1991-yilgi Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasi;

- 1991-yilgi “Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida ularni markirovka qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

- 1994-yilda qabul qilingan “Xalqaro terrorizmni bartaraf qilish choralari to‘g‘risida”gi BMT Deklaratsiyasi;

- 1993-yilgi “Kimyoviy qurolni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va qo‘llashni taqiqlash hamda uni yo‘q qilish haqida”gi Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-aprelda 236–I-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 1996-yilgi BMTning “Jinoyatchilik va ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Deklaratsiyasi;

- 1997-yilgi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Xalqaro Konvensiya;

- 1997-yil 15-iyulda “Bombali terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Xalqaro Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 29-avgustda 684–I-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Xalqaro Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-maydagi 225–II-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- “Yadroviy terrorizm aktlariga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Xalqaro Konvensiya (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 9-apreldagi O‘RQ–146-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilgan);

- “Terrorizmni yo‘q qilish haqida”gi Yevropa Konvensiyasi (Strasburg, 1977-yil 27-yanvar);

- MDH davlatlari ishtirokchilarining “Terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorligi haqida”gi shartnomasi (Minsk, 1999-yil 4-iyul);

- 1999-yil 9-dekabrda “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Shanxay Konvensiyasi (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 274–II-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 2001-yil 15-iyundagi Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Shanxay Konvensiyasiga o‘zgartirish kiritish haqidagi Bayonnoma (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda 573–II-sonli qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

- 2008-yil 16-mayda “Terrorizm bilan kurashish maqsadida o‘zaro hamkorlik va ushlab berish haqida”gi Konvensiya;

- 2009-yil 16-iyundagi ShHTning “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi;

- 2010-yil 10-sentabrda “Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga nisbatan noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

- 1999-yil 19-noyabrda Yevropa xavfsizlik Xartiyasi;

- 2005-yil 16-maydagi Varshavada Yevropa Ittifoqining “Terrorizmdan ogohlantirish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi;

- 2005-yil 16-maydagi Yevropa Ittifoqining “Terrorizmni moliyalashtirish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

Xalqaro miqyosda “terrorizm” atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u yuridik atama sifatida izoh talab qiladi. Zero, “terrorizm”ga yuridik atama sifatida yakdil ta’rif berilmagan. Chunonchi, AQShlik mutaxassislar T. Arnold va M. Kennedi “Terrorizm tushunchasiga ta’rif berib bo‘lmaydi”¹ degan edilar. Shuningdek, g‘arb olimlaridan E. Arechaga “Terrorizm umumiy jihatdan qaraganda, jinoiy qilmishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunday jinoiy qilmishni jamiyatda sarosima, tartibsizlik keltirib chiqarish, terror qilish, jamoat tartibini izdan chiqarish, ijtimoiy kuchlar tomonidan terrorga qarshi bo‘ladigan harakatni bo‘g‘ib qo‘yish hamda jamiyatda kulfat va azob-uqubatlarni kuchaytirish maqsadida ataylab sodir etiladigan harakatlar sifatida ta’riflash kerak”², deya mazkur qilmishning o‘ta ijtimoiy xavfli ekanini ifodalovchi qator subyektiv belgilarni sanab bergan. Rus olimlari, masalan, I.V. Dall o‘zining yuridik izohli lug‘atida “Terrorizm – maqsadi o‘ldirish, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish bo‘lgan harakatdir”³, – deb ta’kidlagan edi. Ko‘p olimlar terrorizmni xalqaro jinoyat deb e’tirof etadilar. Hozirgi kunda huquqshunos olimlar oldida “xalqaro terrorizmning” ilmiy-siyosiy tavsiflarini, unga berilgan turli-tuman ta’riflarni tahlil qilish bilan birgalikda mazkur jinoyatning yuzaga kelish sabablarini, mohiyatini, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan ochib berish masalasi yotibdi. Zero, hozirgi kunda terrorizmning xalqaro ko‘rinish tusini olib, ijtimoiy xavfi yanada oshayotgani ko‘rinib turibdi.

1 Brece Houfman (Bryus Xoffman). Inside Terrorism (Ichki terrorizm). Columbia “University Press”, 1998. – P. 209.

2 Ляхов Е.Г. Терроризм и межгосударственные отношения. – М.: Международное отношения, 1991. – С. 13.

3 O‘sha joyda.

Ushbu tushuncha O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunida berilgan bo‘lib, Qonunning 3-moddasida: “Terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biror-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rluk, zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar”, – deyiladi.

Ko‘p holatlarda “terrorizm” bilan bir doirada ishlatiluvchi “diniy ekstremizm” nima? 1999-yil 9-dekabrda Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 2-moddasida: “Ekstremizm – hokimyatni zo‘rluk bilan egalab olish yoki zo‘rluk bilan ushlab turishga, shuningdek davlatning konstitutsiyaviy tizimini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga qaratilgan qandaydir qilmish, shuningdek jamoat xavfsizligiga zo‘rluk bilan tajovuz qilish, jumladan mazkur maqsadlarda g‘ayriqonuniy qurolli tuzilmalarni tashkil etish yoxud ularda ishtirok etish”, – deya sharhlangan edi.

Shuningdek, yana bir jinoiy atama separatizm “davlatning hududiy yaxlitligini buzishga, jumladan, hududining bir qismini undan ajratishga yoki davlatni tarqatishga (dezintegratsiya qilishga) qaratilgan, zo‘rluk ishlatish orqali sodir etiladigan qandaydir qilmish, shuningdek shunday qilmishni rejalashtirish va tayyorlash, uning sodir etilishiga ko‘maklashish, bunga undash”¹ deya o‘zining yuridik izohini topgan.

1 Mazkur Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 274-II-sonli Qaroriga asosan ratifikatsiya qilgan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 185-modda.

Xalqaro terrorizm jinoyatining asosiy obyektlari xalqaro xavfsizlik, insoniyat xavfsizligi hamda davlatlarning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir. Uning qo'shimcha obyekti odamlarning hayoti, sog'lig'i, moddiy yoki boshqa manfaatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Motivlari esa, turlicha bo'lishi mumkin: qasos, qasd, davlatda olib borilayotgan siyosatni g'oyaviy qabul qilmaslik va boshqalar¹.

Obyektiv tomondan, odatda, terrorizm aniq bir siyosiy (jamoat) arbob yoki bir necha odamlar hayotiga qarshi qaratilgan zo'rlik ishlatish yoki uni qo'llash taktikasidan iborat harakatlardir.

Zo'rlik ishlatish ko'pincha tanaga og'ir tan jarohatlari yetkazish va o'ldarishgacha bo'lgan jismoniy ta'sirlardan tarkib topadi. U ruhiy ta'sirdan ham, turli ashyolarni undirishdan ham iborat bo'lishi mumkin, bu ayniqsa, terroristik harakatlar biror shaxsning hayoti uchun pul talab qilish kabi holatlar uchun xarakterlidir².

Professor X.T. Odilqoriyev hamda B.E. Ochilov xalqaro terrorizm quyidagi shakllarini ko'rsatadi.

I. Zamonaviy terrorizm.

II. An'anaviy terrorizm³.

Jahonda ro'y berayotgan terrorizm xurujlari mamlakatimiz va boshqa davlatlar xavfsizligiga ham xavf solmoqda. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasida ***“O‘zbekiston ekstremizmni, terrorchilikni, har qanday ko‘rinishdagi diniy fanatizm va aqidaparastlikni qat’iyan qoralaydi. Biz mojaroni siyosiy vositalar yor-***

1 Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. III tom. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Darslik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Darslik. – T.: “ILM–ZIYO”, 2011. – 254–261-betlar.

2 Qodirov R.X. Diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning ayrim xususiyatlari. – T.: O'qituvchi, 2000. – 47-bet.

3 Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq)/Darslik. – T.: 2002. – 337–347-betlar.

damida tinch yo'l bilan hal qilish, bir-biriga qarshi kurashuvchi tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish, mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tarafdori" ekanligimizni ta'kidlagandi.

2001-yil 15-dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, mazkur qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat¹ (1-modda), deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi JKga muvofiq, 155-modda bilan mazkur qilmish jinoyat, deb baholandi. Ya'ni, 155-modda 1-qismiga ko'ra, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoki ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yohud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat terrorizm deb kvalifikatsiya qilinishi va javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 1-2-son, 14-modda; 2004-yil, 5-son, 90-modda.

JK 155-moddasi 2-qismida vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to'sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakat uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning 3-qismida 1- yoki 2-qismida nazarda tutilgan harakatlar: a) odam o'lishiga; b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, jinoiy jazoga tortilishi ko'zda tutilgan¹.

Bundan tashqari JKning 155-modda 1-qismi dispozitsiyasida terrorizmni moliyalashtirish ham jinoyat sifatida tavsiflangan. Bu dispozitsiya 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining JKga unifikatsiyasi hisoblanadi².

Bugungi kunga kelib terrorizمنى shunday ko'rinishlari paydo bo'lgani milliy hukumatlarning boshqa davlatlar bilan hamkorlikda unga qarshi kurashishi kerakligini taqozo etmoqda.

Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: *"Xalqaro terrorizm muammosiga duch kelmayotgan davlatning o'zi qolmadi, terrorizmga qarshi kurash butun dunyo miqyosidagi hamkorlikni taqozo etayotir..."*³

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 87–88-betlar.

2 **Izoh:** 2009-yil 22-aprelda mazkur qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunga muvofiq, qonunning 3-moddasi 2-qismiga "Terrorizmni moliyalashtirish – "terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini moliyalashtirishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlarga yohud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga qaratilgan faoliyat", mazmunida qo'shimcha kiritildi.

3 Karimov I.A. Tinchlik yo'lida hamkorlik. Nato Sammitidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2002-yil, 23-noyabr.

Yollanma jinoyatchilikka qarshi kurash

Ushbu jinoyatning oldini olish borasida BMT Bosh Assambleyasi Kotibiyati, BMT Xavfsizlik Kengashi bir necha bor yollanma jinoyatchilikni qoralab, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishni talab qilgan. 1961-yil 24-noyabrdagi BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasida BMT nazorati ostida bo'lmaydigan barcha chet ellik harbiy yoki yarim harbiy shaxslarni shuningdek, yollanuvchilarni darhol qamoqqa olish, ushlab turish va jo'natish uchun ta'sir choralarni qo'llash to'g'risidagi qoidalar mustahkamlandi. 1968-yil BMT Bosh Assambleyasi 2465 (XXIII) rezolyutsiyasida shuni qat'iy belgilab qo'ydi, yollanuvchilardan foydalanish amaliyoti jinoiy harakat hisoblanadi. 1976-yil 30-noyabrdagi BMTning 31–34-son rezolyutsiyasida davlatlar o'z hududlaridagi yollanuvchilarni jalb etish, moliyalashtirish va o'tkazishni jinoyat deb e'lon qiladigan va yollanuvchi sifatida jalb qilinishini taqiqlaydigan qonunlar qabul qilishga chaqirdi. Bu qoidalar, shuningdek BMTning 1977-yilgi 32–41-son rezolyutsiyasida ham mustahkamlandi. 1989-yilda qabul qilingan “Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risida”gi Xalqaro Konvensiyasida¹ “Yollanma jinoyatchi nizolashayotgan tomonning fuqarosi hisoblanmagan, shaxsiy moddiy foyda ko'rish maqsadida harbiy harakatlarda ishtirok etish uchun o'z ixtiyori bilan yollangan xususiy shaxs”, degan ta'rif berilgan.

Yollanuvchi tushunchasi 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyasiga Xalqaro qurolli ziddiyatlar qurbonlarini himoya qilish haqidagi qo'shimcha Protokol (1-Protokol)ning 47-moddasida belgilab berilgan:

1. Yollanma shaxs kombatant yoki harbiy asir statutiga ega emas.

¹ Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 555–II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 1-son, 22-modda.

2. Yollanma shaxslar qatoriga quyidagi har qanday shaxs kirishi mumkin:

a) qurolli mojaroda kurashish uchun o'sha joyda yoki chet elda maxsus yollangan shaxslar;

b) amalda harbiy harakatlarda bevosita qatnashayotgan shaxslar;

c) harbiy harakatlarda asosan shaxsiy foyda ko'rish istagiga amal qilgan holda qatnashayotgan va unga nizolashayotgan tomondan bevosita yoki shu tomonning ko'rsatmasi bilan mazkur tomon qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga mansub xuddi shu daraja va shu vazifani bajaruvchi kombatantlarga va'da qilingan yoki to'lanadigan mablag'ga nisbatan ancha ko'p miqdorda haq to'lanishi to'g'risida haqiqatda va'da olgan shaxs;

d) nizolashayotgan tomon fuqarosi ham bo'lmagan va nizolashayotgan tomon nazorati ostidagi hududda ham muqim yashamayotgan shaxslar;

e) nizolashayotgan tomon qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kirmaydigan shaxslar;

f) nizolashayotgan tomon hisoblanmagan davlat tomonidan uning qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi shaxs sifatida rasmiy vazifani bajarish uchun yuborilmagan shaxslar¹ kirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JKning 154-moddasida yollanish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishga qarshi kurashning xalqaro huquqiy jihatlari

Bugungi kunda shaxsni garovga olish jinoyati keng tarqalgan bo'lib, undan turli uyushgan jinoiy guruhlar foydalanmoqda.

Garovga olish ikki xil ko'rinishda:

1) terrorizm yoki tovlamachilik alomatlari bo'lamagani holda shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda;

¹ 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva Konvensiyalari va ularga qo'shimcha Protokollar. Ikkinchi nashr. – T.: Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, 2007. – 261-bet.

2) garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov tariqasida tutqunlikda ushlab turishda namoyon bo'ladi.

1907-yilda Urush qonunlari va udumlari to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasida urush vaqtida shaxsni garov sifatida ushlab turish xalqaro huquqqa xilof ekanligi belgilangan.

1979-yilda qabul qilingan "Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya¹ga ko'ra, garovga olish deganda muayyan shaxsni qo'lga olish yoki qo'l ostida ushlab turish, o'ldirish, tahdid etish, jarohat yetkazish yoxud garovga olingan shaxsni ozod qilish sharti sifatida davlatni, xalqaro tashkilotni tegishli shaxsni u yoki bu harakatni amalga oshirishga yohud muayyan harakatlardan tiyilishga majbur qilish uchun garovga olingan shaxsni ushlab turishda davom etish kabi harakatlar tushuniladi.

Konvensiyaning² 5-moddasida: "Garovga olish –

a) davlat, uning hududida yoki uning hududida ro'yxatga olingan suv transporti bortida sodir etilganda;

b) davlat fuqarosiga nisbatan amalga oshirilganda;

d) davlatni muayyan harakatlarni bajarishga yoki bajarishdan tiyilishga majbur etilganda;

e) garovga olingan odam shu davlat fuqarosi va qilmishni sodir etishda gumon qilingan jinoyatchi ham shu hududda bo'lganda davlat o'zining yurisdiksiyasini amalga oshiradi. Siyosiy qarashlari, irqiy, diniy mansubligi uchun ta'qib qilish va jazolashga urinish alomatlari bo'lganida jinoyatchini da'vogar dav-

1 Ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 554-I-son Qarori bilan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 1-son, 21-modda.

2 Ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 554-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 1-son, 21-modda.

latga berish man etiladi”, – deya universal yurisdiksiya tamoyili belgilab qo‘yilgan¹.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining bevosita obyekti jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, fuqarolarning erkin harakat qilishi, hayot yoki sog‘lig‘ini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat terrorizm yoki tovlamachilik alomatlarini bo‘lmagan holda garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakatni sodir etishdan o‘zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turishda ifodalanadi².

Garovga olingan shaxs – o‘z xohish-irodasiga zid ravishda harakat qilish erkinligidan mahrum etilgan shaxsdir.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Jinoyatning subyekti subyekt yoshiga yetgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Garovga olingan shaxslarni ozod qilish shartlari turlicha bo‘lishi mumkin. Dunyo miqyosida garovga olinganlar bilan bog‘liq sud-tergov amaliyotini o‘rganish shundan dalolat beradiki, aybdorlar ko‘pincha o‘zlari turgan mamlakatdan chiqib ketish imkonini berish, hukumat qarorining bekor qilinishiga erishish, mahkumlarni ozod qilish, pul, qurol, giyohvandlik moddalari-ning berilishi va hokazo talablarni qo‘yganlar³.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 245-moddasida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olganlik uchun jinoyi javobgarlik belgilangan.

1 A. Ochildiyev. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari. – T.: TIU nashriyoti, 2008. – 177-bet.

2 Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. V tom. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. – T.: ILM-ZIYO, 2011. – 27-bet.

3 O‘sha joyda.

Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashni taqiqlash

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barpo etilishi, iqtisodiyotda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan umume'tirof etilgan shaxs huquq va erkinliklari ustuvorligining tan olinishi munosabati bilan sud-huquq tizimi tubdan isloh qilinishi lozim bo'lgan sohalardan biri sifatida e'tirof etildi. Amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, eng avvalo, shaxs, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa uzviy huquqlarini muhofaza qilish uchun sharoit yaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 72 ta asosiy hujjatga qo'shildi. "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning qoidalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash ham inson huquqlarining qo'pol buzilishidir. Xalqaro hamjamiyat tomonidan bunday qilmishlar insoniyat sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash sifatida baholanadi.

BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 5-moddasida: "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak", – deyiladi¹. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktning 7-moddasida: "Hech kim azob-uqubatga solinmasligi va

¹ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam (o'zbekcha nashr). Ma'sul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004.

unga nisbatan shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala qilinmasligi yoki jazolanmasligi kerak...”, – deyiladi¹. Ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kasituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llashni taqiqlovchi hujjatlar: “Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risida”gi Jeneva Konvensiyasi², “Barcha xomiylik ostidagi hududlarda tan jazosini butunlay bekor qilish maqsadida tezkor choralar ko'rish to'g'risida”gi BMT Bosh Assambleyasining tavsiyalari³, “Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari”⁴, “Barcha shaxslarni qiynoq va boshqa shafqatsiz, rahmsiz yoki insonning qadr-qimmatini xo'rlaydigan muomala va jazo turlaridan himoya qilish to'g'risida”gi Deklaratsiya⁵, “Huquq-tartibotni saqlash yuzasidan mansabdor shaxslarning axloq Kodeksi”⁶, “Mahbus-

1 O'zbekiston Respublikasi ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

2 O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 946-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 346-modda.

3 BMT Bosh Assambleyasining 1950-yil 2-dekabrda 44V-Rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan. // Права человека. Учебник / Отв. Е.А. Лукашева. – М.: Норма инфра, 1999. – С. 60–61.

4 EKOSOSning 1957-yil 31-iyuldagi 663 C1-raqamli rezolyutsiyasi va 1977-yil 13-maydagi 2076 (LXXII)-rezolyutsiyasi bilan ta'qullangan. // Права человека: Учебник / Отв. Е.А. Лукашева. – М.: Норма инфра, 1999. – С. 60–61.

5 EKOSOSning 1975-yil 9-dekabrda 34523452/XXX-raqamli rezolyutsiyasi bilan ta'qullangan. // Права человека. Учебник / Отв. Е.А. Лукашева. – М.: Норма инфра, 1999. – С. 60–61.

6 1979-yil 17-dekabrda Huquq-tartibotni saqlash yuzasidan mansabdor shaxslarning axloq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi mazkur kodeksga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi 507-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 263-modda.

lar yoki hibsga olingan shaxslarni qiynoq hamda jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlaridan himoya qilishda sog'liqni saqlash xodimlarining, ayniqsa, shifokorlarning roliga taalluqli tibbiyot etikasi prinsiplari"¹, "Irqiy kamsitishning barcha shakillarini tugatish to'risida"gi Xalqaro Konvensiya², "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya"³, "Qanday shaklda bo'lmasin, hibsga yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari turkumi"⁴ qabul qilingan.

BMT tomonidan 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya"⁵ qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan maxsus hujjat sanaladi. Konvensiya BMTning konvensiyaviy hujjatlaridan biri hisoblanadi. 2012-yilning boshiga kelib Konvensiyani

-
- 1 EKOSOSning 1982-yil 18-dekabrda 37/194-raqamli rezolyutsiyasi bilan ma'qullangan./Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar./Ma'sul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 167-bet.
 - 2 1966-yil 16-dekabrda "Irqiy kamsitishning barcha shakillarini tugatish to'risida"gi Xalqaro Konvensiya// Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 129-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 204-modda.
 - 3 Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 130-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 205-modda.
 - 4 1988-yil 9-dekabrda Qanday shaklda bo'lmasin, hibsga yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari turkumi/Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar./Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "Adolat", 2004. – 155–165-betlar.
 - 5 **Izoh:** Ushbu Konvensiya 1984-yil 10-dekabrda BMTning 39–46-sonli rezolyutsiyasi bilan imzolangan, 1987-yilning 21-yanvarida dunyoning 20 ta mamlakati tomonidan ratifikatsiya qilingan, 1987-yil 26-iyundan kuchga kirgan, 1987-yil 11-noyabrda e'lon qilingan. Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 130–I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 205-modda.

120 dan ortiq davlat ratifikatsiya qildi yoki imzoladi¹. Ushbu Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qildi.

“Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya” 33 moddadan iborat bo‘lib, uning xususiyatlari quydagilardan iborat:

birinchidan, bu hujjat ishtirokchi-davlatlar qiynoqqa solish choralarning qo‘llanilishini o‘z milliy qonun hujjatlari doirasida batamom taqiqlashlari lozimligini nazarda tutadi;

ikkinchidan, Konvensiyada qat’iy belgilanganidek, yuqori turuvchi boshliqning hech bir buyrug‘i va hech qanaqa alohida, favqulodda holat qiynoqqa solish yoki boshqa shafqatsiz, g‘ayri-insoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi jazo turlarini qo‘llashni oqlash uchun xizmat qilishi mumkin emas;

uchinchidan, Konvensiyaga muvofiq, qiynoqqa solishni qo‘llagan har qanday shaxs istalgan ishtirokchi-davlatning hududida sud tartibida ta’qib qilinishi mumkin. Qiynoqqa solish hollarini sodir etishda gumon qilinayotgan har qanday shaxs har qanday ishtirokchi davlatda sud javobgarligiga tortilishi yoki ishtirokchi-davlatda jinoyat sodir etgan bo‘lsa, sud javobgarligiga tortish maqsadida shu davlatga topshirilishi mumkin;

to‘rtinchidan, Konvensiya muayyan bir ishtirokchi-davlat hududida muntazam ravishda qiynoqqa solish qo‘llanib kelinayotganligiga doir aniq, to‘g‘ri va ishonchli axborot mavjud bo‘lsa, uni xalqaro miqyosda muhokamadan o‘tkazishni nazarda tutadi. Ishtirokchi-davlatning roziligi bilan bunday tekshiruv paytida ana shu davlat hududiga tashrif bilan borish ham mumkin².

1 Ismoilov B.I. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati. / Mas’ul muharrir: A.X. Sattarov. – T.: TDYuI Ilmiy tadqiqot markazi, 2012. – 20-bet.

2 Mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 130–I-sonli Qaroriga asosan qo‘shilgan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 205-modda.

BMT alohida ahamiyatga ega bo'lgan ushbu xalqaro huquqiy hujjatni ishlab chiqar ekan, u standartlarni nazorat qiluvchi **Qiynoqqa qarshi konvensiyaviy Qo'mitani** ham tashkil etdi.

Qiynoqlarga qarshi qo'mita har biri to'rt yil muddatga saylanadigan 10 nafar ekspertdan tashkil topgan. Bu qo'mitaning asosiy maqsadi kovensiyaning qo'llanilishi va unga rioya etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Qo'mita 1988-yil 1-yanvardan o'z vazifasini bajarishga kirishdi va 1988-yil aprel oyida Jeneva shahrida birinchi marotaba o'z yig'ilishini chaqirdi¹.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini taqiqlovchi universal hujjatlardan tashqari, ushbu huquqni ta'minlovchi mintaqaviy hujjatlar to'plami ham ancha salmoqli hisoblanib, ular jumlasiga: "Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilish Yevropa Konvensiyasi"ni (1950-yil, 3-moddasi), "Insonning asosiy huquq va erkinliklari to'g'risida"gi MDH Konvensiyasini², "Inson va xalqlar huquqlari haqidagi Afrika xartiyasi"ni (1988-yil), "Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rllovchi muomala yoki jazolashning oldini olish Yevropa Konvensiyasi"ni (1986-yil), Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan "Yevropa qamoq qoidalarini"ni (1987-yil), YXHT Vena uchrashuvining (1989-yil), YXHT insoniy mezonlar bo'yicha konferensiyasi Kopengagen yig'ilishi (1990-yil) yakuniy hujjatlari va boshqalarni kiritish mumkin.

1981-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qiynoq jabrlanuvchilari va ularning oilalariga yordam ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish maqsadida qiynoq jabrlanuvchilari uchun ixtiyoriy jamg'arma ta'sis etildi.

1 Ismoilov B.I. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati. / Mas'ul muharrir: A.X. Sattarov. – T.: TDYuI Ilmiy tadqiqot markazi, 2012. – 20-bet.

2 Qarang: 1995-yil 25-maydagi "Insonning asosiy huquq va erkinliklari to'g'risida"gi MDH Konvensiyasi.

BMT Bosh Assambleyasi tashabbusi bilan qabul qilingan 52/149-sonli maxsus rezolyutsiyasiga binoan 1997-yildan buyon 26-iyun qiynoq va zo'rlik jabrlanuvchilarini qo'llab-quvvatlash kuni (**International Day in Support of Victims of Torture**) sifatida nishonlanmoqda.

2002-yil 18-dekabrda “Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya”ga Fakultativ Protokol¹ qabul qilindi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qo'llash jinoyatining obyekti odil sudlov manfaati, adolatli sud muhokamasining ta'minlanishi, shu bilan birga jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan har bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi, hukm qilinmasligi hisoblanadi. Fakultativ obyekti qiynoqqa solingan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i, uning sha'ni va qadr-qimmatidir.

Obyektiv tomondan jinoyat bevosita qiynoqqa solish, shafqatsiz, g'ayriinsoniy, shaxsning qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlarini qo'llash orqali sodir etiladi.

Shu o'rinda qiynoq, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Konvensiyaning 1-moddasida “qiynoq” tushunchasiga: “... biror shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan ko'rsatma olish yoki iqrorga qildirish maqsadida u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishlikda gumon qilinayotgan harakat jazolash, shuningdek, uni yoki uchinchi shaxsni qo'rqitish yoki majburlash yoxud barcha ko'rinishdagi kamsitishga asoslangan istalgan sababga ko'ra, qasddan jismoniy yoki ma'naviy qattiq og'riq yoki azob beruvchi har qanday harakat”, – deb ta'rif beriladi.

¹ **Izoh:** “Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya”ga Fakultativ Protokol qiynoqlarning oldini olishga bag'ishlangan bo'lib, u 2002-yil 18-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan. 2012-yilga kelib dunyoning 64 ta davlati mazkur Fakultativ Protokolga qo'shildi.

1998-yil 17-iyuldagi Xalqaro jinoyat sudi Rim Statutining 7-moddasi 1-qismi, “a” bandida qiynoqqa solish faktining o‘zi xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalarini buzuvchi og‘ir huquqbuzarlik, insonga qarshi jinoyat sifatida tan olindi.

Qiynoq tushunchasi yuridik adabiyotlarda keng muhokama qilingan bo‘lib, unga muvofiq, aksariyat huquqshunoslar qiynoqning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadilar:

1) davomiylik va muntazamlilik¹;

2) ta’sir etish usuliga ko‘ra, o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilishi;

3) kuchli og‘riq, og‘ir va o‘ta og‘ir azob va qiynoq (jismoniy va ruhiy) yetkazilishi;

4) aybning qasd turi va muayyan maqsadning ko‘zlanishi².

Djorj Rayli Skott: “Qiynoq holat va maqsadlaridan hamda uning tamom bo‘lishi yoki inson hayotidan mahrum etilishiga sabab bo‘lishidan qat’i nazar insonga azob va og‘riq yetkazuvchi har qanday jarayondir”,³ – deb ta’kidlaydi.

C. Ojegov esa, qiynoqni: “ayblanuvchini so‘roq qilishda jismoniy zo‘rlilik ishlatish, qiynash”, – deb ta’riflaydi⁴.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur tushuncha to‘liq ochib berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, qiynoq: 1) jismoniy yoki ruhiy azob, aziyat, ozor; 2) qiynash va azoblashning yo‘li, usullari va ularni qo‘llash, deb izohlanadi⁵.

1 Уголовное право. Особенная часть. Учебник/Под ред. Н.И. Ветрова. Ю.И. Ляпунова. – М.: 1998. – С. 656.

2 Уголовное право России. Особенная часть. Учебник/Отв. ред. Б.В. Здравомыслов. – С. 445; Курс Уголовное право России. Особенная часть. Т.5. Учебник/Под ред. Г.Н. Бовзенкова и В.С. Коммесадова. – М.: Зерцало-М, 2002. – С. 194.

3 Skot D.R. Istoriya pitok.// Bu borada qarang: Abdurasulova Q.R., Safarov J.I. Qiynoq: milliy va halqaro huquqiy jihatlar. – T.: TDYuI, 2008. – 35-bet.

4 Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: 1964. – С. 626// Bu borada qarang: Abdurasulova Q.R., Safarov J.I. Qiynoq: milliy va halqaro huquqiy jihatlar. – T.: TDYuI, 2008. – 35-bet.

5 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 430-bet.

Ayrim olimlar qiynoq mustaqil ma'no va mazmun kasb etmaydi, degan yondashuvni ma'qullaydilar. Ular qiynoq deganda g'ayriinsoniy hamda inson qadr-qimmati va sha'nini kamsitivchi muomalaning yetkazilgan azoblar nuqtai nazaridan nisbatan intensiv bo'lgan shaklini tushunadilar¹.

G'ayriinsoniy muomala yoki jazo deganda, intensivlik nuqtai nazaridan qiynoq paytida yetkazilgan azobga nisbatan zaif bo'lgan kuchli jismoniy yoxud ruhiy azob berishni tushunish kerak².

Qadr-qimmatni kamsitivchi muomala va jazo deganda jabrlanuvchini haqoratlash, kamsitish yoki jismoniy va ma'naviy qarshiligini sindirish uchun qo'rquv, tushkunlik va nomukammallik hissini uyg'otishga qaratilgan muomalani tushunish kerak³.

Konvensiyaning 4-moddasida:

1) har bir ishtirokchi-davlat hamma qiynoq harakatlari uning jinoyat qonunchiligiga muvofiq ravishda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

2) har bir ishtirokchi-davlat bunday jinoyatlar uchun ularning og'irlik xususiyatini hisobga olgan holda tegishlicha jazolar tayinlaydi, – deb belgilangan.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlarida bu tushqil qilinish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan.

Xususan, Avstraliya (1988), Ozarbayjon (1999), Aljir (2004), Angliya (1988), Gretsiya (1984), Ispaniya (1978), Qozog'iston (2002), Kamerun (1997), Qirg'iziston (2003), Lyuksemburg (2000), Makedoniya (1996), Malta (1990), Tunis (1999), Ukraina (2001), O'zbekiston (1995) Fransiya (1992), Chernogoriya (2003), Chili (1998), shuningdek, Lotin Amerikasining aksariyat

1 Дженис М., Кэй Р., Брэдли Э. Европейское право в области прав человека (практика и комментарии). – М.: Права человека, 1997. – С. 147.

2 Rustamboev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. VI tom. Maxsus qism. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. – T.: ILM-ZIYO, 2011. – 377-bet.

3 Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining 1978-yil 18-yanvardagi Irland gegen Vereinigtes Konigreich ishi bo'yicha Qarori. // Berger V. Op. cit. – S. 84–85.

mamlakatlari jinoyat qonunlarida qiynash jinoyat sifatida qayd etilgan¹.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng qabul qilinayotgan respublikamiz qonunlarida ham dastlabki tergov va surishtiruv mobaynida qonun bilan taqiqlangan uslublardan foydalanish taqiqlanadi.

Konvensiyaning 9–15-moddalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17, 18, 19, 22, 23, 27, 88-moddalariga² to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17-moddasi 2-qismida: “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas”, – deb belgilangan³.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-bobi “Odil sudlovga qarshi jinoyatlar” deb nomlanib, 235-moddasida⁴ qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning yangi bosqichi sharoitida amaldagi qonunchilik me'yorlari qiynoqlardan himoya qilishga oid inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi asosiy standartlar me'yorlari bilan boyitib borildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga

1 Додонов В.Н., Малиновский А.А. Основные тенденции развития зарубежного уголовного права // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения, 2006, № 1.

2 Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: (2013-yil 1-fevralgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalari bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2013. 8–14 va 53–54-betlar.

3 O'sha joyda. 8-bet.

4 Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 144–145-betlar.

o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni¹ bilan O'zbekiston Resbulikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasi "Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash" deb nomlandi. Unga ko'ra, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki sadr-simmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, ya'ni gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, guvohga, jabrlanuvchiga yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisiga yoxud jazoni o'tayotgan mahkumga, ularning yaqin qarindoshlariga ulardan biror bir axborot, jinoyat sodir etganligiga iqrorlik ko'rsatuvi olish, ularni sodir etilgan qilmish uchun o'zboshimchalik bilan jazolash yoxud biror bir harakatni sodir etishga majburlash maqsadida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan yoki huquqni muhofaza qilish organining, jazoni ijro etish muassasasining boshqa xodimi tomonidan qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish yoki qonunga xilof boshqa harakatlar vositasida sodir etilgan qonunga xilof ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Amaldagi ushbu qonun normasi xalqaro Konvensiya normalariga to'la mos keladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabdagi "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-sonli qarorida BMT 1984-yil 10-dekabrda qabul qilgan "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya"da nazarda tutilgan "qiynoq" tushunchasi mustahkamlab qo'yilgan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki, qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid

1 Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 535-II-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborot-nomasi, 2003-yil, 9-10-son, 149-modda.

yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qo'llaganlik uchun xalqaro hamda milliy qonunchiligimizda jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, qiynoqqa solish faktining o'zi hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalarini buzuvchi og'ir huquqbuzarlik, insoniyatga qarshi jinoyat sifatida tan olinadi.

Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan g'ayriqonuniy aktlarga qarshi kurash

Samolyotlarni qo'lga olish va olib qochish, shuningdek, fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga boshqacha tarzda aralashish harakatlari ekipaj va yo'lovchilarning hayotiga xavf tug'diradi, havo transportining bir maromda faoliyat yuritish tartibini buzadi. Xalqaro miqyosda jinoyatlarning bunday turlariga qarshi kurashish hamda bunday kurashning qonuniy asoslarini yaratish maqsadida Fuqaro aviatsiyasi Xalqaro Tashkiloti doirasida bir qator bitimlar qabul qilingan. Xususan, 1971-yil 23-martdagi "Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan qonunga xilof tarzdagi xatti-harakatlarga qarshi kurash to'g'risida"gi Monreal Konvensiyasi¹, 1988-yil 24-fevraldagi "Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qaratilgan qonunga xilof tarzdagi xatti-harakatlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi Monreal Konvensiyasini to'ldiruvchi Xalqaro Fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi aeroportlardagi qonunga xilof tarzdagi zo'rlik xatti-harakatlarga qarshi kurashish haqidagi Bayonnoma², "Xalqaro

1 Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 29-dekabrda 1016-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994-yil, 1-son, 25-modda.

2 Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1992-yil 7-iyuldagi 666-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992-yil, 9-son, 36-modda.

Fuqaro aviatsiyasi to'g'risida"gi Konvensiya¹, "Xalqaro Fuqaro aviatsiyasi to'g'risida"gi Konvensiyaga doir tuzatishlar².

1970-yilgi Gaaga Konvensiyasida³ qayd etilishicha parvoz-dagi eshiklarning yopilishidan to ochilishigacha bo'lgan davrlarda havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda kuch ishlatish yoki tahdid etish yo'li bilan qo'lga olish jinoyat hisoblanadi.

1971-yilgi "Fuqarolik aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'grisida"gi Monreal Konvensiyasida havo kemasining xavfsizligini xatar ostiga qo'yish; havo kemasini yakson etish; havo kemasiga portlovchi moddalar o'rnatish va boshqa shu kabi hatti-harakatlar parvozdagi havo kemasi bortida joylashgan shaxslarga nisbatan zo'ravonlik akti deyiladi.

1988-yilgi Xalqaro aeroportlarga noqonuniy zo'ravonlik harakatlariga doir Protokolda aeroportdagi shaxsga qarshi zo'ravonlik akti; aeroport asbob-uskunalari yoki inshootlarni yakson etish yohud ularni ishlab chiqarish kabi harakatlar jinoyat sifatida e'tirof etdi.

1 Mazkur Konvensiya 1944-yil 7-dekabrda ma'qullangan. Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 29-dekabrda 1016-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994-yil, 1-son, 25-modda.

2 Ushbu konvensiyaga quyidagi tuzatishlar kiritilgan: 27.05.1947-y. Monreal (93-modda); 14.06.1954-y. Monreal (45-modda); 14.06.1954-y. Monreal (48a, 49e, I, 61-modda); 21.06.1961-y. Monreal (50a-modda); 15.09.1962-y. Rim (48a-modda); 12.03.1971-y. Nyu-York (50-modda); 07.07.1971-y. Vena (56-modda); 16.10.1971-y. Monreal (50a-modda); 30.09.1977-y. Monreal (Yakuniy qoidalar matnining o'zgartirilishi); 06.10.1980-y. Monreal (83-modda); 10.05.1984-y. Monreal (3-modda); 06.10.1989-y. Monreal (56-modda); 26.10.1990-y. Monreal (50a-modda). Mazkur hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 7-maydagi 865-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1993-yil, 6-son, 249-modda.

3 1970-yil 16-dekabrda "Havo kemalarini qonunga xilof tarzda bosib olinishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Gaaga Konvensiyasi// Mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1993-yil 29-dekabrda 1016-XII-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994-yil, 1-son, 25-modda.

Uchala konvensiya gumon qilinayotgan jinoyatchi Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlardan birining hududida bo'lsa, universal yurisdiksiyani nazarda tutadi. Jinoyatchini berish (“*aut dedere aut punere*”) ushlab berish yoki jazolash tamoyili asosida tartibga solinadi. Jinoyatchi qaysi davlat hududida bo'lsa, o'sha davlat qamoqqa oladi. Agar davlat jinoyatchini bermasa, uni o'zining vakolatli organlariga jinoiy sudlarni olib borish uchun berishga majbur¹. Har bir a'zo davlat o'z jinoyat qonunchiligida, uchala konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarning og'irligini hisobga olgan holda, jazoni nazarda tutadi.

1971-yilda qabul qilingan “Fuqaro aviyatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida”gi Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq uni imzolagan davlatlar:

- xavo kemasida bo'lgan shaxsga nisbatan zo'rvonlik sodir etilgan va bu harakat havo kemasi xavfsizligiga tahdid solganda;

- foydalanilayotga havo kemasini vayron qilish yoxud uni ishdan chiqishiga yoki parvozigga xavf tug'diruvchi nosozliklar keltirib chiqarganda;

- havo kemasiga uni vayron qiluvchi, ishdan chiqaruvchi, yoxud uning parvozigga xavf tug'diruvchi har qanday buyum va qurilmalar olib kirilganda;

- havo kemasi parvozigga jiddiy zarar keltiradigan aeronavigatsiya jixozlari buzilganda va undan foydalanishga noqonuniy aralashilganda;

- yolg'on ma'lumotlarni tarqatish bilan havo kemasiga xavf tug'dirilganda, bunday harakatlarni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan bosqinchilik va havo kemalarini olib qochish jinoyatlari qatorida jazo belgilash majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar.

1 Saidov A.X. Xalqaro huquq darslik. Mas'ul muharrir: prof. U. Tojixonov. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg'armasi” nashri, 2001. – 231–232-betlar.

Dengizdagi qaroqchilikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlari

Dengizdagi qaroqchilikka qarshi kurash bo'yicha bir qancha bitimlar mavjud. 1922-yilgi Vashington Deklaratsiyasi, "Ochiq dengiz to'g'risida"gi 1958-yilgi Jeneva Konvensiyasi, BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1992-yilgi Konvensiyasi, "Dengiz kema-chiligiga tahdid soluvchi gayriqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya¹ shular jumlasidandir.

"Ochiq dengiz to'g'risida"gi Konvensiyaning 15-moddasiga ko'ra, shaxsiy maqsadlarda xususiy kema yoki uchish apparati ekipaji yoxud yo'lovchilari tomonidan boshqa kema yoki uchish apparatiga qarshi yoxud bortdagi shaxslar yoki mol-mulkka nisbatan sodir etilgan har qanday g'ayrihuquqiy zo'raonlik, ushlab turish yoki talon-taroj etish harakatlari qaroqchilik deb hisoblanadi.

Shuningdek, 1988-yili Kontinental shelfda joylashgan stasionar platformalar xavfsizligiga tahdid soluvchi gayriqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida Bayonnoma qabul qilingan.

Hozirgi paytda qaroqchilik Tinch va Hind okeanlari o'rtasida joylashgan dengizlarda keng tarqalgan (Janubiy Xitoy, Yavan, Selebus va boshqa dengizlar) qaroqchilik sindikatlari (Vong xonim "Imperiyasi") tuzilgan bo'lib, ular keyingi yillarda o'z faolligini sezilarli darajada oshirdi, shuning uchun savdo kemalarining bu joylarda suzishi xavfli bo'lib qoldi.

Diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olishda xalqaro hamkorlik

Bu borada 1973-yilda qabul qilingan "Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga qarshi, shu jumladan, diplomatiya

¹ Mazkur hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 31-avgustdagi 132-II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, 7-8-son, 224-modda.

agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida"gi Konvensiya¹ ham muhimdir. Ushbu konvensiya bo'yicha quyidagilar jinoyat deb e'tirof etiladi:

a) diplomatik himoyadan foydalanuvchi shaxsni o'ldirish, o'g'irlab ketish yoki uning shaxsi yoxud shaxsiy erkinligiga qarshi qaratilgan boshqa tajovuzlar;

b) bunday shaxslarga mansub bo'lgan rasmiy ish joyi, turar joy yoki transport vositasiga qarshi qaratilgan tajovuzlar.

Bunday shaxslar sirasiga quyidagilar kiradi.

a) xorijiy davlatda bo'lib turgan davlatlar rahbarlari, hukumatlar boshliqlari va ularga hamrohlik qiluvchi oila a'zolari:

b) xalqaro normalarga muvofiq, o'z shaxsiga, erkinligi va sha'niga qarshi qaratilgan tajovuzlardan maxsus himoyalaniş huquqiga ega bo'lgan shaxslar – davlatning har qanday vakili yoki mansabdor shaxsi yoxud xalqaro tashkilot xodimi, shuningdek, ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatishning oldini olishda xalqaro hamkorlik

Bu borada birinchi xalqaro shartnoma – Opium bo'yicha birinchi xalqaro ko'p tomonlama Konvensiya 1912-yil 28-yanvarda Gaagada imzolandi. Bugungi kunga kelib giyohvandlik vositalarini tarqatishga qarshi kurash bo'yicha 10 dan ortiq Konvensiyalar, bitimlar va protokollar qabul qilingan.

Xususan, 1961-yil 30-martda "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konvensiya² (bu esa, giyohvandlikka qarshi

1 Mazkur hujjatga O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda 553-I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 1-son, 20-modda.

2 Ushbu konvensiyani O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevralda 30-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 23-sentabrdan kuchga kirgan.

kurashning turli masalalari bo'yicha ilgari tuzilgan 9 ta shart-nomaning o'rniga o'tdi), 1971-yil fevralda "Psixotrop moddalar to'g'risida" Vena Konvensiyasi, 1972-yil 25-martda 1961-yilgi "Giyohvand moddalar to'g'risida"gi Yagona Konvensiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risida Protokol qabul qilindi.

"Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konvensiya davlatlar o'z hududida giyohvandlik vositalarini tayyorlash va tarqatish ustidan nazoratni amalga oshirishini nazarda tutadi. Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tarqatish (sotish, sotib olish, tashish) bilan bog'liq jinoyatlar tartibini kvalifikatsiya qilib beradi.

1983-yili Bosh Assambleya giyohvand moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha maxsus tadbirlarni belgiladi, BMT tarkibidagi dastur, boshqa tashkilotlar va ixtisoslashgan tashkilotlar zimmasiga o'zining tegishli ish faoliyati sohasida bunday tadbirlarga katta e'tibor berishga chaqirdi.

1984-yili Bosh Assambleya o'zining 39-sessiyasida giyohvand moddalar ustidan xalqaro nazoratni kuchaytirishga tegishli uchta rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi. Bu hujjatning birida mintaqaviy va universal harakatlar kompleks kelishuvining muhimligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

1985-yil Bosh Assambleya 40-sessiyasida narkotik moddalar bo'yicha jinoyatchilik va uni noqonuniy tarqatishga qarshi kurash borasida navbatdagi xalqaro hujjatni qabul qildi.

1988-yilda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi kuchga kirdi. Unda xalqaro amaliyotda ilgari qo'llanilmagan ayrim yangi choralar ko'zda tutilgan. Jumladan:

- a) xorijiy mol-mulkni xatga olish;
- b) narkotiklarni tashishga qarshi kurashda yuklarni nazoratdan o'tkazish usulidan foydalanish.

Konvensiyasining ahamiyati shundan iboratki, unda narkotiklarning noqonuniy muomalasiga oid bir nechta jinoiy tarkiblar mustahkamlandi, jumladan:

1. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun mo'ljallangan jihozlar, uskunalar, ashyolar va vositalarni tayyorlash, ko'chirib o'tkazish yoki tarqatish, narkojinoyatchilikni tashkil etish, rahbarlik qilish yoki moliyaviy ko'mak berish;

2. Mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan qonunchilikni buzish asosida qo'lga kiritgan xususiy mulkni birovga o'tkazishga urinish yoki shunday tarzda qonunbuzarlik sodir etgan shaxsga javobgarlikdan qochishi uchun sharoit yaratib berish;

3. Narkojinoyatchilikda ishtirok etgani oqibatida qo'lga kiritilgan mulkning asl manbaini yashirish;

4. Xususiy mulkni olish, unga egalik qilish, agar uni tasarrufiga olgan chog'ida bu mulk narkojinoyatchilik oqibatida yoki shunday ishga aralashish oqibatida qo'lga kiritilganligi ma'lum bo'lsa;

5. Narkojinoyatga yoki giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy qo'lga kiritishga oshkora undash yoinki shunday ishga rag'bat o'yg'otish;

6. Narkojinoyat sodir etish uchun til biriktirish, bu ishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, shunday qonunbuzarlikni amalga oshirishga maslahat berish, narkojinoyatni sodir etishga urinish.

Giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qiluvchi xalqaro organlar giyoxvandlik vositalari bo'yicha EKOSOS Komissiyasi va giyoxvandlikni nazorat qilish bo'yicha Xalqaro qo'mita xisoblanadi.

1946-yil BMT doirasida EKOSOS¹ shafe'ligida narkotik vositalar bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiya 30 davlat vakillaridan iborat komissiya IIK tomonidan 4 yilga saylanadi.

1968-yil giyohvandlik vositalarini nazorat qilish bo'yicha Xalqaro kengash tuzildi. Kengash tarkibi 13 davlatdan iborat bo'lib, IIK tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Kengashning asosiy vazifasi 1961-yil 30-martda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konvensiyaga hukumatlar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat.

1 BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi.

1981-yili BMT Bosh Assambleyasi giyohvandlik jinoyatiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro strategiyani qabul qildi (36-168-rezolyutsiya) va ushbu masalani bajarishni giyohvand moddalar bo'yicha Komissiya zimmasiga yukladi.

Komissiya quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1) giyohvandlik moddalariga tegishli xalqaro huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishini kuzatadi, jahonda giyohvandlik vositalari ustidan nazorat ahvolini tahlil qilishda iqtisodiy va ijtimoiy kengashga ko'maklashadi, xalqaro nazoratni kuchaytirish yuzasidan tavsiyalar beradi;

2) giyohvandlikka oid ilmiy izlanishlarni rag'batlantiradi va davlatlar o'rtasida tegishli ma'lumotlarni ayirboshlashni tashkil etadi;

3) Millatlar Ligasi maslahat komitetining vorisi sifatida oliy va boshqa xavfli narkotiklarni tranzit olib o'tish xavfsizligini kuzatadi;

4) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash borasida xalqaro-huquqiy hujjatlar loyihasini tuzadi;

5) BMT doirasidagi narkotiklarni nazorat qilish dasturi strategiyasini belgilab berib, uning faoliyatini nazorat qiladi;

6) EKOSOSning qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Shuningdek, Komissiya faoliyatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarni joriy etish, shuningdek ilmiy tadqiqot dasturlarini hamda ma'lumotlarni ayirboshlash borasida tavsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Hozirda jahon miqyosida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, BMT tomonidan 1987-yil 26-iyun "Giyohvand moddalar suiiste'molligi va noqonuniy muomalasiga qarshi kurash kuni" sifatida etirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muo-

mala qilishga qarshi ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni¹ qabul qilindi.

Ushbu Qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga monelik qilish, fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta‘minlashni maqsad qilib qo‘yadi (1-modda).

Ushbu qonunning 3-moddasida “giyohvandlik (narkotik) vositalari”, “psixotrop moddalar”, shuningdek, “prekursorlar”, “giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari”, “preparat” kabi bir qancha asosiy atamalarning huquqiy tushunchalari berilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

giyohvandlik (narkotik) vositalari² – giyohvandlik vositalari ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan preparatlar va o‘simliklar;

psixotrop moddalar³ – psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axbarotnomasi, 1999-yil, 9-son, 210-modda.

2 **Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limi (atamalarining huquqiy ma‘nosi)ga ko‘ra, “giyohvandlik vositalari” – “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi BMTning 1961-yilgi Yagona Konvensiyasining I va II Ro‘yxatlariga kiritilgan tabiiy yoki sun‘iy tayyorlangan har qanday giyohvandlik vositalari, “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Yagona Konvensiyaga tuzatishlar haqida”gi 1972-yilgi Protokolga asosan kiritilgan tuzatishlar bilan birga.

3 **Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limi (atamalarining huquqiy ma‘nosi)ga ko‘ra, “psixotrop modda” – BMTning “Psixotrop moddalar haqida”gi 1971-yilgi Konvensiyasining I, II, III va IV ro‘yxatlariga kiritilgan har qanday tabiiy yoki sintetik modda yoxud har qanday tabiiy material.

prekursorlar¹ – prekursorlar ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari – kimyoviy tuzilishi va xossalriga ko‘ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o‘xshash, ular singari ruhiyatga faol ta‘sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

preparat – moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo‘lgan aralashmasi.

O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinishi lozim bo‘lgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro‘yxatiga kiritiladi. Ular davlat tomonidan ko‘riladigan nazorat choralaridan kelib chiqib, quyidagi ro‘yxatlarga kiritiladi:

1) I ro‘yxatga – O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi (ular O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan yoki chiqarilmaganidan qat’i nazar) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan taqiqlangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar kiradi;

2) II ro‘yxatga – O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi cheklangan va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq nazorat choralari belgilangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar kiradi;

3) III ro‘yxatga – O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi cheklangan va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomala-

1 **Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limi (atamalarining huquqiy ma‘nosi)ga ko‘ra, prekursorlar – BMTning “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 1988-yil-gi Konvensiyasiga Ilovaning I va II javdallariga kiritilgan har qanday modda.

riga muvofiq ayrim nazorat choralari istisno etilishi mumkin bo'lgan psixotrop moddalar kiradi;

4) IV ro'yxatga – O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan prekursorlar kiradi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishini nazorat qilish va qonunga xilof ravishda ular bilan muomala qilganlik uchun javobgarlik belgilash majburiyatlari O'zbekistonning xalqaro huquqiy shartnomalaridan kelib chiqadi. Bugungi kunda respublikamiz “Giyohvandlik vositalari to'g'risida”gi BMTning 1961-yilgi Yagona Konvensiyasi va 1972-yilda unga kiritilgan o'zgartirishlar, “Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurash to'g'risida”gi BMTning 1988-yilgi Konvensiyasiga qo'shilgan.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra (XIX bob. “Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar”) jinoyat hisoblanib, unga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan.¹ JKning ushbu bobiga kiritilgan mazkur jinoyatlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan muomala qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlashga qaratilgan. Bu normalarning maqsadi ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi harakat qilish, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash va davlat xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

¹ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2012-yil 1-iyulgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 168–178-betlar.

Radiktiv moddalar bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurash

Radioaktiv moddalar – yadro materiallariga aloqasi bo'lmagan, ion nurlarini tarqatuvchi moddalar (radiy – 236, poloniy – 210, kobalt – 60 va boshqalar).

Yuz berish ehtimoli bo'lgan radiatsion falokatning xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini nazarda tutgan holda 1980-yilda “Yadroviy materialni fizik himoyalash to'g'risida”gi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiyada asosan ogohlantiruvchi mazmundagi choralar ko'zda tutilgan bo'lib, texnik va tashkiliy himoya standartlari belgilangan.

Radiktiv moddalar bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida”gi 120–II-son¹, 1992-yil 9-dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi 754–XII-son² Qonunlari va boshqa qonun hujjatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida radiaktiv moddalar bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlar jinoyat hisoblanib, unga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Xususan, JKning 252-moddasiga ko'ra, radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash, 253-moddasiga ko'ra, radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish, 254-moddasiga ko'ra, radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish jinoyat hisoblanib, qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yadroviy moddalarni noqonuniy qo'lga kiritish va ulardan foydalanishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik

Yadroviy moddalarni noqonuniy qo'lga kiritish va ulardan foydalanish jinoyatiga qarshi xalqaro miqyosida 1980-yil 3-martda

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, 7–8-son, 212-modda

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 1-son, 38-modda

“Yadroviy moddalarni jisman himoya qilish to‘g‘risida“gi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiyada dushmanlik maqsadida yadroviy moddalarni g‘arazli maqsadlarda o‘g‘irlash va tarqatishning xavfliligini hisobga olib, himoya tartibi, jinoyatchilarni ushlab berish va javobgarlikka tortish tartibi aniq belgilab berilgan.

Shuningdek, Konvensiyada tegishli organlarning ruxsatisiz bunday materiallarni egallash jazolanishi kerak bo‘lgan huquqbuzarlikdir, deb e‘lon qilingan. Atrof-muhitga jiddiy zarar etkazadigan yadroviy materiallarni olish, egallash foydalanish, berib yuborish, shuningdek, bosqinchilik yo‘li bilan yadroviy materiallarni qo‘lga kiritish, aldov yo‘li bilan yadroviy materiallarni olish yoki o‘zlashtirish qat‘iyan man qilinadi.

Bunday xarakterlar uchun jazo Konvensiya ishtirokchisi bo‘lgan davlatlar yurisdiksiyasi asosida amalga oshiriladi (8-modda).

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashdan asosiy maqsad yadroviy materiallarni noqonuniy egallash va foydalanish natijasida kelib chiqadigan xavfning oldini olishdir.

Shuningdek, bu borada 1972-yil 10-aprelda qabul qilingan “Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog‘larni ishlab chiqish, tayyorlash va to‘plashni man etish hamda ularni tugatish to‘g‘risida”gi¹, “Kimyoviy qurolni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va qo‘llashni taqiqlash hamda uni yo‘q qilish haqida”gi² 1993-yilgi Konvensiya, Yadro sunovlarini yalpi ta‘qiqlash to‘g‘risidagi Shartnoma³ lar qabul qilingan.

1 London, Vashington, Moskva, 1972-yil 10-aprel. O‘zbekiston Respublikasi mazkur hujjatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan 185–I-sonli Qaroriga asosan qo‘shilgan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y, 12-son, 275-modda.

2 Parij, 1993-yil 13-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi mazkur hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan 236–I-sonli Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 5–6-son, 74-modda.

3 O‘zbekiston Respublikasi mazkur hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan 432–I-sonli Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilgan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 4-son, 136-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yadroviy moddalarni noqonuniy qo‘lga kiritish va ulardan foydalanish jinoyat hisoblanib, qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi belgilangan bo‘lib, xususan, kontrabanda (246-modda), o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (247-modda), qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (248-modda), o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash (249-modda), portlash xavfi bo‘lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish (250-modda), pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (250¹-modda), yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (255-modda), bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg‘in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to‘plash, olish, birovga o‘tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egalash va ular bilan boshqa xarakatlarni sodir etish (255¹-modda) jinoyat hisoblanib, qonunga muvofiq javobgarlikka asos bo‘ladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik

Xalqaro jinoyat huquqida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish “pullarni yuvish, tozalash”¹ sifatida e’tirof etiladi hamda narkotrafik, poraxo‘rlik, o‘g‘rilik va boshqa noqonuniy harakatlar natijasida olingan pul mablag‘larining “haqiqiy” ko‘rinishini yashirish maqsadida qonuniy moliya tizimidan foydalanish sifatida baholanadi².

Xalqaro huquqda “Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish” degan atama ilk marta 1988-yil 19-dekabrda

1 **Izoh:** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish ingliz adabiyotlarida – “Money laundering”, rus adabiyotlarida - “отмывание денег” sifatida e’tirof etiladi.

2 Лисин А.Н. История развития и международно-правовые аспекты легализации (отмывания) доходов, полученных преступным путем, с использованием офшорных финансовых центров // “Черные дыры” в Российском Законодательстве. Юридический журнал. – М.: 1К-Пресс, 2007, № 1.

“Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Vena Konvensiyasida berilgan edi. Mazkur Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq, jinoiy faoliyatdan tushgan daromadlarni legallashtirish deganda, Konvensiyaning 3-moddasi “a” bandiga muvofiq:

- huquqbuzarlik yoki huquqbuzarliklar sifatida tan olingan qilmishlarni sodir etish natijasida yoki bu kabi huquqbuzarliklarda ishtirok etish natijasida orttirilganligi ma’lum bo‘lgan mol-mulkning bu mol-mulkning noqonuniy manbasini yashirish, sir saqlash yoki bu kabi huquq-buzarlik va huquqbuzarliklarda ishtirok etuvchi har qanday shaxsga u o‘zining qilmishlari uchun javobgarlikdan qutulishi uchun konversiya qilish va topshirish;

- huquqbuzarlik yoki huquqbuzarliklar natijasida yoki bu kabi huquqbuzarliklarda ishtirok etish natijasida orttirilganligi ma’lum bo‘lgan mol-mulk yoki unga taalluqli bo‘lgan buyumning asl xarakterini, manbasini, joylashgan joyini, tasarruf qilish usulini, ko‘chirilishini yoki unga nisbatan haqiqiy huquqlarini yashirish yoki sir saqlash;

- olish vaqtida huquqbuzarlik yoki huquqbuzarliklar natijasida yoki bu kabi huquqbuzarliklarda ishtirok etish natijasida orttirilganligi ma’lum bo‘lgan mol-mulkni orttirish, egalik qilish yoki undan foydalanish;

- yuqorida keltirilgan har qanday huquqbuzarlik yoki huquqbuzarliklarni sodir etish maqsadida bu kabi huquqbuzarlik yoki huquqbuzarliklarda ishtirok etish yoki jinoiy til birlashtirish, shuningdek ularni sodir etishda qo‘llab-quvvatlash, yo‘naltirish, hamkorlik qilish yoki maslahat berish tushuniladi.

Shuningdek, mazkur Konvensiya eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro shartnomalar doirasiga kiritiladi. Bu Konvensiya a’zo-davlatlardan giyohvand va psixotrop moddalarga qarshi kurashda giyohvand moddalar savdosidan tushgan daromadlarni legallashtirishni jinoiy qilmish sifatida tan olishni va bu sohani tartibga soluvchi qonunchilikni ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu jinoyatga qarshi xalqaro miqyosda bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 1996-yilda BMTning “Xalqaro

tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, 2001-yil 15-iyundagi "Terrozmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi xalqaro Konvensiya, "Pulni yuvishga qarshi kurash choralari, jinoyatchilik va odil sudlov XXI asr chorloviga javoblar to'g'risida"gi Vena Deklaratsiyasi, BMTning 2000-yil 5-noyabrdagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" Konvensiyasi, BMTning 2003-yil 31-oktabrdagi Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, 1998-yil 8-dekabrdagi "G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legalashtirishga qarshilik qilish to'g'risida"gi MDH Namunaviy qonuni qabul qilingan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni "yuvish"ga qarshi kurash mintaqaviy doirada ham olib borilmoqda. 1990-yilda Yevropa Kengashining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo'yish va konfiskatsiya qilish to'g'risida"gi Strasburg Konvensiyasi, Yevropa Ittifoqi Kengashining 1991-yil 10-iyundagi "Pullarni tozalash maqsadida moliyaviy tizimlardan foydalanishning oldini olish to'g'risida"gi Derektivasi (2005-yilning 26-oktabrida ushbu hujjat uchinchi marta yangi tahrirda qabul qilindi) qabul qilingan. 1990-yilda ushbu Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan davlatlar bunday mablag'larni "yuvish"ni o'z hududlarida jinoyat deb e'lon qilish, noqoqnuniy mablag'larni qidirib topish, olib qo'yish va musodara qilish tartibi to'g'risida jinoyatga doir boshqa qonunlarni qabul qilish, bank xodimlari tomonidan o'z mijozlarining omonatlari haqidagi ma'lumotlarni oshkor etish yoki ulardan noinsoflarcha foydalanishga qo'yiladigan barcha cheklovlarni olib tashlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu jinoyatlarni o'z vaqtida ochishga imkon beruvchi bank operatsiyalarini tekshirishlari uchun ruxsat berish majburiyatlarini oldilar. Bank xodimlariga vakolatli organlarga shubhali pul omonatlari va ularning ko'chishi to'g'risida xabar berish majburiyati yuklatilgan.

Ishtirokchi-davlatlar bir-biridan (tegishli sudlov qarori mavjud bo'lishi sharti bilan) muayyan shaxs daromadlarining kelib chiqishi haqida so'rab-surishtirishi mumkin. Bunda, yuqorida

aytilganidek, bank omonatlarini sir saqlash to'g'risidagi qoida amal qilmaydi.

1990-yil 8-noyabrda Strasburg shahrida qabul qilingan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaning 1-moddasida noqonuniy daromad har qanday huquqbuzarlik natijasida olingan turli ko'rinishdagi moddiy foyda ekanligi qayd etiladi. Bu foyda har qanday mulk, ya'ni mulkiy va nomulkiy, ko'char yoki ko'chmas mulklar, shuningdek, bunday mulklar yoki ularning muayyan qismiga egalik huquqidan dalolat beruvchi yuridik hujjatlar yoki qog'ozlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu holatning tahlili shuni ko'rsatdiki, "daromadlar" atamasi "moddiy manfaatlar va unga bo'lgan huquqlar" atamasiga yaqin turadi. Boshqacha aytganda, bu yerda moddiy manfaatlar va unga bo'lgan huquqlarni noqonuniy egallash xususida so'z yuritiladi.

80-yillarning oxirlarida narkobiznes sohasidan olingan "kir" pullarni legallashtirish alohida dolzarb tus oldi. Shunga ko'ra, narkobiznesdan olinadigan noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish Bazel shahrida tashkil etilgan Bank operatsiyalarini nazorat qilish qoidalari va usullari qo'mitasi Xalqaro hisob-kitoblar banki, ya'ni "Bazel qo'mitasi"da boshlanib, ushbu qo'mitaga o'nta davlat – Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, AQSh, Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya, Yaponiya markaziy banklarining vakillari kirdi. 1988-yilning 12-dekabrida bu qo'mita bank tizimi orqali narkotik vositalarni sotishdan olingan pullarni legallashtirishning oldini olishga qaratilgan deklaratsiya – "Bazel deklaratsiyasi"ni qabul qildi. Qo'mitaning faoliyati turli mamlakatlarda xalqaro va milliy darajalarda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashning samarali texnologiyasini yaratishga doir ishlarning faollashuviga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur muammolar keskin va keng miqyosli ekanligi bois Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham unga jiddiy ko'maklashmoqda.

1989-yilda “Katta ettilik” davlatlarining Parijdagi sammiti chogʻida bu sohadagi xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida Moliyaviy Harakatlar Vazifasi Guruhi – FATF (Financial Action Task Force on Money Laundering) tuzildi. FATFning birinchi vazifalaridan biri milliy hukumatlarga jinoiy yoʻllar bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi samarali choralarini oʻrnatgan 40 ta tavsiyanomani ishlab chiqish boʻldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi Vena Konvensiyasi FATF ishining asosiy tizimini tuzib berdi, shu bilan birga mazkur Konvensiyani imzolash va ratifikatsiya qilish FATF tomonidan tuzilgan 40 Tavsiyanomada keltirilgan birinchi tavsiya boʻldi.

1993-yilga kelib BMTning noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi qonuniy chora-tadbirlar ishlab chiqayotgan davlatlarga huquqiy yordam koʻrsatish xalqaro dasturi doirasida “Narkotiklardan olingan pullarni legallashtirishga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi Qonun loyihasi qabul qilindi¹.

BMTning 2000-yil 5-noyabrda qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” Konvensiyasining 6-moddasida har bir ishtirokchi-davlat oʻz ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga binoan jinoyatlardan olingan daromadlarni qayta yuvilishini jinoiy jazoga sazovor sifatida hisoblashi uchun zarur qonunchilik va boshqa choralarini koʻradi, deb belgilangan².

Oʻzbekiston Respublikasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida 2004-yil 26-avgustdagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish

1 Mirzaraimov I.M. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkoralashtirishga qarshi kurashning huquqiy choralari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 8-bet.

2 2000-yil 15-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 5525-sonli rezolyutsiyasi bilan maʼqullangan. Oʻzbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyani Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536–II-sonli Qaroriga asosan ratifikatsiya qilgan.// Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 150-modd.

tirishga va terorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni¹ qabul qilindi.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish munosabatlarini tartibga solishdan iborat.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida² javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, mazkur jinoyat uchun javobgarlik ko‘pchilik xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida ham o‘z aksini topgan.

Masalan, 1978-yilgi Italiya JKning 1990-yilgi “Umumiy xavf tug‘diruvchi mafiya tipidagi va boshqa qilmishlarning oldini olish to‘g‘risida yangi Qoidalari” Qonunida, AQShning 1986-yilda qabul qilingan “Pulni “yuvib tozalash” yo‘li bilan kurash to‘g‘risida”gi Qonunida AQShning Florida shtati Jinoyat to‘g‘risidagi kodeksi (196-moddasida) va “Banklar hamda bank ishi to‘g‘risida”gi Qonunida, Buyuk Britaniyaning “Narkotiklar savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 1986-yilgi hamda “Moliyaviy xizmat to‘g‘risida”gi 1983-yilgi Qonunlarida, Fransiyaning 1987-yilgi Sog‘liqni saqlash kodeksi, 1989- va 1990-yillardagi Bojxona kodeksi va “Moliya organlarning narkobiznesdan olingan pullarni “yuvish” bilan kurashishda ishtiroki to‘g‘risida”gi Qonunida, Belgiyaning 1990-yilgi “Pulni yuvishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “Zaharli, psixotrop, narkotik, dizenfeksiya va sintetik moddalar savdosi to‘g‘risida”gi 1992-yil Qonunlarida va boshqa davlatlar jinoiy qonunchiligida javobgarlik belgilangan³.

Mazkur jinoyat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo‘yish va konfiskatsiya qilish to‘g‘risida Strasburg Konvensiyasi tomonidan og‘ir xalqaro jinoyatlarga kiritilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-yil, 43-son, 451-modda.

2 Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2012-yil 1-iyungacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 149-bet.

3 Saidov A.X. Xalqaro huquq. Chizmalar va ta‘riflarda. O‘quv qo‘llanma. T.2. Mas‘ul muharrir: yu.f.d. professor U. Tojixonov. – T.: Adolat. 2001. – 352-bet.

Kompyuter jinoyatchiligining oldini olish

“Kompyuter jinoyatchiligi” iborasining o‘zi 60-yillarning boshida ilk bor EHMni ishlatish yo‘li bilan sodir etilgan jinoyatchilik xodisasi aniqlanganda Amerika matbuotida paydo bo‘lgan. Hozirgi vaqtda kompyuter jinoyatchiligi tushunchasiga turli xil nuqtai nazarlar mavjud. Ko‘pchilik mutaxassislar nuqtai nazari bilan nisbatan asoslangan va bo‘lishilgan tushuncha bo‘lib, axborotni avtomatlashtirilgan qayta ishlash sohasidagi g‘ayriqonuniy harakatlar hisoblanadi. Birinchi bo‘lib kompyuter jinoyatchiligi tushunchasi 1979-yilda AQShning Dallas shtatida bo‘lib o‘tgan Amerika davlatlari assotsiatsiyasi anjumanida shakllantirilgan. Ushbu davrda kompyuter jinoyatchiligi tarkibining quyidagi shakllari taklif etilgan:

1. Yolg‘on taklif va so‘z berishlar bilan berkingan holda yoki o‘zini boshqa shaxs sifatida ko‘rsatgan holda pul, xususiy mulk yoki xizmat olish maqsadida kompyuter hisoblash tizimi yoki kompyuterlar tarmog‘idan foydalanish yoki foydalanishga harakat qilish;

2. Kompyuter, hisoblash tizimi, kompyuterlar tarmoqlari yoki ulardagi matematik ta‘minot tizimlari, dasturlari yoki axborotlarini o‘zgartirish, zarar etkazish, yo‘q qilish yoki o‘g‘irlash maqsadida sodir etilgan harakatlar.

3. Kompyuterlar, hisoblash tizimlari yoki kompyuterlar tizimlararo aloqani qasddan buzish.

Malumotlarga qaraganda bugungi kunda dunyo miqyosida kompyuter jinoyatchiligining 52 % i pul vositalarini talon-taroj qilish, 16 % i kompyuter asbob-uskunalarini vositalarini buzish va yo‘q qilish, 12 % i dastlabki ma‘lumotlarni almashtirish, 10 % i dasturlar va axborotlarni o‘g‘irlashni tashkil etadi.

2001-yil 23-noyabr kuni Budapeshtda “Kiber jinoyatchilik to‘g‘risida” Xalqaro Konvensiya qabul qilindi. Ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga ko‘ra, har bir ishtirokchi-davlat – kompyuter tizimiga yoki uning qismiga noqonuniy kirishga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan qonun yoki huquqiy ta‘sir choralari qabul

qilishi kerak. Kompyuter tizimiga noqonuniy kirganlik uchun har bir ishtirokchi-davlat ushbu qilmishni jinoyat deb baholashi lozim deb belgilangan.

BMT jinoyatchilikni oldini olish va jinoiy odil sudlov muomalariga bag'ishlangan 2005-yil aprelda bo'lib o'tgan XI Kongressida kompyuter vositalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar va ularning oldini olishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu Kongressda kiber jinoyatchilikning o'ziga xos xususiyatlari va unga qarshi kurashishda kompleks yondashuv ishlab chiqish zarurligi, shuningdek, BMT tomonidan davlatlarga jinoyat qonunlariga kompyuter va axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga javobgarlikni belgilashga oid tavsiyalar berildi. BMT ushbu Kongressi natijasi sifatida qabul qilingan Bankok Deklaratsiyasida ham kiber jinoyatchilikka qarshi kurashda milliy choralar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalasining alohida e'tirof etilgani ushbu muammoning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Ushbu jinoyatga qashi kurashish maqsadida 1981-yil "Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash bilan bog'liq shaxsiy muxofaza to'g'risida"gi Strasburg Konvensiyasi qabul qilingan.

A.A. Ortiqov, A.T. Isaxodjaev va A.V. Shestakovlar kompyuter jinoyatchiligini quydagicha tasniflashni qayd etadilar:

1) jismoniy suiiste'molliklar (anjomlarni buzish, yo'qotish, dastur yoki axborotni yo'q qilish va h.k);

2) operatsion suiiste'mollik (firibgarlik, sanksiyasiz kompyuter ma'lumotlaridan foydalanish);

3) dasturlar bo'yicha suiiste'mollik (virus va zararli dasturlar tarqatish);

4) elektron suiiste'mollik (dasturni noqonuniy o'zgartirish)¹.

Sudanlik mutaxassis Mudavi Muxtar kompyuter jinoyatchiligini ikki toifasini farqlaydi:

birinchidan, kompyuter jinoiy faoliyatni amalga oshirishda yordamlashuvchi vosita sifatida foydalaniladigan jinoyatlar (ma-

¹ A.A. Ortiqov, A.T. Isaxodjaev va A.V. Shestakovlar. Xufyona iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002. – 148–149-betlar.

salan, soxta guvoohnoma yasash, mualliflik xujjatlarini ishlab chiqish va h.k.);

ikkinchidan, kompyuter ma'lumotini o'g'irlash yoki buzish, bankka xujum qilish, qonunga xilof ravishda pul operatsiyalarini amalga oshirish, kredit kartochkalari raqamlarini o'g'irlash maqsadlarida hamda jinoyat quroli sifatida foydalaniladigan jinoyatlar¹.

Ingliz olimi N. Batley esa, kompyuter jinoyatchiligining ikki turini ajratib ko'rsatadi:

birinchisi, kompyuter xafsizligiga qartilgan jinoyatlar (kompyuter uning qurilmalarini o'g'irlash, xakkerlar xujumi va turli-tuman virus va zararli dasturlarni tarqatish va h.k.);

ikkinchisi, kompyuter jinoyat vositasi sifatida foydalaniladigan jinoyatlar (pornografik mahsulotlar va noqonuniy kompyuter dasturlarini o'tkaish, internetda o'zgalar mulkini o'zlashtirish maqsadida firibgarlik qilish, shuningdek, noqonuniy olingan daromadlarni legallashtirish)².

Xaker (ingliz tilida "hack" – yorib tashlash, chopish, buzish degan ma'nolarni anglatadi) – ular haddan ziyod malakali va ixtisosli axborot texnologiyalari mutaxassisi hamda kompyuter texnologiyalarini puxta biluvchi insondir. Ushbu so'z, odatda, kompyuter kiber o'g'risi, ya'ni buzuvchisi deb ham yuritiladi. Xakerlar faoliyati bo'yicha bir necha tiplarni tashkil etadi:

1. Xakerlar-virus (kiber o'g'rilar) yaratuvchilardir.
2. PEN TESTER – har xil saytlarni buzuvchilar (vebxacker)lar.
3. Kracker – dasturiy ta'minotlar, o'yinlar va boshqa shunga o'xshash narsalarni buzuvchilar.
4. Shellcoders & Reverser – butun jahon professional xakerlari³.

Interpol Bosh kotibiyati tomonidan yuqoridagi jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha maxsus kodlashtirish tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, 1991-yilda ushbu tiim avtomatlashtirilgan qidiruv

1 Muxtar M. Киберпреступность.// Владивостокский центр исследования организованной преступности: www.crime.vl.ru.

2 Batley N. Компьютерная преступность. Пер.на кит. Язык Хао Хайян. Изд-во Ляонинского просвещения, 1998.

3 Zuhridin Temirov (infocom.uz)

tizimida joriy etilib, bugungi kunda dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida amal qilib kelmoqda. Bunda kompyuter jinoyatchiligini tavsiflovchi barcha kodlar Q harifi bilan boshlanadi¹.

O'zbekiston Respublikasida kompyuter jinoyatchiligiga qarshi kurashish hamda Axborot texnologiyalari sohasida yuz berayotgan jarayonlarni jinoiy-huquqiy tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kompyuter jinoyatlari uchun javobgarlikni belgilovchi "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" bobi kiritildi². Jinoyat kodeksiga kiritilgan ushbu normalar mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish, jamiyatni axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishdan samarali himoya qilish muammosini hal etish va axborotlashtirish sohasini muhofaza qilishni ta'minlash imkonini beradi.

Pornografik mahsulotlarni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish qilishga qarshi kurash

Ushbu huquqbuzarlikka qarshi xalqaro miqyosida bir qancha hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1923-yil 12-oktabrda Jeneva konferensiyasida tasdiqlangan "Pornografik mahsulotlarni tarqatish va ular bilan savdo qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi Qaror³, shuningdek, BMT Bosh Asambleyasining 1989-yil 20-no-

1 Qarang: Sagdullayev F. Transmilliy jinoyatchilik (jinoyat-huquqiy va kriminologik tahlil) – T.: TDYuI, 2010. – 77-bet.

2 Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 137-sonli Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2007-yil, 52-son, 532-modda.

3 Pornografik nashrlar muomalasini to'xtatish to'g'risidagi Bitim (Parij, 1910-yil 4-may); Bola mehnatining eng yomon shakillarini zudlik bilan taqiqlash to'g'risidagi 182-Konvensiya (Jeneva, 1999-yil 17-iyun). Xalqaro Mehnat Tashkiloti Bosh Konferensiyasining 87-sessiyasida qabul qilingan.

yabrdagi “Bola huquqlari to‘g‘risida“gi Konvensiyada¹ va 2000-yil 25-maydagi “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokol² misol bo‘ladi.

Xalqaro Jeneva Konvensiyasining 1923-yilgi “Pornografiya mahsulotlarini tarqatish va ular bilan savdo qilishga qarshi kurash to‘g‘risida“gi Qarorida jinoyat sifatida quyidagi qilmishlar nazarda tutilgan: pornografik narsalarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish maqsadida tayyorlash va saqlash; mazkur narsalarni davlat chegarasidan olib kirish, olib o‘tish, olib chiqish yoki ularni muomalaga chiqarish; pornografik narsalarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish, prokatga topshirish; mazkur materiallarni olish mumkin bo‘lgan yo‘llarni oshkor qilish va e‘lon qilish.

Pornografik mahsulotlar deganda, uyatsiz mazmundagi asarlar, pornografiya mahsulotlari, ashyolarning tasviri va shakllari, kompyuter dasturlari, kinofilmlar, videofilmlar, fonogrammalar, tele va radio uzatishlar orqali jinsiy aloqa paytini aynan ko‘rsatish yoki tasvirlash (og‘zaki) bilan va shu bilan birga badiiy yoki ilmiy ahamiyati bo‘lmagan holda tayyorlash tushuniladi.

2000-yil 25-maydagi “Bola huquqlari to‘g‘risida“gi Konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokolning 2-moddasiga ko‘ra, “bola pornografiyasi” – bolaning haqiqiy yoki uyushtirilgan ochiq seksual faoliyatdagi ishtirokini har qanday vositalar orqali aks ettiruvchi tasvirni yoki asosan seksual maqsadlar uchun bolaning jinsiy a‘zolarini aks ettiruvchi har qanday tasvirni anglatadi.

1 BMT Bosh Assambleyasining 44/25-Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan, 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757–XII-son Qarori bilan mazkur Konvensiyaga qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyundan kuchga kirgan. // Qarang. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va uning protokollari. O‘zbekcha nashr. Mas‘ul muharrir A.X. Saidov. – T.: 2009. – 72-bet.

2 BMT Bosh Assambleyasining A/RES/54/263-Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan, 2002-yil 18-yanvardan kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Protokolga O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-dekabrda O‘RQ–188-son Qoniniga asosan qo‘shilgan.

Ushbu Protokolning 3-moddasiga ko'ra, har bir ishtirokchi-davlat bu kabi jinoyatlar ("bolalar savdosi", "bola fohishabozligi", "bola pornografiyasi") uchun, ularning og'irlik darajasini hisobga olgan holda, tegishli jazo choralarini ko'zda tutadi.

2011-yilda qabul qilingan 1835-sonli "Zo'rlik ishlatish va ekstremal xarakterdagi pornografik vositalar to'risida"gi maxsus rezolyutsiyada qayd etilishicha pornografiya jinoiy biznesga aylanib bormoqda, uning keng tarqalishida internet asosiy rol o'ynamoqda.

Internet Filter Reviews ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2006-yilda pornografiya industriyasining pul aylanmasi 97 milliard dollarni tashkil qildi. UNICEFning ma'lumotlariga ko'ra, 2008-yilda jami bolalar pornografiyasining 80 % i internet tarmog'ida tarqatilgan. Bugungi kunda jahon miqyosida ushbu jinoyatga qarshi kurashish choralari ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 130-moddasida pornografik mahsulotlarni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishga asos bo'lishi belgilangan.

Bugungi kunda JKning pornografik mahsulotlarni tayyorlash yoki tarqatish uchun javobgarlik belgilangan 130-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Shuningdek, zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun javobgarlikni belgilovchi yangi 130¹-modda¹ bilan to'ldirildi hamda "pornografik mahsulot" va "zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot" atamalariga huquqiy ta'rif berildi.

1 Qarang. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 73–74-betlar.

Jinoyat kodeksiga kiritilgan yuqoridagi o'zgartish va qo'shimchalardan kelib chiqib, MJTKning ham pornografik mazmundagi materiallarni tarqatish uchun javobgarlik belgilangan 189-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Bundan tashqari, kodeks zo'rvonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi yangi 189¹-modda bilan to'ldirildi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi, *avvalo*, inson ongiga salbiy ta'sir etuvchi mahsulotlarni tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxslar faoliyatiga chek qo'yadi, *ikkinchidan*, jamiyat, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qarashlariga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarga qarshi kurashishni yanada kuchaytiradi.

Yuqoridagilarga ko'ra, xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga ega bo'lgan jinoyat – bu bir necha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga tajovuz qiladigan, umumiy xalqaro xavf-xatar keltirib chiqaradigan qilmishdir. Xalqaro ahamiyatga ega jinoyatlarning jinoyat subyekti sifatida jismoniy shaxslar tushuniladi. Jinoyatning obyekti ikki yoki bir necha davlatlar manfaatlaridir. Xalqaro ahamiyatga ega jinoyatlarda faqat jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladi.

III bob.

XALQARO JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNII

3.1. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMT va boshqa tashkilotlarning o'rni

Jinoyatchilikning o'sib ketishi, uning bir davlat hududidan chiqib, xalqaro tus olishi o'z faoliyatini jinoyatchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgan bir qancha xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Jinoyatchilikka, ayniqsa, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMT asosiy rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar atamasi Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Franklin D. Ruzvelt tomonidan taklif etilib, 1942-yili 1-yanvarda "Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasi"da ilk bor ishlatildi¹.

BMT Ustavi San-Fransisko shahrida 1945-yilning 25-apreldan 25 iyunigacha davom etgan, 50 mamlakat vakillari ishtirokidagi xalqaro tashkilot tuzish yuzasidan o'tkazilgan konferensiyada ishlab chiqildi. Ustav 1945-yil 26-iyun kuni 50 mamlakat vakillari tomonidan imzolandi. Polsha davlati keyinchalik 51-mamlakat sifatida ustavni imzoladi. BMT rasmiy ravishda 1945-yil 24-oktabrdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, BMTning Jahon miqyosida jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishda tutgan o'rni ushbu xalqaro tashkilotning Nizomida o'z ifodasini topgan. Jumladan, BMT Ustavining 1-moddasida qayd etilgandek, BMT Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlaydi, davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni ta'minlaydi, xalqaro miqyosda mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va insonparvarlik bilan bog'liq muammolarni yechishda zarur shart-sharoit yaratadi².

1 O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul R.A. Muxitdinov va boshq. Mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat. 2010. – 55–56-betlar.

2 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. / Mas'ul muharrir: A.X. Saidov – T.: 2004.

BMT Ustavining 3-moddasiga binoan, BMT ijtimoiy va gumanitar xarakterdagi xalqaro hamkorlikni tashkil qilish bilan birga, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini o'zining tegishli organlari: BMT Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik kengashi, Xalqaro huquq Komissiyasi, Xalqaro Sud, Kotibiyat, Ijtimoiy va Iqtisodiy kengash, BMTning jinoyatchilikka qarshi kurash kongresslari orqali amalga oshiradi. BMT tashkil topgunga qadar jinoyatchilikka qarshi kurash ishida xalqaro hamkorlikni 1959-yilgacha faoliyat olib borgan xalqaro jinoyat va penitensiar Komissiya tartibga solib kelgan. 1950-yildan boshlab bu Komissiya o'z vakolatini BMTga bergan. O'shandan buyon BMT jinoyatchilikka qarshi xalqaro hamkorlik masalalari bilan ham faol shug'ullanib kelmoqda¹.

Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha BMT Kongresslari bilan bir qatorda, Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha Qo'mita BMTning milliy tadqiqot institutlari va markazlari yordamchi organlari sifatida muhimdir. Jinoyatchilikka qarshi kurashda BMTning ixtisoslashgan muassasalari: Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Xalqaro Dengiz tashkiloti (IMO), Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va boshqalar ishtirok etadilar.

Shuningdek, BMT jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni himoya qilishning xalqaro normalari, tavsiyalari, prinsiplari va standartlarini tartibga solib boradi. Ushbu normalar Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda bayon etilgan talablar asosida ishlab chiqiladi.

BMT Bosh Assambleyasi BMT bosh Kotibining jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning muhim muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, bu muammo bilan BMT Bosh Assambleyasining bir qator qo'mitalari ham shug'ullanadi. Jumladan, Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash qo'mitasi,

1 M. Usmonaliyev, Y. Karaketov. Kriminologiya. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 508-bet.

maxsus qo'mita va komissiyalar, xalqaro terrorizm bo'yicha maxsus qo'mita, Garovga olishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiyani ishlab chiqish bo'yicha maxsus qo'mita va boshqa bir qator ishchi guruhlar kabilardir.¹

BMT Bosh Assambleyasi jahon miqyosida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashga bevosita yo'naltirilgan quyidagi qator hujjatlarni qabul qilgan:

– Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari²;

– Mansabdor shaxslarning huquqiy-tartibotni saqlash borasidagi Axloq Kodeksi³;

– BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi⁴;

– Davlat va mansabdor shaxslarning faoliyatlari bo'yicha xalqaro Kodeks;

– Hokimiyatni suiiste'mol qilish va jinoyat qurbonlari bilan bog'liq odil sudlovning asosiy prinsiplari Deklaratsiyasi;

– Sud organlarining mustaqilligi bilan bog'liq asosiy prinsiplar⁵;

– Advokaturaning tutgan o'rniga oid asosiy prinsiplar.

1 Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T. 2002. – 369-bet.

2 EKOSOSning 1957-yil 31-iyulda qabul qilingan 663 C1-raqamli va 1977-yil 13-maydagi 2076 (I.XXII)-rezolyutsiyalari bilan ma'qullangan. // Права человека: Учебник / Отв. Е.А. Лукашева. – М.: Норма-инфра, 1999. – С. 60–61.

3 1979-yil 17-dekabrda ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi mazkur Kodeksga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi 507–I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 263-modda.

4 BMTning 2003-yil 31-oktabrdagi Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 31-oktabrdagi 58/4-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.) O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ–158-son Qonuniga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son, 349-modda.

5 BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabrdagi 40/32 va 1985-yil 13-dekabrda 40/146-sonli Rezolyutsiyalari bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 30.08. 1997-yil 30-avgustdagi 508–I-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 264-modda.

BMT Bosh assambleyasi 1972-yil 18-dekabrda o'zining 3028-sonli rezolyutsiyasini qabul qildi. Unda BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga o'z mamlakatlaridagi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashning ahvoli haqida Bosh kotibga axborot berib borish taklif qilindi.

Shunga muvofiq, BMTga a'zo davlatlar har besh yilda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashning ahvoli haqida axborot beradilar.

1999-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi ham jinoyatchilik holati haqida BMTga ma'lumot berib bormoqda¹.

BMT Xavfsizlik kengashi muayyan bir davlatga nisbatan jinoyat sodir qilinganligi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi qilingan tajovuz (masalan, agressiya) munosabati bilan o'sha davlatning arizasiga binoan bunday muammoni hal qilishi mumkin. Shuningdek, eng xavfli terrorchilik harakatlari sodir etilganligi masalalarini muhokama etadi.

BMTning Kotibiyati qoshida jinoyatchilikning oldini olish, BMT Bosh Kotibi va Kotibiyatga o'z tavsiyalarini beruvchi maxsus bo'linma mavjud bo'lib, u BMTning jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat odil sudlovi sektori deyiladi. Xalqaro huquq Komissiyasi Insoniyat xavfsizligi va tinchligiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi Kodeksi loyihasi va Xalqaro jinoyat sudi Statutini tayyorladi. Ular eng xavfli xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi. Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorligini muvofiqlashtirish BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashiga yuklatilgan. EKOSOS doirasida bir qancha yordamchi organlar masalan, Giyohvandlik vositalari bo'yicha Komissiya, Xalqaro terrorizm bo'yicha Komissiya, Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha qo'mitalar faoliyat ko'rsatmoqda.

1 Q.R. Abdurasulova. Kriminologiya. Darslik. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – 118–119-betlar.

1950-yilda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tarkibida Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bildirish bo'yicha ekspertlar Qo'mitasi ta'sis etildi. 1971-yilda u jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish Qo'mitasi, 1993-yilda esa, Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat adliyasi bo'yicha Komissiya deb qayta nomlandi. Mazkur nufuzli tashkilot jinoyatchilikka qarshi yanada samarali kurash olib borish va huquqbuzarlarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lishga qaratilgan tavsiya va takliflarni taqdim etadi. Ushbu Komissiya tarkibiga BMTga a'zo bo'lgan 54 ta davlat vakillari kiritilgan va ular 3 yil muddatga saylanadi. BMT Assambleyasi tomonidan makur organ zimmasiga har 5 yilda bir marta Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha BMT kongresslarini tayyorlash vaifasi yuklatilgan.

Komissiya o'z faoliyatida:

- BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish kongresslarini tayyorlash;

- BMTning Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha olib boradigan tadbirlarini rejalashtirishni belgilash;

- davlatlarning suveren tengligi va ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplari asosida, BMTning vakolatli organlariga Jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha dasturlarni tayyorlash va tasdiqlash uchun taqdim etish;

- jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari bo'yicha shug'ullanayotgan BMT organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun EKOSOSga yordam ko'rsatish, shuningdek, BMTning Bosh kotibiga va boshqa organlariga ma'ruzalar, tavsiyalar va qarorlar tayyorlash va taqdim etish;

- BMTga a'zo davlatlarning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish sohasida yig'ilgan tajribalarini almashishga ko'maklashish;

- jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlik asosini tashkil etuvchi, jumladan, jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilikni qisqartirish bo'yicha murakkab va muhim masalalarni muhokama qilish;

- jinoyatchilikning oldini olish va jinoyiy ishlarni ko'rib chiqishda odil sudlovlarni amalga oshirishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqish.

Ushbu komissiya BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 51-sessiyasida "Jinoyatchilik va jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabul qildi.

Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha Qo'mitaning muhim xizmati shundaki, u tomonidan BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklarga nisbatan munosabati bo'yicha o'n ikkita Kongressi (1955–2010-yillar) o'tkazilgan.

BMTning xalqaro jinoyatchilik bilan kurashish va jinoyat odil sudlovi Kongresslari

Birinchi Kongress 1955-yilda Shvetsariyada (Jeneva) o'tkazilgan bo'lib, unda jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari kabi muhim masalalar ko'tarildi. Ushbu Kongressda Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari¹ qabul qilingan.

1960-yilda Angliyadagi **Ikkinchi Kongress** voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning yangi shakllariga bag'ishlangan edi.

Uchinchi Kongress 1965-yilda Shvetsiyada o'tkazildi. Unda jamiyat hayotidagi ijtimoiy sharoitda jinoyatchilikka oid muammolar ko'rib chiqildi.

To'rtinchi Kongress 1970-yilda Yaponiyada o'tkazildi. Bunda asosan jinoyatchilikning rivojlanishiga ilmiy-texnikaning ta'siri haqidagi masalalarga e'tibor berildi. Bundan tashqari, ushbu kongressda terrorizmga qarshi kurash muammolariga bog'liq bo'lgan masalalar muhokama qilindi. Unda jumladan, samolyotlarni qo'lga olish, odam o'g'irlash hisobiga hukumatdan noqonuniy yon bosishlarni talab etish kabi yangi jinoyatchilikning turlari haqida so'z bordi.

¹ EKOSOSning 1957-yil 31-iyulda qabul qilingan 663 C1-raqamli va 1977-yil 13-maydagi 2076 (I.XXII)-rezolyutsiyalari bilan maqullangan. //Права человека: Учебник / Отв. Е.А. Лукашева. – М.: Норма-инфра, 1999. – С. 60–61.

1975-yilda Shvetsariyada bo‘lib o‘tgan **Beshinchi Kongressda** “Xalqaro va davlat ichki jinoyatlarining ko‘lami va shakllarining o‘zgarishi” masalasi muhokama qilindi. Kongressda uyushgan jinoyatchilikka va terrorizmga qarshi kurash, ekstraditsiya, o‘zaro hamkorlik hamda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash borasidagi xalqaro konvensiyalarning yangi takomillashgan metodlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan bir nechta tavsiyalar qabul qilindi.

1980-yilda Venesuelaning Karakas shahrida bo‘lib o‘tgan **Oltinchi Kongressda** “Jinoyatchilikning ogohlantirish sohasiga oid strategiya” tushunchasi birinchi marta qo‘llanildi. Bu tushuncha ijtimoiy nomaqbul hodisa va harakatlardan ogohlantirishga qaratilgan kompleks dasturlar sifatida belgilandi.

Yettinchi Kongress 1985-yilda Italiyaning Milan shahrida bo‘lib o‘tdi. Kongress “Jinoyatchilik va jinoyatchilikni ogohlantirishning yangi turlari rivojlanish kontekstida: kelajakdagi vazifalar” mavzusida o‘tkazilgan bo‘lib, unda asosan, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka oid muammolar ko‘rib chiqildi.

Sakkizinchi Kongress 1990-yilda Kubaning Gavana shahrida bo‘lib o‘tdi. Ushbu kongressdagi eng muhim voqealardan biri bu – Bosh Assambleyaning xalqaro hamkorlik borasida “Ushlab berish bo‘yicha Namunaviy shartnoma”ning hamda “Jinoiy odil sudlov borasida o‘zaro hamkorlik to‘grisida Namunaviy shartnoma”ning qabul qilinishi bo‘ldi.

To‘qqizinchi Kongress 1995-yilda Misr poytaxti Qohira shahrida “Ko‘proq adolat, kamroq jinoyat: hamma uchun xavfsizdir” shiori ostida o‘tkazildi. Bu kongressda transmilliy jinoyatchilik muammolari, atrof-muhitni saqlash, transmilliy iqtisodiy uyushgan jinoyatchilikning xalqaro hamkorligi va milliy tajribalar haqida so‘z bordi.

2000-yilda 10–17-aprel kunlari Avstriyaning Vena shahrida bo‘lib o‘tgan **O‘ninchi Kongressda** jinoyatchilikni ogohlantirish va huquqbuzarlarga murojaat borasidagi transmilliy jinoyatchilik masalalari ko‘rildi. Bundan tashqari, u Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik masalalarini ham o‘z ichiga oldi.

O‘n birinchi Kongress 2005-yil 18–25-aprel kunlari Bangkokda bo‘lib o‘tdi. Ushbu kongressning kun tartibi beshta asosiy bandni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha samarali choralar ko‘rish, terrorizmga va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik, korrupsiya – XXI asr tahdidi, iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha masalalar ko‘rildi.

O‘n ikkinchi Kongress 2010-yilda Braziliyaning Salvador shahrida o‘tkazildi. Ushbu kongressning kun tartibidan bolalar, yoshlar va jinoyat, terrorizm, odam savdosi va migrantlar kontrabandasi, kiberjinoyatchilik, jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik masalalari o‘rin oldi.

Bulardan tashqari Kongresslarda davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorligiga bag‘ishlangan prinsipial masalalar ko‘rib chiqildi va ular yuzasidan muhim tavsiyalar qabul qilindi. Kongresslar har besh yilda o‘tkaziladi. Kongress ishida qatnashuvchi davlatlar jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha mutaxassislarni delegat qilib jo‘natadilar. Bundan tashqari, Kongress ishida BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan va boshqa xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etadi.

Kongress vakolatlariga quyidagilar kiradi: jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha hamkorlikning bosh yo‘nalishlarini belgilash; bu muammolarni hal etish bo‘yicha dastur va tavsiyalar ishlab chiqish; jinoyatchilikning tarqalishiga qarshi kurash va uning oldini olish bo‘yicha BMTga a‘zo davlatlar hamkorligini muvofiqlashtirish va tajriba almashishiga yordam berish, bu sohadagi xalqaro hamkorlikning asosiy prinsiplarini belgilash.

Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashishga hamkorligini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo‘yicha Qo‘mitasining o‘rni muhim ahamiyat kasb etib, Qo‘mita 27 nafar ekspertdan iborat bo‘lib, IIKning Ijtimoiy rivojlanish Komissiyasiga hisobot beradi. Qo‘mita sessiyasi ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Qo‘mitaning sessiyasida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi BMTning boshqa organlari, ixtisoslashgan tashkilotlarning vakil-

lari, Interpol, Yevropol shuningdek, xalqaro nohukumat tashkilotlarning vakillari ishtirok etadi.

Qo‘mitaning asosiy vazifalari:

1) jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha BMT Kongresslari sessiyasini tayyorlash;

2) jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha xalqaro hamkorlik dasturini tayyorlash;

3) jinoyatchilikning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi BMT organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha BMT Bosh kotibiga va EKOSOSga yordam ko‘rsatish hisoblanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish masalalari bilan BMT Bosh kotibi ham shug‘ullanadi. U BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash choralarini to‘g‘risida ma‘ruzalar qiladi¹.

BMTning jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari bilan shug‘ullanuvchi organlari orasida “Milliy korrespondentlar instituti” alohida o‘rinni egallaydi. 1950-yili tashkil topgan va davlatlar milliy yurisdiksiya sohalarida yuqori kvalifikatsiyaga ega shaxslarni ushbu organga o‘zlarining vakili qilib tayinlaydilar. Korrespondentlar BMT organlariga, BMT Bosh kotibiga ularning davlatlari jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashda qo‘llanayotgan usul va vositalar, amaliy choralar haqida axborot beradi. Shuningdek, o‘z mamlakatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlariga xalqaro miqyosida jinoyatchilikka qarshi olib borilayotgan kurashning bosh yo‘nalishlari haqida axborot beradi².

BMT qoshida jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan munosabatda bo‘lish masalalari bo‘yicha bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari tuzilgan bo‘lib, ular quyidagilardir: Xalqaro miqyosda jinoyatchilikning oldini olish Markazi (Vena markazi); BMTning jinoyatchilik va odil sudlov bo‘yicha Rim

1 Batafsil qarang: BMT Ustavi. XV bob, 97–101 moddalar. Qarang: Международное право (Под. ред. Н.Т. Болотовой) – М.: 1987. – С. 334.

2 Odilqoriyev X.T. Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq), Darslik. – T.: 2002. – 370–371-betlar.

mintaqaviy ilmiy tadqiqot instituti; Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish bo'yicha Tokioda joylashgan Osiyo va Uzoq Sharq instituti, Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha Xelsinki instituti, Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish bo'yicha BMTning Afrika instituti; Xavfsizlik masalalari bo'yicha El-Rioda joylashgan Arab ilmiy-tadqiqot va o'quv markazi, Avstraliya (Kanberra) kriminologik instituti, Jinoyat qonunchiligi islohotlari va jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni olib borish Kanada (Vankuver) Xalqaro markazi, BMTning Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan munosabatda bo'lish bo'yicha Instituti (YUNLAI). Bu institut va markazlar jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali choralarini ishlab chiqish va o'z faoliyatlarini xalqaro darajada muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro sud. Xalqaro sud BMTning olti asosiy organlaridan biri bo'lib, 1946-yilda, tinchlik va barqarorlikka tahdid solishga sabab bo'luvchi huquq va adolatlilik prinsipi asosida tinch yo'llar bilan hal etilishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Xalqaro Sud Statuti BMT Nizomining XIV bobida¹ shuningdek, Dumbarton – Oks Konferensiyasida (1944-yil) Vashington yuristlar qo'mitasida hamda 1945-yilgi San Fransisko Konferensiyasida ishlab chiqilgan.

1945-yilning 26-iyunida imzolaniib, 24-oktabrdan kuchga kirgan statutga muvofiq Xalqaro Sud BMTning asosiy Sud organi hisoblanadi. Mazkur sud BMT Ustavining bir qismi hisoblangan Statut hujjati hamda o'z reglamentiga asosan faoliyat yuritadi.

Xalqaro sud 15 ta mustaqil sudyadan iborat bo'lib, ular fuqaroliklaridan qat'i nazar, o'z mamlakatlarida oliy sud lavozimlariga tayinlanishlari uchun talab etilgan oliy axloqiy talablarga javob beruvchi va xalqaro huquq sohasida tanilgan yuristlar orasidan saylanadi.

¹ Qarang. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi, 1945-yil 24-oktabr. (XIV bob, 92–96-moddalar)

Sudyalar BMTning Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyasi a'zolari tomonidan qayta saylanish huquqiga ega bo'lgan holda to'qqiz yil muddatda saylanadi. Mazkur organlar ovoz berish jarayoni bir-birlaridan mustaqil ravishda bir vaqtda o'tkaziladi. Mazkur saylovda yutib chiqish uchun nomzod har ikkala organning ko'pchilik ovozigacha ega bo'lishi zarur. Sud tarkibida huquqiy vorislikni ta'minlash maqsadida 15 nafar sudyaning vakolat muddati bir vaqtda tugatilmaydi. Har uch yilda sud a'zolarining birdan uch qismi o'rtasida saylovlar o'tkaziladi.

Xalqaro sud tarkibida bir mamlakatning ikki fuqarosi bo'lishi mumkin emas. Sud qayta saylash huquqini o'zida saqlab qolgan holda yashirincha ovoz berib, saylovchilarning mutlaq ko'pchilik ovozi bilan yetti yillik muddatga o'z Kotibini saylaydi. Kotib o'rinbosari ham xuddi shu tartibda saylanadi¹.

Xalqaro sudning o'n besh a'zosi bilan birgalikda alohida ishlar ko'rilayotgan payti ("ad hoc") deb ataluvchi sudyalardan ham ishtirok etishlari mumkin.

Sud tarkibi shunday tuzilganki, unda dunyoning barcha mintaqalar vakillari, jumladan, Afrika qit'asidan uch, Lotin Amerikasidan ikki, Osiyodan uch, G'arbiy Yevropa, shuningdek, Kanada, AQSh, Avstraliya va Yangi Zelandiyadan besh va Sharqiy Yevropadan (Rossiya davlati bilan) ikki nafardan a'zolari mavjud.

Xalqaro sud Gaaga shahrida joylashgan.

Xalqaro sud Qarorlar qabul qiladi. Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashining so'roviga asosan Konsultativ (maslahat) xulosalar tayyorlaydi, o'z qarorlarini sharhlaydi.

BMT Xalqaro sudi o'zi tashkil etilgan vaqtdan boshlab to 1998-yilga qadar 72 ta ishni ko'rib chiqdi va maslahat xulosasini berdi².

1 Sattorov D. Xalqaro sud. Xalqaro jinoyat sudi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 4–6-betlar.

2 R.A. Tuzmuhammedov, R.T. Hakimov. Xalqaro huquq asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998. – 82–85-betlar.

Sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishlarning yarmidan ko'pi hududiy va chegaraviy nizolar bilan bog'liq bo'lib, ko'pchiligi dengiz huquqiga ega bo'lgan nizo va masalalarga taalluqlidir.

Sud amaliyotida uchragan muhim nizolar bu kuch ishlatishni noqonuniy deb e'tirof etish ishlari sanaladi. Shuningdek, mazkur holda tijorat sohasiga oid nizolarni hal etish bilan bog'liq hamda muayyan shaxs huquqiga oid masalalar yuzasidan ham murojaat etiladi.

Xalqaro sud vakolatlari sud statutining II bobi (34–38-moddalar) hamda IV bobida belgilab qo'yilgan.

Sud jarayoni 2 qismda – yozma va og'zaki tarzda o'tadi. Yozma nizolashayotgan tomonlarning holatlari bayon qilib berilgan memorandum va aksilmemorandumlarni sudga topshiradigan axborotlardan iborat bo'ladi; og'zaki nizolashuvchi tomonlarning vakillari, ularning advokatlari, guvohlari ekspertlarning fikrini tinglashni o'z ichiga oladi¹.

Xalqaro sudning qarori ishda qatnashuvchi tomonlar uchun majburiydir. Xalqaro Sud BMTning asosiy sud organi bo'lib, ishtirokchi-davlatlarning ishlarini ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan. Shu sababli ham BMTning xalqaro sudi jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning to'laqonli subyekti bo'la olmaydi.

BMTning odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standart qoidalari

BMT odil sudlovni amalga oshirish sohasida ham bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar ishlab chiqqan. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. 1985-yil BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha VII kongressi Sud or-

1 Abdulla Mamatqulov. Xalqaro huquq. Darslik. – T.: Adolat, 1997. – 243–246-betlar.

ganlari mustaqilligining asosiy prinsiplarini¹ qabul qilgan. Ushbu xalqaro hujjat 6 bo‘lim 20 ta banddan iborat bo‘lib, sud xodimlari faoliyatining barcha tomonlarini qamrab olgan: qonuniylik; odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi; sudyalarning mustaqilligi; sudyalarning daxlsizligi; malaka, tanlov, va tayyorlov; sud ishlarini yuritishda tortishuvlik prinsiplari o‘z ifodasini topgan. Ushbu prinsiplar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun² va boshqa bir qator qonun hujjatlarida³ o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi belgilangan. Konstitutsiyaning 112-moddasida: “Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘y-sunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi”, – deb belgilangan.

1 BMTning Milan shahrida 26-avgustdan 6-sentabrgacha bo‘lib o‘tgan Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha VII kongressida qabul qilingan hamda BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabr-dagi 40/32 va 1985-yil 13-dekabr-dagi 40-146-rezolyutsiyalari bilan ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu hujjatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 30.08. 1997-yil 30-avgustdagi 508–I-sonli Qaroriga asosan qo‘shilgan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 264-modda.

2 “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni./ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, 162–II-son.

3 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: (2013-yil 1-fevralgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2013. – 728-bet.

2. Mahbuslar bilan muomalada bo'lishning minimal standart qoidalari. BMTning 1955-yil Jenevada bo'lib o'tgan Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish bo'yicha birinchi kongressi Mahbuslar bilan muomalada bo'lish hamda penitensiar muassasalarni boshqarishning minimal standart qoidalarini qabul qilgan. 1971-yili Bosh Assambleya bu qoidalarni penitensiar va axloq tuzatish muassasalarini boshqarish sohasida samarali qo'llanilishini hamda bu qoidalarni milliy qonun hujjatlariga kiritish masalasini ijobiy tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlashni tavsiya qilgan.

3. Tibbiyot etikasi prinsiplari. 1976-yili Bosh Assambleya Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga har qanday shaklda ushlab turilgan yoki turmaga qamalgan shaxslarni himoya etish maqsadida tibbiyot etikasi kodeksining loyihasini tayyorlashni taklif etgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro ilmiy-tibbiy tashkilotlar kengashi va Jahon tibbiyot assambleyasi yordamida BMT Bosh Assambleyasi "Mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarni qiynoq hamda jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlaridan himoya qilishda sog'liqni saqlash xodimlarining, ayniqsa shifokorlarning roliga taalluqli tibbiyot etikasi prinsiplari"ni ishlab chiqdi va 1982-yil 18-dekabrda qabul qildi.

Ushbu hujjatda 6 ta asosiy tibbiyot etikasi prinsiplari berilgan bo'lib, hujjatda mahbuslar, ushlab turilgan shaxslarni qiynoqqa solishdan va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlaridan himoya qilishda sog'liqni saqlash xodimlarining, ayniqsa, shifokorlarning roliga alohida urg'u berilgan. Xususan, mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarga tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlovchi sog'liqni saqlash xodimlari, ayniqsa, shifokorlar ularning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini muhofaza qilishlari hamda ularni xuddi mahbus bo'lmagan yoki hibsga olinmagan shaxslarga nisbatan bo'lgani kabi sifat va saviyada davolashlari shart deb belgilanadi.

BMT Bosh Assambleyasi 1983-yilda barcha mamlakatlarining hukumatlarini ushlab turish va turma qamog'ida saqlash bilan shug'ullanuvchi muassasalarning tibbiyot xodimlari va xizmatchilari bu prinsiplarga rioya etishini ta'minlashda ko'maklashishga chaqirgan.

Mamlakatimizda har bir shaxsning tibbiy xizmatdan foydalanishi kafolati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida: "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega", – deb belgilangan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida mahkumlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 9-moddasida mahkumlarning barcha asosiy huquqlari qatorida ularning "sog'lig'ini saqlash, shu jumladan, tibbiy xulosaga ko'ra ambulatoriya, poliklinika va statsionar tibbiy yordam olish" huquqi ham belgilangan. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 12-bobi "Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish" deb nomlanib, JIKning 87-moddasiga¹ muvofiq, mahkumlar tibbiy-sanitariya xizmatidan foydalanadi.

4. BMTning voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli minimal standart qoidalari. BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala bo'lish bo'yicha yettinchi kongressi 1985-yilda BMTning voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli minimal standart qoidalarini tayyorlagan hamda qabul qilish uchun Bosh Assambleyaga tavsiya etgan. Ba'zan "Pekin qoidalari" deb ham yuritiladigan bu hujjatdagi qoidalar jinoiy javobgarlikning eng yosh chegarasi, voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshi-

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi: (2012-yil 1-fevralgacha o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 43-bet.

rish maqsadi, voyaga yetmaganlarga nisbatan samarali, adolatli va muruvvatli odil sudlovni amalga oshirishning xususiyatlari hamda inson huquqlari sohasida bu borada qo'llanilishi lozim bo'lgan prinsiplar kabi masalalarga daxldordir. Bu qoidalar voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish va sudga ko'rib chiqishga taalluqli masalalarni, shu jumladan, ularni sudga qadar qamoqda saqlash masalasini ham qamrab oladi. Mazkur hujjatda voyaga yetmagan shaxslar ishida jazoni ijro etish muassasalariga yuborishni nazarda tutuvchi choralardan imkon qadar kamroq foydalanish tavsiya etiladi. Standart qoidalarda jazoni ijro etish muassasalariga yuborilgan, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning himoya etilishini ta'minlaydigan normalar ham bor. Bosh Assambleya 1985-yilda mazkur qoidalarni qabul qilgan hamda davlatlarga tegishli barcha hollarda ularni qo'llashni hamda bu qoidalarning mazmun-mohiyatini tegishli organlar va umuman olganda, aholining e'tiboriga yetkazishni taklif etgan.

Odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar qatorida "Mansabdor shaxslarning huquqiy tartibotni saqlash borasidagi Axloq Kodeksi", "Qanday shaklda bo'lmasin, hibsga yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari turkumi", "Yuristlarning roliga taalluqli asosiy prinsiplar", "Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli rahbariy prinsiplar"lari muhimdir.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasida BMTning qo'mitalari (shartnomaviy organlari) faoliyati ham muhim hisoblanadi. Ulardan: Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita, Irqiy kamsitishlarni tugatish bo'yicha qo'mita, Qiynoqlarga solishga qarshi qo'mita, Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita, Mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita, Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita, Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mitalar faoliyati ahamiyatlidir.

BMTda maslahatchi maqomiga ega bo'lgan xalqaro nohukumat tashkilotlar

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlik subyektlari orasida nohukumat tashkilotlaridan: Jinoyat huquqi xalqaro uyushmasi; Xalqaro kriminologik jamiyat, Ijtimoiy himoya xalqaro jamiyati hamda Xalqaro va penitensiar fondi faoliyatini qayd etib o'tish zarur.

Jinoyat huquqi Xalqaro Assotsiatsiyasi 1924-yili tashkil topgan. U jinoyatchilik, uning sabablarini va unga qarshi kurash vositalarini o'rganadi, jinoyat-huquqiy qiyosiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi, jinoyat huquqi muammolari bo'yicha xalqaro kongresslar o'tkazilishini tashkil qiladi (besh yilda bir marta), BMT, YUNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarga maslahatlar beradi¹.

Xalqaro ijtimoiy himoya qilish xalqaro jamiyati – jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi. Bunda jamiyatni jinoyatchilardan himoya qilish maqsadida jinoyatchilarning g'ayriijtimoiylashish omillarini o'rganadi. Ularning asosiy vazifasi insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishidir. Bu jamiyat 1942-yili Lej (Belgiya)da tashkil qilinib, BMTda maslahat statuti bilan qatnashadi. Uning tarkibiga 50 dan ortiq davlatlardan yuristlar, sotsiologlar, jinoyat huquqi, xalqaro jinoyatchilik, kriminologiya, penitensiar huquq, psixiatriya, ruhshunoslik, tibbiyot va boshqa mutaxassisliklarning vakillari kirgan. Xalqaro ijtimoiy himoya qilish jamiyati besh yilda bir marta kongress o'tkazadi.

Xalqaro kriminologik jamiyat 1934-yilda tashkil etilgan bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlikni ta'minlash bilan bevosita shug'ullanadi. U kriminologiya sohasidagi milliy institutlar va mutaxassislarni birlashtiradi. Xalqaro kriminologik jamiyat EKOSOS, BMT va YUNESCO maslahatchisi maqomiga ega.

1 Q.R. Abdurasulova. Kriminologiya. Darslik. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – 120–121-betlar.

Mazkur jamiyat xalqaro miqyosda jinoyatchilikning sabablarini o'rganadi, kriminologik kongresslar, seminarlar, kollokviumlar tashkil qiladi, ularning materiallarini e'lon qiladi, milliy kriminologik institutlarga yordam ko'rsatadi, kriminologiya fanini rag'batlantirish uchun stipendiya va mukofotlar ta'sis etadi va tayinlaydi.

Demokratik yuristlarning xalqaro assotsiatsiyasi 1946-yili tuzilgan bo'lib, o'zining tarkibiga turli yo'nalishdagi huquqshunoslarni birlashtirgan. Uning Nizomida bu assotsiatsiyaning asosiy vazifasi va prinsiplari belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

– butun dunyodagi yuristlar va yuristlar birlashmalari o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yishga va o'zaro fikr almashishga yordam berish va ular o'rtasida bir-birini tushunish va o'zaro yaxshi niyatni rivojlantirishga ko'maklashish;

– BMT Ustavida yozilgan vazifalarni amalga oshirishda hamkorlik qilish va yuristlarning birgalikdagi harakatini ta'minlash vazifalari kiradi.

Xalqaro demokrat yuristlar assotsiatsiyasi xalqaro yoki milliy huquqlar qo'pol ravishda buzilgan joylarga taftish komissiyasini ham yuborishi mumkin. Bunga misol qilib komissiyaga 70-yillarda Braziliyaga yuborilgan Demokratik yuristlar xalqaro assotsiatsiyasi bilan bir qatorda, yurist ayollarning xalqaro federatsiyasi, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sudlarning xalqaro assotsiatsiyasi va hokazolar singari hukumat tashkilotlarining faoliyati ham tahsinga sazovordir.

Shuningdek, Gumanitar (masalan, Xalqaro amnistiya – mahkumlarga yordam berish assotsiatsiyasi) va yuridik (Demokratik yuristlar xalqaro Assotsiatsiyasi bilan bir qatorda Yurist-ayollarning xalqaro Federatsiyasi, Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sudlarning xalqaro Assotsiatsiyasi va hokazolar singari) nohukumat tashkilotlarning faoliyati ham tahsinga sazovordir.

3.2. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda Shanxay hamkorlik tashkilotining o'рни

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoda yangi tahdidlarga qarshi kurashish, ularning oldini olish va ularga barham berish yo'lida ko'p tomonlama hamkorlik qilish, shuningdek, mintaqadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi tashkilotning faoliyat yuritishi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bu borada dastlab "Shanxay beshligi", "Shanxay forumi" doirasida mintaqa davlatlarining hamkorlikdagi faoliyati va keyinchalik bu tashkilot negizida Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning barpo etilishi ayni muddao bo'ldi¹.

Bizga ma'lumki, "Shanxay beshligi" tuzilmasi 1996-yil 26-aprelda Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari rahbarlarining Shanxay shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvida tuzildi va a'zo davlatlar o'rtasida chegaradosh hududlarda o'zaro ishonch va suverenitetni mustahkamlash, buning uchun harbiylar sonini kamaytirish tuzilmaning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

2001-yil 14–15-iyun kunlari Shanxayda oltita davlat – Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari uchrashuvida "Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida"gi Deklaratsiya imzolangan paytdan e'tiboran ushbu tashkilot rasman "Shanxay hamkorlik tashkiloti" deb atala boshlandi va O'zbekiston muassis davlatlardan biri hamda teng huquqli a'zo sifatida unga qo'shildi.

ShHTning 2002-yil iyulda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan sammiti chog'ida tashkilotning ta'sis hujjati – Xartiyasi qabul qilindi. Shu tariqa tashkilot xalqaro huquqiy maqomga ega bo'ldi.

¹ Tursunov A.S. Shanxay hamkorlik tashkiloti – barqarorlik va hamkorlik timsoli. O'zbekiston va ShHT: mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2011-yil 29-aprel. – T.: TDYuI. – 55-bet.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi ShHTga a'zo bo'lgan vaqtdan buyon bu tashkilotni mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, ko'ptomonlama hamkorlikni amalga oshirish mexanizmi sifatida qarab kelmoqda. Aytish joizki, "Shanxay beshligi" tuzilmasi aynan O'zbekiston Respublikasining unga a'zo bo'lib kirganidan keyingina to'laqonli mintaqaviy xavfsizlik tizimiga aylandi¹.

Xususan, O'zbekiston raisligi davrida BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning mamlakatimizga tashrifi chog'ida 2010-yil aprel oyida Toshkentda BMT va ShHT kotibiyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolanganligi muhim voqea sifatida tarixda qoldi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining ahamiyati va faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov fikr bildira turib, shunday degan edi: ***"Biz Shanxay hamkorlik tashkilotini tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, birinchi galda, xalqaro terror, diniy ekstremizm, bosqinchi ayirmachilik va narkobiznes kabi mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xavf-xatarga qarshi turishda ochiq, o'zaro foydali sheriklik va ko'p tomonlama hamkorlikka qaratilgan ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi, deb bilamiz"***².

Darhaqiqat, hozirda jahonda xalqaro terrorizmning keskin tus olib borayotgani haqiqatdir. Ushbu xalqaro muammoga qarshi kurashish, uning nazariy-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan jamiyat, davlat oldida turgan eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masala bo'lib hisoblanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida terrorizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurati paydo bo'ldi.

1 Евдокимов Е. Шанхайская организация сотрудничества становится главным механизмом обеспечения стабильности в Центральной Азии. // www.mfa.kz/russian/art_15.0502.htm.

2 Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 375–376-betlar.

Shu bois, ShHTning 10 yildan ortiq faoliyatida 6 ta a'zo-davlatlarning (Rossiya, Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston) tinchlik va xavfsizligiga tahdid soluvchi vaziyatlarni tartibga solishda birgalikda olib boradigan harakatlarini ishlab chiqishga va ularga javob bera oladigan birdamlikni mustahkamlashga erishdi. Bundan tashqari, ShHT faoliyati davomida, ko'p tomonlama o'zaro yordam mexanizmini, prinsiplarni shakllantirish va salmoqli xalqaro-huquqiy baza yaratilishiga asos bo'ldi.

Buning isboti sifatida, 2001-yildagi Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay Konvensiyasi¹ni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu Konvensiya asosida 2002-yil 7-iyunda ShHTning ishtirokchi-davlatlari Mintaqaviy Aksilterror Tuzilmasi (MATT)ni tashkil etish to'g'risida Shartnoma imzoladilar. ShHT a'zo-davlatlarining fikriga ko'ra, hamma aksilterror operatsiyalari BMTning Nizomidagi maqsad va prinsiplariga hamda boshqa umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga javob bera oladigan bo'lishi lozim.

ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyatining samaradorligini ta'minlash va tashkilotga a'zo-davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida ShHT Moskva sammitida tashkilotning ushbu tuzilmasi Ijroiya qo'mitasini Toshkentda joylashtirishga kelishib olindi.

2004-yilning 16–17-iyunidagi ShHTga a'zo-davlatlar rahbarlarining Toshkent sammiti tashkilot rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu sammitda ShHTning tizimli shakllanishi yakunlanib, ShHT mintaqaviy aksilterror tuzilmasining shtab-kvartirasi rasman ochildi².

1 Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay Konvensiyasi. Mazkur Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 30-avgustdagi 274–II-sonli Qaroriga asosan ratifikatsiya qilgan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 185-modda.

2 Sharipov Murod Mirza Sharifjon o'g'li. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning ahamiyati. Avtoref. dis.. s.f.n. – T.: 2007. – 14-bet.

Shunga binoan, 2004-yilning 1-yanvaridan boshlab poytaxtimizda ushbu qo‘mita faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu tuzilma doimiy faoliyat yurituvchi yuridik shaxs maqomiga ega organ hisoblanadi. MATT nomidan Ijroiya qo‘mitasi shartnomalarni imzolash, ko‘char va ko‘chmas mulklarga ega bo‘lish va undan foydalanish, bank hisob raqami ochish va yuritish, sudga da’vo bilan murojaat qilish va sudda ishtirok etish huquqlariga egadir¹.

Bundan tashqari, ShHT doirasida jinoyatchilikka qarshi kurash borasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash asosiy o‘rinni egallaydi. ShHT ham o‘z faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan giyohvandlikning oldini olish va giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash sohasida xalqaro hamjamiyat kuchlarini birlashtirishga erishdi. Shunday ekan, ShHT hozirda BMT, YeXHT, MDH va boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan “asr vabosi” deb e’tirof etilayotgan giyohvandlik moddalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash eng dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Zotan, ijtimoiy salbiy illatlardan biri bo‘lgan giyohvandlik eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, nafaqat respublikamiz, balki butun dunyoda keng jamoatchilikni jiddiy tashvishga solmoqda. Ushbu muammoning qay tartibda o‘z yechimini topishi butun insoniyat ertasini belgilab berishi uning ko‘lami haqida tushuncha beradi. Shu sababli giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashni tashkil etish butun jahon hamjamiyatidan barcha kuch va vositalarni birlashtirishni taqazo etmoqda. Insoniyat ertasi uchun giyohvandlik muammosining nechog‘li dolzarb ahamiyat kasb etishini ta’kidlar ekan, Prezidentimiz I.A. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida: ***“Biz ana shu illatga qarshi kurashda keng ko‘lamli hamkorlik qilish taraﻓdorimiz. Jahonda ishlab chiqarilayotgan giyohvand moddalarning talay-***

1 www.ecrats.com.

*gina qismi Markaziy Osiyoda tayyorlanganligi yoki uning orqali tashib o'tilayotganligi hech kimga sir emas. Narkobiznesning tranzit yo'nalishlari bir mintaqada jamlanishining o'ziyoq mana shu dahshatli hodisani tugatishda jahon hamjamiyati o'z imkoniyatlarini jamlab ishga solishi uchun yetarli asos bo'ladi. O'zbekiston barcha manfaatdor mamlakatlar va tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik qilishga tayyor*¹, – degan edi.

Giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi kengayib borayotganligi ShHT a'zo-davlatlari tomonidan ShHTning Xartiyasi², 1961-yilgi "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Konvensiya, 1972-yilgi ushbu Konvensiyaning qo'shimcha Protokoli, 1971-yilgi "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi Konvensiya, 1988-yilgi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash to'g'risida"gi BMT Konvensiyasi, 1998-yilgi BMT Bosh Assambleyasining XX maxsus sessiyasida qabul qilingan Siyosiy deklaratsiya va qarorlar hamda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan boshqa qaror va tavsiyalarni inobatga olib, 2004-yil 17-iyun kuni "Giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash borasidagi hamkorlik to'g'risida"gi Shartnomani³ imzoladilar.

Ushbu shartnomaning asl mohiyati ShHT a'zo-davlatlarining giyohvandlikka qarshi kurashishdagi birgalikda kelishilgan harakatlari va strategiyalarini ishlab chiqishda, barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolar faoliyatini muvofiqlashtirishda hamda giyohvandlik va uning prekursorlarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarini jalb etishda huquqiy jihatdan o'zaro bog'liqligidadir⁴.

1 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: O'zbekiston, 1996. – 55-bet.

2 Lex.uz.

3 Lex.uz.

4 Выступление Генерального секретаря ШОС Б. Нургалиева на заседании КСОПН государств-членов ОДКБ // <http://www.sectesco.org> 2008-3-27

Yaratilgan mexanizm doirasida ShHTga a'zo-davlatlarning giyohvandlikka qarshi kurashuvchi idora rahbarlarining kengashida ushbu shartnomani amalga oshirish maqsadida Afg'oniston hukumati bilan kelishuv imzolashga erishildi, ushbu kelishuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a'zo-davlatlarning tegishli qonunchilik bazasini qiyosiy tahlil qilish hamda giyohvandlik va uning prekursorlarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishdagi hamkorlikning huquqiy bazasini takomillashtirish;

- idoralararo axborot almashinivu;
- birgalikda operatsiyalar o'tkazish;
- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining aylanmasi ustidan nazorat o'rnatish;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanmasidan olingan daromadlarning legalizatsiyasiga qarshi harakat qilish;

- giyohvandlikka qarshi kurashuvchi tuzilmalarga xodimlar tayyorlash;

- giyohvandlik moddalariga bo'lgan talabni kamaytirish, giyohvandlikni davolashning yangi metodlarini ishlab chiqish va tatbiq etish, ushbu illat bilan kasallangan bemorlarni tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish¹.

Ushbu shartnomaning samaradorligini oshirish maqsadida har bir davlat shartnoma doirasida hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organini tayinlaydi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Giyohvandlik moddalari ustidan nazorat qiluvchi Milliy axborot tahliliy markazi harakat qiladi. Shu qatorda ta'kidlash kerakki, rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ShHT doirasida 16 mln. kishi giyohvandlikdan jabr ko'rgan deb hisoblanadi².

1 План действий государств-членов Шанхайской организации сотрудничества и Исламской Республики Афганистан по проблемам борьбы с терроризмом, незаконным оборотом наркотиков и организованной преступностью // http://sco2009.ru/docs/documents/afghanistan_plan.html

2 Ивашов Н., Царегородцева И. "РБК: ШОС поможет Афганистану. В борьбе с производством наркотиков" // www.centrasia.ru

Bundan tashqari, ushbu masala doirasida ShHT MATTining ma'lumotlar banki to'g'risidagi Kelishuv, ShHT a'zo-davlatlarining tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik va faoliyatni muvofiqlartirish to'g'risidagi Protokol, ShHT a'zo-davlatlari rahbarlarining Deklaratsiyasi qabul qilindi. ShHT va ODKB Bosh Kotiblarining o'zaro hamjihatlik to'g'risidagi Memorandumi asosida hamkorlik doiralaridan birini, ya'ni giyohvandlikning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha o'zaro kelishib olindi.

Fikrimizning davomi sifatida shuni aytish lozimki, yuqorida keltirilgan davlatlarning xavfsizlik masalalariga erishish vositalaridan biri davlatlarning xalqaro tashkilotlar bilan bo'lgan hamkorligidir. Bugungi kunga kelib, xalqaro munosabatlarni xalqaro tashkilotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir davlat o'zining manfaatlaridan, maqsadlaridan kelib chiqqan holda xalqaro munosabatlarga kirishadi. Dunyodagi yirik tashkilotlardan biri bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda, madaniy va siyosiy, gumanitar va boshqa sohalarda yetakchi o'rinni egallaydi.

3.3. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda INTERPOL faoliyatining o'ziga xos jihatlari

Interpol (fransuzcha – Organisation internationale de police criminelle) “International polis” so'zining qisqartirilishidan tashkil topgan so'z bo'lib, Jinoyat politsiyasining xalqaro tashkilotidir. Interpolni tuzish to'g'risidagi qaror 1914-yilda Monako kongressida qabul qilingan, lekin 1923-yildan, ya'ni uning birinchi ustavi qabul qilingan kundan boshlab harakat qila boshladi.

1923-yilning 3-sentabrida Jinoyat politsiyasi xalqaro Kongressi to'plandi. U Vena shahrida 20 ta mamlakatning 183 ta politsiya organlari Delegatsiyasi ishtirokida o'tdi.

1923-yil 7-sentabrda Nizom qabul qilingan kundan boshlab, Interpolning rivojlanish tarixi boshlandi. Lekin 1923-yilda Xalqaro Komissiya hali mustaqil tashkilot emas, balki butun jahon politsiya Kongressining organi sifatida tashkil etilgan edi.

Nizomning 1-moddasiga ko'ra, Jinoyat politsiyasi xalqaro Komissiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat edi:

1) barcha mamlakatlardagi xavfsizlik organlarining o'zaro xizmat yordamini rasmiylashtirish;

2) jinoyatchilikka qarshi muvaffaqiyatli faoliyat olib boradigan muassasalar tuzish.

1924-yilning may oyida Jinoyat politsiyasi xalqaro Komissiyasida quyidagi bo'limlar tashkil qilingan:

1) Xalqaro jinoyatchilar haqida axborotlar markazi;

2) Yashirinib yurgan jinoyatchilarni topish markazi.

1930-yilda Jinoyat politsiyasi xalqaro Komissiyasi mustaqil ish boshladi. Bundan keyin Jinoyat politsiyasi xalqaro komissiyasining Bosh Assambleyasi har yili chaqiriladigan bo'ldi va yanada kengroq masalalarni ko'rib chiqa boshladi. Qalbaki pul yasovchilarga "jonli tovar" bilan savdo qiluvchi narkotiklar tashish imkoniyatlarini cheklasa, xalqaro firibgarlar va o'g'rilarga qarshi kurash kabilar shular jumlasidandir¹.

Ikkinchi jahon urushi davrida Interpol o'z faoliyatini to'xtatib, 1946-yilda yana boshladi. Jinoyat politsiyasi xalqaro Komissiyasi yangi Nizomni ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzdi. Shtab kvartira Parij shahriga ko'chirildi.

1947-yilda Jinoyat politsiyasi xalqaro Komissiyasi Oliy Kongressning navbatdagi sessiyasini chaqirdi. Unda Jinoyat politsiyasi Xalqaro Komissiyasi italyan jurnalistlarining taklifi bilan INTERPOL deb o'zgartirildi.

1956-yil 13-iyun kuni Venadagi 25-Kongressda Interpol Nizomi qabul qilindi.

1960-yilda Vashingtonda majlis bo'lib o'tdi. 1972-yilda Interpolning shtab-kvartirasi Fransiya (Lion shahri)ga joylashtirildi. 1982-yildan boshlab Interpol maqomiga ega bo'ldi. Bugungi kunda Interpolga 170 dan ortiq davlat a'zo bo'lib, a'zolar soni jihatidan u BMTdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

¹ Mirenskiy B.A. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik. Mas'ul muharrirlar: professor M.M. Fayziyev, A.X. Rahmonqulov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. – 251–253-betlar.

Uning strukturasi, maqsadi, milliy politsiya muassasalari bilan hamkorligi Interpol ustavida belgilangan.

Interpolga a'zo bo'lishni istagan har qanday davlat o'zining vakolatli hukumati nomidan Interpolning Bosh Kotibiga yozma ravishda murojaat qiladi. Muayyan davlatni Interpolga qabul qilish masalasi Interpolning Bosh Assambleyasi tomonidan qatnashuvchilarning 2/3 qismining ovozi bilan hal qilinadi¹.

Interpolning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi talablari va amaldagi qonunlar asosida jinoyat politsiyasining barcha organlari (muassasalar)ning hamkorligini ta'minlash;

- jinoyatlarning oldini olishda samarali hamkorlik qila oladigan institutlarni tuzish va ularning faoliyatlarini takomillash-tirib borish.

Shuningdek, Interpolning Nizomida bu hamjamiyatga a'zo-davlatlarning siyosiy, harbiy, diniy va irqiy masalalarga aralash-masligi talab etiladi².

Interpolning tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

- 1) Bosh Assambleya;
- 2) Bosh kotibiyat;
- 3) Milliy Markaziy byurolar;
- 4) Maslahatlar.

Bosh Assambleya – Interpolning oliy tashkiliy-huquqiy instansiyasidir. Uning tarkibiga barcha milliy politsiya organlarining delegatlari kiradi. Bosh Assambleya sessiyasi yiliga bir marta chaqiriladi. Lekin Nizomda favqulodda sessiya chaqirish imkoniyati ham ko'zda tutilgan. Bosh Assambleya tashkiliy va moliyaviy masalalardan tashqari, Interpolning faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

Nizomning 8-moddasiga muvofiq, Bosh Assambleya quyidagilarni amalga oshiradi:

1 M. Usmonaliyev, Y. Karaketov. Kriminologiya. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 510–511-betlar.

2 Interpol Nizomi (3-modda) / Qarang: Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 143–152.

1) tashkilotning faoliyat prinsiplarini belgilaydi va uning Nizomidagi vazifani bajarishga ko'maklashuvchi tadbirlarni ishlab chiqadi;

2) kotibiyat taqdim etgan yillik ish rejasini ko'rib chiqadi, qarorlar qabul qiladi, Interpolning mansabdor shaxslarini saylaydi;

3) o'z vakolatlari doirasida tashkilotning alohida a'zolariga tavsiyalar beradi;

4) moliyaviy masalalarni ko'rib chiqadi;

5) boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini muhokama etadi, qaror qabul qiladi¹ va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Bosh Assambleya turli masalalar bo'yicha doimiy va vaqtinchalik qo'mitalar tuzadi. Bunday qo'mitalar qisman tashkilotning Nizomini o'zgartirish haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun tuziladi. Har bir sessiyaning oxirida Bosh Assambleya bir qancha takliflar ichidan ovoz berish yo'li bilan tanlab olib, keyingi sessiya o'tkaziladigan shaharni aniqlaydi.

Shuningdek, Bosh Assambleya qoshida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga, giyohvandlik vositalarining tarqalishiga qarshi kurashning alohida masalalarini o'rganish bo'yicha doimiy va vaqtinchalik komissiya tuzilgan.

Interpolning ijroiya qo'mitasi Interpolning Prezidenti, 3 ta Vitse prezidenti va 9 ta delegatlardan iborat. Qo'mitaning 13 ta a'zosi turli mamlakatlar politsiyalarining va iloji boricha barcha qit'alarining vakillari bo'lishi kerak². Ijroiya qo'mitasi Interpol Prezidentining tavsiyasi bilan bir yilda bir marta o'z yig'ilishini o'rkazadi. Ijroiya qo'mitasining funksiyasiga quyidagilar kiradi:

1) Bosh Assambleya qabul qilgan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish;

2) Bosh Assambleya sessiyasining kun tartibini tayyorlash;

1 Interpol Nizomi (8-modda) / Qarang. Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 143–152.

2 Interpol Nizomi (15-modda) / Qarang. Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 143-152.

3) Bosh Assambleya ish rejasi va takliflarni taqdim etish;
4) Bosh Kotibning o'z faoliyatini amalga oshirishini nazorat qilib borish;

5) Bosh Assambleya tomonidan unga yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirish¹.

Interpol Ijroiya qo'mitasi yiliga kamida bir marta chaqiriladi. Lekin ko'pincha ikki yilda bir marta chaqiriladi.

Bosh kotibiyat Interpolning doimiy ishlovchi xizmat qismi. Bosh kotibiyatga 5 yil muddatga tayinlanadigan Bosh Kotib rahbarlik qiladi. U Bosh Assambleya tomonidan Ijroiya qo'mitasining taklifiga binoan tayinlanadi. Bosh kotib lavozimiga oliy ma'lumotli, 65 yoshdan oshmagan shaxs tayinlanadi. Apparatda 20 dan ortiq mamlakatning vakillari ishlaydi.

Bosh kotibiyat quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1) Bosh Assambleya va Ijroiya qo'mitasining qarorlarini hayotga tatbiq etish;

2) jinoyatchilikka qarshi kurashishning xalqaro markazi sifatida faoliyat olib borish;

3) maxsus axborot markazi sifatida faoliyat olib borish;

4) Interpol faoliyatining samarali ma'muriy rahbarligini ta'minlash;

5) milliy markaziy byuro orqali jinoyatchilarni aniqlash masalalari bo'yicha milliy va xalqaro organlar bilan aloqada bo'lish;

6) Interpolning nashrlarini tayyorlash va chiqarish;

7) Bosh Assambleyaning, Ijroiya qo'mitasining va Interpol boshqa organlarining kengashlarida ishchi kotibiyat vazifasini bajarish;

8) Bosh Assambleya, Ijroiya qo'mitasining kelasi yil uchun ish rejasini, uni muhokama qilish va qabul qilish uchun tayyorlash;

9) Interpolning Prezidenti bilan (imkoni boricha) doimiy ravishda va to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lib turish kiradi².

1 Interpol Nizomi (22-modda) / Qarang. Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 143–152.

2 Interpol Nizomi (26-modda) / Qarang. Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 143-152.

Bosh Kotib Interpol xizmatlariga rahbarlik qiladi, uning budjetini boshqaradi. Bosh Assambleyaning, Ijroiya qo'mitasining qarorlariga muvofiq ravishda doimiy xizmat qismlarining ishlarini tashkil qiladi va yo'naltirib turadi.

Interpol Prezidenti 4 yil muddatga, Vitse Prezidentlar esa, 3 yil muddatga saylanadi. Saylangan muddati tugaganidan keyin yana o'sha muddatga qayta saylanishi mumkin emas¹.

Tashkilot Prezidenti Bosh Assambleya va Ijroiya qo'mitasiga rahbarlik qiladi. Barcha Interpol organlarining faoliyati qabul qilinayotgan qarorlarga mos bo'lishini kuzatadi. Bosh kotib bilan aloqada bo'ladi.

Interpolning tuzilishi unchalik murakkab emas. Bosh kotibiyatda 4 ta bo'lim mavjud:

1-bo'lim – Umumiy ma'muriy rahbarlik;

2-bo'lim – Politsiya;

3-bo'lim – Axborot-ma'lumot va tadqiqot;

4-bo'lim – Qo'llab-quvvatlash va texnik ta'minot².

Birinchi bo'lim moliya va budjet, texnik ta'minot, aloqa vositalari, Interpol organlarining hujjatlari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Asosan bular tashkilotning ichki ishlaridir.

Ikkinchi bo'lim Interpol tizimida muhim organ bo'lib, uning bo'limlari turli jinoyatlarni fosh etish bilan shug'ullanadi.

Uchinchi bo'lim axborot va ilmiy-tadqiqotlar markazi hisoblanadi. Uning xodimlari politsiya xizmatlarining yangi metodlarini o'rganadilar va umumlashtiradilar, turli aloqalarni yo'lga qo'yadilar.

To'rtinchi bo'lim Interpolning "International Criminal Police Review" degan jurnalini chop ettiradi. Jurnal 200 betdan iborat bo'lib, 2 oyda bir marta chiqadi.

1 Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 512-bet.

2 Batafsil qarang: A.X. Saidov Xalqaro huquq chizmalar va ta'riflarda. O'quv qo'llanma. T.2. Mas'ul muharrir: yuridik fanlar doktori, professor U. Tojixonov. – T.: Adolat, 2001. – 236–239-betlar.

1987-yildan Bosh kotibiyat tarkibida giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy muomala qilishga hamda boshqa jinoyatlarga qarshi kurashishning mintaqaviy masalalarini hal etish hamda Yevropa davlatlari politsiya organlari hamkorligini rivojlantirish maqsadida Yevropa kotibiyati faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirgi kunda kotibiyat tarkibida qurollar bilan noqonuniy savdo qilishga qarshi va xalqaro terrorizmga qarshi kurashish bo'limlari faoliyat yuritadi.

Boshqa bo'limda esa, qalbaki pul va metal tangalar, yo'l chiptalari, obligatsiyalar, aksiyalarning tayyorlanishiga qarshi kurashish haqidagi ma'lumotlarni tekshirib boradi. Bu yerda qalbaki qimmatli qog'ozlarni tekshirish bo'yicha maxsus laboratoriya faoliyat yuritadi. Shuningdek, hozirgi kunda dunyoning 15 mingdan ziyod bank va emission muassalari obuna bo'lgan mazkur sohaga oid davriy adabiyotlar nashr etiladi.

Politsiya bo'limining maxsus bo'limi giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishi haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Interpol o'zining tez va doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, shu jumladan, barmoq izlarini va fotorasmlarni, fototelegraf uzatishni amalga oshiruvchi tezkor aloqa vositalariga ega.

Interpol quyidagi xalqaro qidiruv ishlarini amalga oshiradi:

1. Oddiy qidiruv – “Qizil sirkulyar” barcha Interpolga a'zo davlatlar qo'lga olish talabi bilan amalga oshiriladi. Ko'k sirkulyar qidiruv to'g'risidagi talab Interpolga a'zo davlatlarga tarqatiladi va bundan tashqari bedarak yo'qolganlar kartatekasi-dan foydalaniladi.

2. 3 oygacha tezkor qidiruv.

3. Oddiy qidiruv – oldindan qidiruvni e'lon qilish “Yashil sirkulyar”.

4. Aralash qidiruv – “Qizil va yashil sirkulyar” birgalikda qo'shib olib boriladi, ba'zi bir davlatlarda qo'lga olish va boshqa bir davlatlarda kuzatuv ostiga olish talab qilinadi.

5. “Qora sirkulyar” Interpolga a'zo davlatlarga jasadning shaxsini fotosurat bo'yicha aniqlash talabi bilan tarqatiladi.

Aniqlanmagan jasadlar kartotekasidan foydalaniladi. Maxsus nashrlar o'g'irlangan narsalar fotosuratlari, byulletenlardan, shuningdek, maxsus kartoteka va kompyuter ma'lumotlar bankidan foydalaniladi.

Interpolning bolalarga qarshi jinoyatlar bo'yicha mutaxassislar guruhi to'rt asosiy yo'nalishda faoliyat olib boradi:

- bolalarning g'ayriqonuniy savdosi;
- jismoniy tajovuz;
- bolalarga nisbatan sodir etilgan og'ir jinoyatlar;
- bolalar pornografiyasi.

Mazkur guruh jinoyatlar yuqorida keltirilgan turli hududlarda bu borada keng faoliyat olib boradi, bolalarning jismoniy tajovuzga uchrashi va ulardan pornografiya maqsadlarida foydalanish hollariga qarshi kurashuvchi subyektlarga yaqindan yordam beradi.

Interpol a'zo-davlatlarga bolalar savdosi ustidan amalga oshiriladigan yirik tergov operatsiyalarini va jinoiy ta'qibni amalga oshirishda tezkor ravishda yordam ko'rsatadi¹.

Interpolga a'zo davlatlarning politsiya xizmatlarida Milliy markaziy byuro (MMB) tashkil etilgan. Ular o'z davlatlarining turli tashkilotlari (birinchi navbatda, sud, prokuratura, chegara va bojxona qo'mitalari), boshqa davlatlar MMB va Interpolning Bosh Kotibi bilan o'zaro aloqalarini amalga oshiradilar.

Milliy markaziy byurolar ilk bor 1927–1928-yillarda Amsterdam, Berlin, Bryusel, Vena va Parijda tuzilgan edi.

Milliy markaziy Byurolarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) xalqaro qidiruv e'lon qilish;
- 2) Interpol doirasida qidiruv e'lon qilingan jinoyatchilarni berish, so'roq qilish va ularga nisbatan boshqa harakatlarga taalluqli tadbirlarni o'tkazish.

Interpol MMB orqali quyidagi shaxslarning xalqaro qidiruvi amalga oshirilishi mumkin:

¹ M.H. Rustamboey, Q.R. Abdurasulova, S.S. Niyozova, N.B. Qurbonov. Odam savdosiga qarshi kurash muammolari. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011. – 169-bet.

- surishtiruv, tergov yoki suddan yashiringanlar;
- jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlar yoki jazoni ijro etish joyidan qochganlar;
- bedarak yo'qolganlar.

O'zbekiston Respublikasi Interpolga 1994-yilda a'zo bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining Interpolga a'zolik faoliyati xususidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-martdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat qidiruv politsiyasining xalqaro tashkilotiga (Interpolga) kirishi to'g'risida"gi 118-son Qarori bilan tartibga solinadi.

1994-yilning 29-noyabrda Vazirlar Mahkamasi Qaroriga binoan (573-son), Ichki ishlar vazirligi tarkibida Interpolning O'zbekiston Respublikasidagi Milliy markaziy byurosi tashkil etildi. Bu byuro mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish organlariga quyidagilarda yordam beradi:

- narkotiklarning g'ayriqonuniy muomalasi, uyushgan jinoyatchilik, terrorism, firibgarlik, qalbaki pul yasash, iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish;
- Respublikada jinoyat qilib, xorijda yashirib yurgan jinoyatchilarni qidirish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va manfaatlarini ta'minlovchi axborotlarni xorijdan olish.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1995-yil 28-sentabrdagi 287-sonli buyrug'i Interpol Milliy byurosi va Ichki ishlar vazirligi axborot markazining o'zaro hamkorligi tartibini belgilab berdi. 1995-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining Interpol yo'nalishi bo'yicha so'rovnomalar va topshiriqlarni bajarish tartibi to'g'risidagi 325-sonli yo'riqnomani belgilab berdi¹.

Interpol Xalqaro huquq subyekti emas. Ammo, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi bilan tuzilgan ikkala tashkilotning organlari o'rtasida yaqin hamkorlik to'g'risidagi bitimlarga aso-

¹ Mirenskiy B.A. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik. Mas'ul muharrirlar: professor M.M. Fayziyev, A.X. Rahmonqulov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. – 258–262-betlar.

san Xalqaro tashkilot sifatida tan olingan Interpolning a'zolari amalda tegishli hukumatlarning roziligi bilan unga kiradigan davlatlarning politsiya organlari hisoblanadi¹.

Yuqoridagilarga ko'ra, Interpolning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til bilan bog'liq muammolarni bartaraf etgan holda Interpolning barcha a'zolari bilan doimiy ma'lumot almashish uchun tezkor aloqani o'rnatish;

2. Xalqaro talablarga javob beruvchi ma'lumotlarni topish, qayta ishlash xizmatini tashkil etish va rivojlantirish;

3. Tez va ishonchli faoliyat yuritadigan qidiruv xizmati hamda xalqaro jinoyatchilarni e'lon qilishni ta'minlash;

4. O'zaro texnik yordamchilarini o'rnatish;

5. Izlanishlar, o'qitish va malaka oshirish, malakali kadrlar hamda yordamchi vositalari bilan ta'minlash sohalaridagi bevosita yoki bilvosita faoliyat yo'li bilan xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.

3.4. Xalqaro Tribunallar va Xalqaro Jinoyat Sudi

Xalqaro tribunallar – xalqaro jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan jinoyatchilar va davlatlarni sud qilish uchun tuziladigan organlardir. Xalqaro tribunallarning bugungi kunga qadar 4 tasi mavjud bo'lgan.

I. 1945-yilgi Xalqaro harbiy tribunal Ustavi asosida ishlagan Nyurnbergdagi Xalqaro Harbiy Tribunal. Tribunal Nizomida uning yurisdiksiyasi ta'riflanib, umumiy prinsiplari belgilab berilgan edi. Tribunal quyidagi ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan nemis harbiy jinoyatchilarini sud qilish va jazolash huquqiga ega edi:

1) tinchlikka qarshi jinoyatlar (agressiya);

2) harbiy jinoyatlar, ya'ni urush qoidalari va qonunlarini buzish;

¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va boshq. Mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2010. – 179–180-betlar.

3) insoniyatga qarshi jinoyatlar, ya'ni urushgacha va urush davrida tinch aholini o'ldirish va qirg'in qilish.

Sudda ish ko'rish 1945-yil 20-noyabrda boshlangan. Sudda 24 nafar bosh nemis harbiy jinoyatchilarining ishi ko'rib chiqilgan.

Nyurnberg harbiy tribunali hukmida quyidagilar jinoiy tashkilot deb tan olindi:

- 1) Imperiya ministrlar kabineti;
- 2) Germaniya natsistlar partiyasining rahbarlari tarkibi;
- 3) Fashistlar partiyasining himoya otryadlari (SS) va uning tarkibiy qismi sifatida xavfsizlik xizmati (SD);
- 4) Davlat yashirin politsiyasi (Gestapo);
- 5) Fashistlar partiyasining hujumchi otryadlari;
- 6) Germaniya qurolli kuchlarining bosh shtabi va oliy bosh qo'mondonligi (OKB)¹.

Tribunaldagi hammasi bo'lib 403 ta ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Tribunal 3 mingdan ortiq hujjatlar bilan ta'minlanib, 200 ga yaqin guvohlarni so'roq qildi. 1946-yilning oktabrida hukm e'lon qilindi. Jinoyatchilar qonunga muvofiq jazolandi².

Nyurnberg tribunali Nizomi va hukmida tavsiflangan xalqaro jinoyat huquqiga xos alohida tamoyillar imperativ xususiyatga ega. 1946-yilning dekabrda BMT Bosh Assambleyasi o'z rezolyutsiyasida Nyurnberg tribunali Statuti tan olgan va tribunal hukmiga umum tan olinganlar sifatida ifodasini topgan xalqaro huquq tamoyillarini tasdiqladi³.

II. 1946-yilda Yaponiyada ittifoqchi bosh qo'mondonlar tasdiqlagan Ustav asosida amal qilgan Uzoq Sharq uchun Harbiy Tribunal Nizomiga asosan, Tribunal Uzoq Sharqdagi bosh harbiy jinoyatchilarni adolatli ravishda tezkorlik bilan sud qilish maqsadida tuzilgan edi.

1 Панов В.П. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 32.

2 Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq). – T.: 2002. – 352–356-betlar.

3 Панов В.П. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 22.

Nyurnberg Tribunali kabi Tokio Tribunali ham xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquq prinsiplari va normalarining rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

III. Sobiq Yugoslaviya hududida 1991-yildan boshlab sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi uchun shaxslarni sud ta'qibiga olish uchun tuzilgan Gaagadagi xalqaro tribunal 1993-yilda BMT Xavfsizlik kengashi qabul qilgan Ustav¹ asosida faoliyat olib bordi.

Sobiq Yugoslaviya uchun Tribunal ikkita sud va bitta apellyatsiya kamerasida qoralovchi va kotibdan iborat. Jami 11 ta sudya bo'lib, har bir sud kamerasida uch sudya va apellyatsiya kamerasida besh sudya mavjud.

Sobiq Yugoslaviya uchun Tribunalning doimiy qarorgohi Gaaga shahridadir.

IV. Ruanda hududida sodir etilgan genotsid va boshqa xalqaro gumanitar huquqni jiddiy buzish hollari uchun javobgar shaxslarni 1994-yil 1-yanvardan 1994-yil 31-dekabrgacha qo'shni davlatlar hududida sodir etilgan Ruandaning genotsid va boshqa shu kabi qonunbuzarliklari uchun javobgar fuqarolarni BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan 1995-yilda qabul qilingan Ustav asosida sud ta'qibiga olish uchun tuzilgan xalqaro jinoyatlar tribunalini.

Ruanda uchun tribunal Nizomi xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarda sodir etilgan jinoyatlarni ko'rib chiqqanligi uchun, bu yerda qo'llaniladigan gumanitar huquq Yugoslaviya uchun tuzilgan Tribunaldagidan farq qiladi. Bu yerda birinchi o'rinda genotsid, keyin insoniylikka qarshi jinoyatlar, shuningdek, xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarga taalluqli bo'lgan normalarga ega 1949-yilgi Jeneva Konvensiyalarining 23-moddasi va 1977-yilgi bu Konvensiyalarga qo'shimcha II Protokoldagi² normalar turadi.

1 Qarang. Московский журнал международного право. 1996. № 1.

2 Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Jeneva Konvensiyaga doir 1977-yil 8-iyundagi qo'shimcha Protokol (II Protokol) // O'zbekiston Respublikasi ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-sentabrdagi 946-XIX-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan.

Ruanda uchun tribunalning qarorgohi Arusha shahri (Tanzaniya)da. Tribunallar BMT doimiy budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Tribunallarning birinchi darajali ahamiyatga ega faoliyati davlatlar bilan hamkorlik qilish va ularga huquqiy yordam ko'rsatishdir. Tribunallar Nizomiga asosan davlatlar sud orqali ta'qib qilish va tergov masalalarida Tribunal bilan hamkorlik qiladilar.

Xalqaro jinoyat sudi

Doimiy ishlaydigan xalqaro jinoyatlar sudini tashkil etishga harakatlar bir necha o'n yilliklardan biri bo'lib kelmoqda. Ana shunday xalqaro jinoyat sudini tashkil etish to'g'risidagi takliflar, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'paydi. Bunday sudni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlar BMT doirasida ishlab chiqilishi kerak. Chunki, BMT universal xalqaro, davlatlararo tashkilot bo'lib, uning faoliyati xalqaro tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir. 1948-yil 9-dekabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining maxsus 206-(III)-rezolyutsiyasida Xalqaro Huquq Komissiyasiga Genotsid va boshqa og'ir xalqaro jinoyatlarni sodir qilganlarni ta'qib qiladigan va jazolaydigan xalqaro yuridik organni tashkil qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish taklif qilingan edi. Bunda xalqaro sudning jinoyat kamerasini tashkil qilish imkoniyatlariga alohida ahamiyat berish kerakligi ta'kidlangan edi.

BMT Assambleyasi ushbu masala yuzasidan 489-(V)-rezolyutsiyasini qabul qildi. Shunga muvofiq ravishda BMTga a'zo bo'lgan 17 davlat vakillaridan iborat, Xalqaro jinoyat sud statutini ishlab chiqish Komiteti tashkil qilindi.

1957-yili Komitet o'zining maxsus kengashida bo'ladigan xalqaro jinoyat sudining Nizomiy hujjatlari loyihasini taqdim etdi. Ushbu loyihaga davlatlar turlicha munosabat bildiradilar.

1952-yili BMT Bosh Assambleyasi xuddi yuqorida aytilgan 17 davlat vakillaridan iborat bo'lgan yangi Komitetni tuzdi. Yangi tuzilgan komitet 1957-yili loyihaga bir qator qo'shimcha

va o'zgartirishlar kiritib, 1953-yili BMT markaziy organiga taqdim qildi.

1993-yilda BMT Bosh Assambleyasi Xalqaro jinoyat sudi statuti loyihasi ustida ishlashni davom ettirishni taklif qildi. 1994-yildan boshlab BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari ko'pdan buyon reja qilib kelinayotgan Xalqaro Jinoyat Sudi maqomini ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etdilar. Masalaning muvaffaqiyatli hal qilinishiga sobiq Yugoslaviya hamda Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat tribunallari ish olib borish jarayonida qo'lga kiritilgan tajribalar yordam berdi¹.

1998-yilning 17-yunida Rimda Diplomatik Konferensiyaning muxtor vakillari BMT homiyligida "Xalqaro jinoyat sudining Rim statutini" qabul qildilar. Konferensiya ishida 160 davlat delegatlari ishtirok etdilar. Shu jumladan, O'zbekiston vakillari ham qatnashdi.

Statutni qabul qilish uchun 120 ta davlat vakillari: jumladan O'zbekiston vakili ham xalqaro jinoyat sudini tashkil qilishni ma'qullab ovoz berdi, 21 ta davlat betaraf qoldi va 7 tasi qarshi ovoz berdi.

Xalqaro jinoyat sudi xalqaro huquqning subyekti sifatida o'zining Nizomida belgilangan doirada har qanday ushbu Nizomga kirgan davlatlarning hududlarida, maxsus kelishuv asosida esa, har qanday davlatning hududida ish ko'rishi mumkin.

Xalqaro jinoyat sudi Statuti 126 moddadan iborat bo'lib, uni 2002-yil 19-iyul kuni 68 davlat ratifikatsiya qilganidan so'ng kuchga kirdi. Shuni eslatish lozimki, XJS Statuti kuchga kirishi uchun Statutning 126-moddasiga binoan, u kamida 60 davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. 2005-yil iyun oyiga qadar bo'lgan holatga ko'ra, Xalqaro jinoyat sudining "Rim statuti"ni 99 ta davlat ratifikatsiya qildi².

Xalqaro jinoyat sudi Gaaga shahrida joylashgan.

1 Sattorov D. Xalqaro Sud. Xalqaro jinoyat sudi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 14-bet.

2 Азаров А., Ройтер В., Хюфнер К. Право человека. Международные и Российские механизмы защиты. – М: Московская школа прав человека, 2003. – С. 57.

Statutga muvofiq, sud xalqaro hamjamiyatda tashvish uyg'otayotgan eng jiddiy jinoyatlar uchun javobgar shaxslarga nisbatan yurisdiksiyaga ega bo'lgan doimiy organ sifatida ta'sis etiladi. Xalqaro jinoyat sudi davlatlarning jinoyat sudlari vazifasini o'tamaydi. Uning yurisdiksiyasi to'ldiruvchi mazmun kasb etadi. Har qanday davlat Statut ishtirokchisiga aylanar ekan, bu bilan uning yurisdiksiyasini tan olgan hisoblanadi.

Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiyasi maqomiga muvofiq, u butun xalqaro hamjamiyatni tashvishga soluvchi eng jiddiy jinoyatlarni qamrab oladi. Maqomga muvofiq, sud quyidagi jinoyatlarga nisbatan yurisdiksiyaga ega bo'ladi:

- a) genotsid jinoyatlari;
- b) insoniyatga qarshi jinoyatlar;
- d) harbiy jinoyatlar;
- e) agressiya jinoyatlari.

Statutda sanab o'tilgan jinoyatlar tarkibi to'liq ko'rsatilgan.

Xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolar davrida sodir etilgan harbiy jinoyatlarni ham sud yurisdiksiyaga kiritadi.

Sud o'zining yurisdiksiyasini yuqorida aytilgan jinoyatlar bo'yicha quyidagi vaziyatlarda amalga oshiradi:

- yuqorida aytilgan jinoyatlardan biri yoki bir nechta sodir etilganligi haqidagi jinoyat ishi Statut qatnashuvchisi bo'lgan davlatning Prokuroriga beriladi. Bunda jinoyat sodir etilish holatlari va boshqa buni tasdiqlovchi barcha hujjatlar taqdim qilinadi;

- bir yoki bir nechta shunday jinoyat sodir qilingan taqdirida, BMT Nizomining VII bobiga asosan xavfsizlik kengashining prokuroriga beriladi¹.

Sud Statutida jinoyat huquqining umumiy prinsiplariga bag'ishlangan alohida bo'lim mavjud. Unda quyidagi prinsiplar qayd etilgan:

1. "Qonunsiz jinoyat yo'q".

¹ Qarang: BMT Ustavi, VII bob. Tinchlikka tahdid qilish. Tinchlikni buzish va bosqinchilik harakatlari nisbatan ko'riladigan choralar (39-51-moddalar).

2. “Qonunsiz jazo yo‘q”.
3. Statut orqaga qaytish kuchiga ega emas.
4. Individual jinoiy javobgarlik.

Statutga “bir qilmish uchun ikki bor sud qilish mumkin emas”, degan protsessual prinsip ham kiritilgan¹. Shuningdek, 18 yoshga to‘lmagan shaxslarning xalqaro jinoyatda ayblanib, javobgarlik qilinmasligi prinsipini, harbiy jinoyatlarni sodir qilishda aybdor bo‘lgan komandirlar va boshqa boshliqlarga, albatta, javobgarlik belgilanadi².

Sud tarkibiga quyidagi organlar kiradi: Rayosat, Apellyatsiya bo‘linmasi, Sud bo‘linmasi, Dastlabki ish yuritish bo‘linmasi, Prokuror devoni va kotibiyat. Sudda 18 nafar sudya mavjud. Ular BMT xalqaro sudining sudyalari singari 9 yil muddatga Statut ishtirokchi-davlatlari tomonidan saylanadilar. Ammo, ulardan farqli ravishda, yangi muddatga qayta saylana olmaydilar. Prokuror devoni sud tarkibida mustaqil organ bo‘lib, jinoyat ishlari bo‘yicha ta‘qibni amalga oshirishga javobgar hisoblanadi. Ishtirokchilar tomonidan 9 yil muddatga saylanadi.

Kotibiyat ma‘muriy funksiyalarni amalga oshiradi. Kotib sudyalar tomonidan 5 yillik muddatga saylanadi. Sudyalar, prokuror va uning o‘rinbosarlari, sud kotibi o‘z majburiyatlarini bajarishda diplomatik daxlsizlikdan foydalanadilar. Sudda ish ingliz va fransuz tillarida olib boriladi, rasmiy tillar esa, ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari hisoblanadi.

Muhim protsessual xarakterga ega aktlar sud Reglamenti, protsedura qoidalari va ish olib borishda isbotlash qoidalari hisoblanadi. Shuningdek, sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblaydigan barcha ashyoviy dalillarni qabul qilib olish

1 Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007. – 280–281-betlar. Xalqaro jinoyat sudi prinsiplari to‘g‘risida batafsil qarang: Sattorov D. Xalqaro sud. Xalqaro jinoyat sudi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 26–37-betlar.

2 **Izoh:** Statutga binoan Statut kuchga kirguncha shunday jinoyat sodir qilgan shaxs sud Statutiga muvofiq javobgar qilinmaydi.

huquqiga ega. Sudga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – ishni tez va adolatli hal qilishdan iborat¹.

Quyidagilar Xalqaro jinoyat sudiga muayyan ishni ko'rib chiqishni so'rab murojaat etishi mumkin:

- 1) ishtirokchi-davlat;
- 2) BMT Xafsizlik Kengashi;
- 3) davlatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jabrlanganlar.

Shuningdek, boshqa manbalardan olingan asosli, ishonchli ma'lumotlar asosida Xalqaro jinoyat sudi Prokurori o'z tashabbusiga ko'ra tergovni boshlashi mumkin.

Sud statutining 77-moddasiga binoan, ushbu statutning 5-moddasida nazarda tutilgan quyidagi jazo turlari jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin:

1) ozodlikdan mahrum qilish (30 yildan ortiq bo'lmagan muddatga);

2) sodir etilgan jinoyatning o'ta xavfliligiga hamda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan kishining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Shuningdek, sud aybdorga qo'shimcha jazo sifatida jarima solish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin;

3) sodir etilgan jinoyat bilan berilgan jazo o'rtasidagi nomutanosiblik asosida ham aybdor shaxs yoki prokuror sudning hukmi ustidan shikoyat yoki protest keltirishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazoni shaxs sud tomonidan belgilangan davlatlarning birida o'taydi. Xalqaro jinoyat sudi mahkumlarning ahvoli xalqaro shartnomaviy standartlarga javob berishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Xalqaro jinoyat huquqidagi xalqaro huquqiy va milliy huquqiy sanksiyalarni farqlash lozim. Birinchi holatda ular jinoyat xatti-harakatlar jazolanishini belgilovchi xalqaro shartnomalarda ko'rsatib o'tiladi².

1 Batafsil qarang. Xalqaro terrorizm jinoyati bo'yicha jismoniy shaxslarning jinoyat javobgarligi (ilmiy-amaliy qo'llanma) Nashr uchun mas'ul: prof. Q.Z. Alimov. – T.: 2007. – 24–29-betlar.

2 Batafsil qarang. Панов В.П. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 37–39.

Statutga muvofiq, sud xarajatlari ishtirokchi-davlatlar kiritgan badallar hamda hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, jismoniy shaxslar, korporatsiyalar va boshqa tuzilmalarning ixtiyoriy badallari hisobiga qoplanadi. Alohida hollarda BMT Bosh Assambleya roziligi bilan mablag'lar ajratishi mumkin.

Xalqaro jinoyat sudining sobiq Yugoslaviya va Ruandada ta'sis etilgan "at hoc" tribunallaridan farqli o'laroq, milliy sud tizimidan ustuvor ahamiyat kasb etmasdan, jinoiy adliyaning milliy organlarini to'ldirib turuvchi vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, Xalqaro jinoyat sudi insoniyatni xavotirga solayotgan, ertangi kunga ishonchini yo'qotishga olib kelishi mumkin bo'lgan jinoyatlarga xalqaro miqyosda baho berishi bilan qimmatlidir. Zero, bugungi kunga kelib chuqur ildiz otib ketgan xalqaro miqyosdagi jinoyatchilikka qarshi alohida olingan davlat yoki mintaqa samarali kurash olib borishi mumkin ekanligi o'z-o'zidan ayon. Shunday bir sharoitda Xalqaro jinoyat sudi qonun ustuvorligining, qilingan jinoyat aslo jazosiz qolmasligining isboti sifatida maydonga chiqdi. Xalqaro sud, Xalqaro jinoyat sudi, eng avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi bilan ham qimmatlidir.

XULOSA

Hozirgi kunda butun dunyo hamjamiyati oldida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham insonning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilmoqada.

Mazkur monografiyada xalqaro huquqning dolzarb sohalari-dan biri – “Xalqaro jinoyat huquqi” predmeti, manbalari, xalqaro va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar hamda ularning farqlovchi belgilari, jinoyatchilikka qarshi kurashda BMT, INTERPOL va boshqa xalqaro tashkilotlarning o'rni, Xalqaro Tribunallar va Xalqaro jinoyat sudi kabi masalalarni yoritishga harakat qildik.

Mazkur sohani yoritish jarayonida bu boradagi huquqiy normalar va ushbu mavzuda yozilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy va nazariy jihatdan o'rganish asosida quyidagi fikr va mulohazalarga keldik:

1. Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi va predmetiga quyidagicha ta'rif berish taklif etilmoqda:

Xalqaro jinoyat huquqi zamonaviy xalqaro huquqning kompleks mustaqil sohasidir. Xalqaro jinoyat huquqi normalari ikki subyektga, ya'ni davlatlarning o'zaro vakolat va majburiyatlari bo'yicha hamkorligi va xalqoro jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligiga qaratilgan bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqi – davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi prinsiplar va normalar majmui. Uning o'ziga xos jihati shundaki, aniq kishilar, jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar huquqiy tartibga solish obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqining tartibga solish sohasiga xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va odatdagi jinoiy ishlarga qarshi kurashda hamkorlik kabilar kiradi.

2. Xalqaro jinoyat huquqi faniga kelsak, uni ta'rif-tasniflashda ham yagona nuqtai nazar mavjud emas.

Ulardan biri fanni mustaqil, kompleks huquqiy fan sifatida ifodalab, u xalqaro jinoyatlar uchun mas'uliyatni hamda unga

muvofig davlatlarning jinoyiy sohaga oid qonunlar bilan kurashda shu davlatlarning bir-biriga huquqiy yordam ko'rsatish shartlarini belgilovchi va tartibga soluvchi me'yorlarni o'rganadi.

V.P. Panovning ta'kidlashicha, xalqaro jinoyat huquqiga xalqaro huquqdan alohida mustaqil fan sifatida qarash mumkin emas. Xalqaro jinoyat huquqi xalqaro ommaviy huquqning mustaqil tarmog'i ekanligi tan olingan¹. Shu sababli xalqaro jinoyat huquqi fani ham uning doirasidan chiqib keta olmaydi.

Ma'lumki, xalqaro huquq davlatlar orasida hamkorlik jarayonida yuzaga keluvchi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa munosabatlarni, ya'ni davlatlararo munosabatlarning xalqaro boshqaruvi bilan bog'liq muammolarini o'rganadi. Xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning xalqaro jinoyatchilik bilan hamkorlikdagi kurashi jarayonida shakllanuvchi davlatlararo munosabatlarning xalqaro boshqaruv bilan bog'liq masalalarini o'rganadi.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlarning xalqaro hamkorligi jarayonida davlatlar quyidagi vazifalarni hal qiladi.

a) bir qancha yoki barcha davlatlarga xavf tug'diruvchi jinoyatlarni xalqaro xarakterdagi jinoyatlar sifatida turkumlashni maslahatlashib olish;

b) xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashda o'zaro hamkorlik qilish;

d) jinoyat va jinoyatchilar ustidan huquqiy sudlarni o'rnatish;

e) jazoning muqarrariligini ta'minlash;

f) jinoyiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish zarur bo'lgan taqdirda, jinoyatchilarni topshirish.

4. Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar xalqaro hamkorligining ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

a) jinoyatlarning tobora baynalmilallashuvi va globallashuvi;

b) xalqaro jinoyatlarning ko'payishi va bir qancha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga zidligi;

¹ Панов В.П. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 320.

d) davlatlarning xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishining zarurligi;


e) jinoyatchilikka qarshi kurashda milliy va xalqaro-huquqiy vositalarni qo'shib olib borishning zarurligi.


5. Shuningdek, bu hamkorlikning yana bir yo'nalishi davlatlar tomonidan xalqaro huquq-tartibot uchun xavfli jinoyatlarni jazo belgilash, yurisdiksiya va sud ishini yuritishni belgilash, jinoiy ishlar bo'yicha bir-birlariga huquqiy yordam ko'rsatish, jinoyatchilarni topshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar faoliyati kabi xususiy masalalardir.

Bundan tashqari, huquqiy boshqaruv predmetiga jinoiy sud ishining minimal standartlari va qoidalarini belgilashni, huquqbuzarlar bilan muomalani va jinoiy huquqni muvofiqlashtirishni kiritish lozim.

Ma'lumki, bugungi kunda xalqaro xarakterga ega jinoyatlar sifatida e'tirof etilayotgan qulchilik, yollanma jinoyatchilik, terrorizm, garovga olish va boshqa jinoyatlar oqibatida millionlab begunoh insonlar iztirob chekkanligini ortiqcha izohlashga hojat yo'q. Shuningdek, terrorizm hamda terroristik harakat oqibatida millionlab insonlar qurbon bo'lishiga olib keldi. Shu sababli xalqaro jinoyatlarning oldini olishda ularga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhimdir.

SXEMALAR






XALQARO JINOYATLARNING XALQARO XARAKTERGA EGA BO'LGAN JINOYATLARDAN FARQLARI


Farqlovchi belgilari	Xalqaro jinoyatlar	Xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlar
Subyekti	Davlat mexanizmidan jinoiy maqsadda foydalanuvchi davlatlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, oddiy ishtirokchilar	Jismoniy shaxslar
Obyekti	Xalqaro tinchlik va xavfsizlik, butun insoniyat manfaatlarini	Ikki yoki bir necha davlatlar manfaatlarini
Javobgarlik	Xalqaro huquq subyekti sifatida davlatning javobgarligi va ijrochining jinoiy javobgarligi	Shaxsiy jinoiy javobgarlik
Yuridik maqomi	Xalqaro yoki ichki davlat	Ichki davlat


XALQARO JINOYATCHILIK VA XALQARO JINOYATLAR TUSHUNCHALARI

Xalqaro jinoyatchilik bu – kishilik jamiyatining rivojiga zarar yetkazuvchi, sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisidan tashkil topuvchi ijtimoiy salbiy hodisalar



XALQARO (TRANSMILLIY) XARAKTERGA EGA BO'LGAN JINOYATLAR






BMT XALQARO SUDI


BMT Xalqaro sudi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh sud organi

BMT Xalqaro sudi 1945-yilda tashkil etilgan. Sud Statuti BMT Ustavining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.


Sudning joylashgan o'ri – Gaaga (Niderlandiya). Sudning rasmiy tillari – ingliz va fransuz tili, ammo Sud istalgan tomonga boshqa tildan ham foydalanishga ruxsat berishi mumkin.



INTERPOLNING TUZILISHI



INTERPOLNING XALQARO QIDIRUVI



JINOYATCHILARNI TOPSHIRISH¹



HUQUQIY ASOSLARI

- xalqaro og'ir jinoyatlarning ayrim turlariga qarshi kurash bo'yicha xalqaro bitimlar;
- ekstraditsiyalar yoki jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida ikki tomonlama shartnomalar;
- milliy qonunchilik normalari;
- o'zaro ishonch prinsipi

Amalga oshirilgan xatti-harakat topshirish to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutiladi.

Xatti-harakat ikki davlat qonun hujjatlariga muvofiq jazolanadigan qilmish bo'lsa va shaxs jinoyiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berilgan taqdirda uni sodir etganlik uchun bir yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo yoki og'irroq jazo nazarda tutilgan yoxud shaxs hukmni ijro etish uchun ushlab berilgan taqdirda u olti oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga yoki og'irroq jazoga hukm qilinganda amalga oshiriladi.

Topshirilgan shaxs faqat mazkur jinoyat uchun sud qilinadi.



TOPSHIRISH SHARTI



TOPSHIRISHNI RAD ETISH

- o'z fuqarolari bo'lganda;
- davlat hududidan tashqarida sodir etilganda;
- shaxsga nisbatan o'sha qilmish uchun qonuniy kuchga kirgan hukm yoki sudning ajrimi yoxud jinoyat ishini rad etish yoki tugatish to'g'risidagi bekor qilingan qaror mavjud bo'lsa;
- so'rov yuborilishiga asos bo'lgan qilmish davlatning qonun hujjatlariga ko'ra jinoyat bo'lmasa;
- shu xatti-harakati uchun jinoyiy jazoni allaqachon o'tagan yoki sud tomonidan oqlangan shaxslar.

- topshirish to'g'risida so'rovnoma yo'llash;
- jinoyatchini himoya ostiga olish;
- topshirish to'g'risida diplomatik yo'llar, muzokaralar;
- belgilangan tartibda va xarajatlarni qoplash bilan topshiruvchi mamalakatning vakolatli organlari ixtiyori bo'yicha topshirishlar.



TOPSHIRISH TARTIBI

¹ O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxsni jinoyiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish tartibi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 65-bob, 599–609-moddalarida belgilangan. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (2013-yil 1-fevralgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2013. – 339–351-betlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 326 b.

3. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 432 b.

4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400 b.

5. Karimov I.A. Tanlangan asarlar to'plami // 20 jild. – T.: O'zbekiston, 1996–2012.

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan). – T.: O'zbekiston, 2012.

2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida”gi Qonuni. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 12-son, 262-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 35-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2012-yil 1-iyungacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 408 b.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: (2013-yil 1-fevralgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2013. – 728 b.

6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi: (2012-yil 1-fevralgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2012. – 200 b.

7. O'zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning Axborotnomasi, 2001-yil, 1–2-son, 15-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 9-son, 210-m.

9. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 1–2-son, 1-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 16-son, 118-modda.

III. XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR

1. Fayziyev M., Fayziyev F. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. – T.: 1998. – 40 b.

2. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar. – T.: Adolat, 2002. – 270 b.

3. Jeneva konvensiyalari to'lami. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2002. – 440 b.

4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. – T.: 2002. – 164 b.

5. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam // O'zbekcha nashr. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 520 b.

6. YUNESCOning xalqaro me'yoriy hujjatlari. Mas'ul muharrir L. Saidova. – T.: Adolat, 2004. – 304 b.

7. Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. To'plam. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 212 b.

8. 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva Konvensiyalari va ularga qo'shimcha Protokollar. Ikkinchi, tuzatilgan nashr. – T.: Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, 2007. – 344 b.

9. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy Konvensiyalari va tavsiyalari. O'zbekcha nashr. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 240 b.

10. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya va uning fakultativ protokollari. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, – T.: 2009. – 72 b.

11. Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro shartnomalar va O'zbekiston milliy qonunchiligi: hujjatlar to'lam. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2012. – 624 b.

IV. MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Батырь В.А. Международное гуманитарное право: учеб. – М.: ЗАО Юстицинформ, 2011. – 688 с.

2. Грицаев С.А. Международная уголовная ответственность физических лиц: история и современность. Учебное пособие. Белгород: ООНИ и РИД БелЮИ МВД России, 2005. – 88 с.

3. Дикаев С.У. Террор, терроризм и преступления террористического характера. – СПб: Издательство Р. Асланова “Юридический центр Пресс”, 2006. – 464 с.

4. Камаровский Л.А. О международном суде. – М.: Зерцало, 2007. – 488 с.

5. Карапетов А.Г. Борьба за признание судебного право творчества в европейском и американском праве. – М.: Статут, 2011. – 308 с.

6. Киселев И.А. Борьба с отмыванием преступных доходов: практическое пособие для сотрудников правоохранительных органов. – М.: ИД “Юриспруденция”, 2010. – 88 с.
7. Лиц М.О. Международное право: учебное пособие. – Тюмень, 2007. – 360 с.
8. Лукашук И.И., Наумов А.В. Выдача обвиняемых и осужденных в международном уголовном праве: учебно-практическое пособие. – М.: 1998.
9. Международное публичное право: Учеб./Л.П. Анурьева, К.А. Бекашев, Е.Г. Моисеев, В.В. Устинов. Отв.ред. К.А. Бекашев. – М.: Проспект, 2010. – 1008 с.
10. Международное уголовное право // (Блищенко И.П., Каламкарян Р.А., Карпец И.И. и др.) – М. Наука, 1995.
11. Натура А.И., Пихов А.Х. Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства: организационно-правовые основы, процессуальный порядок и формы взаимодействия. Учебно-практическое пособие. – М.: Издательство «Юрлитинформ», 2007. – 136 с.
12. Овчинский В.С. Интерпол (в вопросах и ответах). – М.: ИНФАР–М, 2001. – 320 с.
13. Панов В.П. Международное уголовное право (учебное пособие). – М.: ИНФРА–М, 1997. – 320 с.
14. Солодовников С.А. Терроризм и организованная преступность. Монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2008. – 173 с.
15. Тамаев Р.С. Экстремизм и национальная безопасность: правовые проблемы. Монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2007. – 263 с.
16. Терроризм. Правовый аспект противодействия: нормативные и международные правовые акты с комментариями, научный статьи/ под.ред. И.Л. Трунова и Ю.С. Горбунова. – М.: Эксмо, 2007. – 768 с.
17. Трикоз Е.Н. Международное уголовное право: практикум/ науч.ред. А.Х. Абашидзе. – М.: Норма, 2007. – 400 с.

18. Abdusalimov Sh. Odam savdosi – global xavf. // Huquq va burch jurnali, 2008-yil, 8–9-son, – 21–22-betlar.
19. Abdumajidov G.A., To‘laganova G.Z. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va shaxsiy daxlsizlik. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – 29 b.
20. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya (albom-sxemalar). – T.: TDYuI, 2011. – 174 b.
21. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik. / Mas’ul muharrir prof. M.H. Rustamboyev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – 305 b.
22. Abdurasulova Q.R., Safarov J.I. Qiynoq: milliy va xalqaro-huquqiy jihatlar. – T.: TDYuI, 2008. – 36 b.
23. Eraliyev Q. Xatarli savdo. // Huquq va burch, 2008-yil, 12-son, 33–34-betlar.
24. Ismoilov B. Zamonaviy xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy jihatlarini (Maxsus kurs bo‘yicha ma’ruzalar matni). – T.: 2012.
25. Ismoilov B.I. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati. / Mas’ul muharrir A.X. Sattarov. – T.: TDYuI Ilmiy-tadqiqot markazi, 2012. – 20 b.
26. Kriminologiya. Darslik. Zaripov Z.S., Yakubov A.S., Avanesov G.A. va boshq.; prof. Zaripov Z.S. tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 539 b.
27. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 392 b.
28. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006. – 424 b.
29. Mamatqulov A. Xalqaro huquq. Darslik. – T.: Adolat, 1997. – 320 b.
30. Matkarimova G., Sattarov D. Xalqaro jinoyat huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – 60 b.
31. Matkarimova G.A. Xalqaro jinoyat huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2006. – 64 b.

32. Mirenskiy B.A. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik/Mas'ul muharrirlar prof. M.M. Fayziyev, A.X. Rahmonqulov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. – 270 b.

33. Mirzaraimov I.M. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkoralashtirishga qarshi kurashning huquqiy choralari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 58 b.

34. Munavvarov Z., Yovqochev Sh., Jabborov N. Terrorizm: iddao va haqiqat. – T.: 2001. – 34 b.

35. Norbo'tayev E.X., Pardayev A., Safoyev F. Xalqaro jinoyat huquqi kursi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – 28 b.

36. O'zbekiston va ShHT: mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2011-yil 29-aprel. – T.: TDYuI, 2011.

37. O'zbekiston yuridik ensklopediyasi./Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va boshq. Mas'ul muharir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2010. – 704 b.

38. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T.: 2002. – 560 b.

39. Ortiqov A.A., Isaxodjaev A.T., Shestakov A.V. Xufyona iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002.

40. Otajonov A.A. Shaxsga qarshi jinoyatlar. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 240 b.

41. Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosidagi muammo. // Huquq va burch, 2008-yil, 10-son, 3–6-betlar.

42. Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosidagi muammo. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi, 2008-yil, 5-son, 2–3-betlar.

43. Qodirov R.X. Diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning ayrim xususiyatlari. – T.: O'qituvchi, 2000. – 47 b.

44. Qudratxo‘jayev Sh., Qirg‘izboyev A. Terrorizm taraqqiyot kushandasi. – T.: O‘AJBNT markazi, 2002. – 32 b.
45. Rajabova M.A. Trafik jinoyati (odam savdosi): qonunchilik va javobgarlik. Jinoiy jazolarni liberallashtirish: ilmiy-amaliy tahlil. – T.: Adolat, 2005.
46. Rustamboyev M.H, Abdurasulova Q.R, Niyozova S.S., Qurbonov N.B. Odam savdosiga qarshi kurash muammolari. Monografiya. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011. – 168 b.
47. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi. Darslik. – T: Adolat, 2007. – 656 b.
48. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. I–V tomlari. Darslik. – T: ILM-ZIYO, 2011.
49. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T: ILM-ZIYO, 2006. – 912 b.
50. Rustamboyev M.H. Odam savdosi. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – 315 b.
51. Saidov A.X. Xalqaro huquq chizmalar va ta’riflarda. O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir U. Tojixonov. – T.: Adolat, 2001. – 352 b.
52. Saidov A.X. Xalqaro huquq. Darslik / Mas’ul muharrir U. Tojixonov. – T: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashri, 2001. – 320 b.
53. Sattorov D. Xalqaro sud. Xalqaro jinoyatlar sudi. – T.: 2004. – 46 b.
54. Turg‘unov M.T., Matchanov A.A., Niyozov A.T. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik: ma’ruzalar kursi./ Mas’ul muharrir y.f.d. professor A.X. Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 132 b.
55. Tuzmuhamedov R.A., Hakimov R.T. Xalqaro huquq asoslari: o‘quv qo‘llanmasi. – T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998. – 128 b.
56. Umarxanova D.Sh. Ekstraditsiya bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik. Monografiya. – T.:TDYuI, 2010. – 142 b.
57. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.

58. Xalqaro terrorizm jinoyati bo'yicha jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi (ilmiy-amaliy qo'llanma). // Nashr uchun mas'ul prof. Q.Z. Alimov. – T.: 2007. – 50 b.

59. Yuldasheva Z.A. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy institutlari. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – 40 b.

60. Yuridik ensiklopediya / Yu.f.d. prof. U. Tojixonovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Sharq”, 2001. – 656 b.

61. Норбутаев Е.Х., Сафоев Ф. Курс международного уголовного права. Учебное пособие. – T.: Академия МВД РУз, 2005. – 64 с.

V. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

1. Kamarov A.N. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurashni muvofiqlashtirishning huquqiy jihatlari. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: TDYuI, 2007. – 14 b.

2. Qaxorov S.R. Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning terrorizm uchun jinoiy javobgarligi. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: 2004. – 16 b.

3. Qodirkulov A.O. Pullarni qalbakilashtirishga qarshi kurashda xalqaro huquqiy hamkorlik. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: JIDU, 2010. – 24 b.

4. Qurbonov N.B. Odamlardan foydalanish uchun yollash jinoyatida javobgarlik masalalari. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: 2011. – 26 b.

5. Sattorov D. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari BMT Xalqaro Sudi faoliyatining asosi sifatida. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: 2008.

6. Sharipov Murod Mirza Sharifjon o'g'li. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning ahamiyati. Avtoref. dis.. s.f.n. – T.: 2007.

7. Umarxanova D.Sh. Jinoyat sodir qilgan shaxslarning extraditsiya bo'yicha xalqaro huquqiy hamkorlik. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtref. – T.: 2010. – 24 b.

8. Xamrayeva Sh.H. Ayollar traffigi (pullash)ni bartaraf etishning xalqaro huquqiy masalalari. Yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.av.ref. – T.: 2004. – 24 b.

VI. XORIJIY ADABIYOTLAR

1. Alexander Zahar and Goran Sluiter. International Criminal Law: A Critical Introduction. Oxford: Oxford University Press, 2007, xlviii + 530 pp.

2. Alexander, Yonah and Swetnam, Michael S. Cyber terrorism and information warfare. Dobbs Ferry, N.Y. Oceana Publications, 1999.

3. Amnesty International (11 April 2002). “The International Criminal Court – A Historic Development in the Fight for Justice”. Retrieved 20 March 2008.

4. Amnesty International. United Kingdom: the Pinochet case: universal jurisdiction and the absence of immunity for crimes against humanity. London: Amnesty International, International Secretariat, 1999.

5. Bassiouni, M. Cherif and Eduardo Vetere eds. and compilers, with the cooperation of Dimitri Vlassis. Organized crime: a compilation of U.N. documents 1975–1998. Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998.

6. Bassiouni, M. Cherif. International criminal law, 2nd ed. Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998.

7. Bassiouni, M. Cherif. International extradition: United States law and and practice. New York: Oceana Publications, 1996.

8. Chadwick E. Self-determination, terrorism and the international humanitarian law of armed conflict. The Hague; Boston, Mass.: M. Nijhoff, 1996.

9. Cherif M. Bassiouni. International Criminal Law (2nd ed.) (Ardsley, N.Y.: Transnational Publishers, 1998), pp. 4–5.

10. Dugard, John and Christine van den Wyngaert, eds. International criminal law and procedure. Aldershot; Brookfield, VT, 1996.

11. Elagab, Omer Y., compiler. International law documents relating to terrorism. 2nd ed. London: Cavendish Pub., 1997.

12. Ferencz, Benjamin B. An international criminal court, a step toward world peace :a documentary history and analysis. Dobbs Ferry, N.Y.: Oceana Publications, 1980.

13. General introductory works on international criminal law include M. Cherif Bassiouni, International Criminal Law, 2nd ed. (1999); and Roy Gutman and David Rieff, Crimes of War (1999).

14. George Ginsburgs and V.N. Kudriavtsev, eds. The Nuremberg trial and international law. (Law in Eastern Europe. no. 42. Dordrecht; Boston: M. Nijhoff, 1990.

15. Gilbert, Geoff. Transnational fugitive offenders in international law: extradition and other mechanisms. The Hague; Boston: M. Nijhoff Publishers; Cambridge, MA, 1998.

16. Hans Köchler, Global Justice or Global Revenge? International Criminal Justice at the Crossroads, Vienna / New York: Springer, 2003, ix + 449 pp.

17. Helmut Kreicker: Immunität und IStGH: Zur Bedeutung völkerrechtlicher Exemtionen für den Internationalen Strafgerichtshof. In: Zeitschrift für internationale Strafrechtsdogmatik (ZIS), vol 7/2009, available at Zis-online.com

18. Helmut Kreicker: Völkerrechtliche Exemtionen: Grundlagen und Grenzen völkerrechtlicher Immunitäten und ihre Wirkungen im Strafrecht. 2 vol., Berlin 2007,

19. Hoogh, André de. Obligations erga omnes and international crimes: a theoretical inquiry into the implementation and enforcement of the international responsibility of states. Hague; Boston: Kluwer International Law; Cambridge, MA: 1996.

20. Ilias Bantekas, Susan Nash, Mark Mackarel, International Criminal Law. London etc.: Cavendish, 2001, lvi + 323 pp.

21. International Criminal Court: A Commentary on the Rome Statute for an International Criminal Court (2001);

22. International criminal law conventions and their penal provisions. Irvington-on-Hudson, N.Y: Transnational Publishers, 1997.

23. John E. Ackerman and Eugene O'Sullivan, *Practice and Procedure of the International Criminal Tribunal for the Former Yugoslavia with selected materials from the International Criminal Tribunal for Rwanda*. The Hague etc.: Kluwer Law International, 2002, xxi + 555 pp.

24. John R. Bolton, 6 May 2002. *International Criminal Court: Letter to UN Secretary General Kofi Annan*. US Department of State. Accessed 2006-11-23.

25. Kai Ambos and Otto Triffterer (eds.), *Commentary on the Rome Statute of the International Criminal Court (1999)*;

26. Kriangsak Kittichaisaree, *International Criminal Law*. Oxford etc.: Oxford University Press, 2002, xxxi + 482 pp.

27. Lawyers Committee for Human Rights (U.S.) *The International Criminal Court trigger mechanism and the need for an independent prosecutor*. New York, N.Y., USA (333 7th Ave., New York 10001): Lawyers Committee for Human Rights, 1997.

28. Lee, Roy, ed. *The International Criminal Court: the making of the Rome statute: issues, negotiations, and results.; in cooperation with the Project of International Court and Tribunals*. Boston: Kluwer Law International, 1999. Cherif M. Bassiouni, *Introduction to International Criminal Law*. Ardsley, NY: Transnational Publishers, 2003, xxxvi + 823 pp.

29. Lyal S. Sunga, *Individual Responsibility in International Law for Serious Human Rights Violations*. Nijhoff, 1992, 252 pp.

30. Lyal S. Sunga, *The Emerging System of International Criminal Law: Developments in Codification and Implementation*. Kluwer, 1997, 508 pp.

31. Malekian, Farhad. *The monopolization of international criminal law in the United Nations: a jurisprudential approach*. Stockholm, Sweden: Almqvist & Wiksell International, 1995.

32. Potomac Institute for Policy Studies. *Counter Biological Terrorism Panel. Countering biological terrorism in the U.S.: an understanding of issues and status*. Dobbs Ferry, N.Y.: Oceana Publications, 1999.

33. Punch, Maurice, ed. Coping with corruption in a borderless world: proceedings of the fifth International Anti-Corruption Conference. Deventer; Boston: Kluwer Law and Taxation Publishers; Arnhem: Gouda Quint, 1993.

34. Ragazzi, Mauricio. The concept of international obligations erga omnes. New York: Clarendon Press, 1997.

35. Ristau, Bruno A. International judicial assistance. Washington, D.C.: International Law Institute, 1984 (looseleaf updated).

36. Rubin, Alfred P. The law of piracy. Irvington-on-Hudson, NY: Transnational, 1998.

37. Specific crimes are the subject of William A. Schabas, Genocide in International Law (2000); and M. Cherif Bassiouni, Crimes Against Humanity (1999).

38. Sunga, Lyal S. The emerging system of international criminal law: developments in codification and implementation. The Hague; Boston: Kluwer Law International, 1997.

39. The structure and function of international courts are discussed in Antonio Cassese et al. (eds.),

40. Van den Wyngaert, Christine, ed. International criminal law: a collection of international and European instruments. The Hague; Boston: Kluwer Law International, 1996.

41. William A. Schabas, An Introduction to the International Criminal Court (2001); and Telford Taylor, The Anatomy of the Nuremberg Trials (1992). William A. Schabas

42. Yves Beigbeder, Judging War Criminals. The Politics of International Justice. Basingstoke: Macmillan, 1999, xvii + 230 pp.

VII. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Boboyev H.B., Ismoilov Z.M., Choriyorov U. Mas'ul muharrir: H.B. Boboyev, H.T. Odilqoriyev. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 528 b.

2. Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, mohiyati va bugungi xavfi. / Tuzuvchilar: G'. Hotamov, M. Lapasov, A. Umarov. – T.: 1999. – 96 b.

3. Huquqshunoslikka oid o'zlashma terminlar. Tuzuvchilar: H. Bektemirov, H. Xolmedov, S. Sodiqov. – T.: Adolat, 1999. – 66 b.

4. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5-jildlik. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

5. Sagdullayev F. Transmilliy jinoyatchilik (jinoyat-huquqiy va kriminologik tahlil). – T.: TDYuI, 2010. – 80 b.

6. Азаров А., Ройтер В., Хюфнер К. Право человека. Международные и Российские механизмы защиты. – М: Московская школа прав человека. 2003. – С. 57

7. Курс международного права. Ответственный редактор Ф.И. Кожевников. – М.: 1972. – 384 с.

8. Лисовский В.И. Международное право. – М: 1970. – 438 с.

9. Международное право: учебник / Под ред. Г.И. Тункина. – М.: Юрид.лит, 1982. – 568 с.

10. Международное право: учебник/Под.ред. Н.Т. Блатовой, Л.А. Моджорян. – М.: Юрид.лит. 1979. – 584 с.

VIII. INTERNET SAYTLARI

1. www.meRa-law.ru
2. www.pravo.uz
3. www.uz.spinform.ru
4. www.lex.uz
5. www.internet-law.ru

**OBLAKULOV DAVLAT OLTINBOYEVICH
MUSTANOV ILHOMJON ABDIVALIJONOVICH**

XALQARO JINOYAT HUQUQI

Monografiya

(o'zbek tilida)

Mas'ul muharrirlar:

B. Ismoilov
G. Yuldasheva

Muharrirlar:

A. Omonov,
G. Ortiqxo'jayeva

Texnik muharir:

A. Ahmedov

Kompyuterda
sahifalovchi:

Sh. Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
"Adolat" nashriyoti. Nahsr. lits. AI № 228, 16.11.12.
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.
Telefonlar: (371) 236-05-97, 233-81-53.
Faks: (371) 233-84-80, 233-67-65.
Web-sayt: www.adolatnashr.uz
e-mail: info@adolatnashr.uz
adolatnashr@inbox.uz

Bosishga ruxsat etildi: 30.05.2013.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. "AntiquaUz" garniturası.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 11,75.
Nashriyot hisob tabog'i 10,5. Adadi 100 nusxa.
...-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.